



**Mazkur elektron kitob [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) sayti ma'lumotlaridan foydalangan holda @EpubKitoblar kanali uchun maxsus tayyorlandi.**

## ARTUR SHOPENGAUER

Olmon faylasufi Artur Shopengauer o'ziga to'q savdogar oilasida dunyoga keldi. U avval tijorat, tibbiyotdan saboq olib, keyin falsafani o'rgana boshladi. 1809 yildan boshlab Germaniyadagi eng mashhur Gettingen dorilfununida o'qidi. Tibbiyot, fizika, zoologiya, falakiyotshunoslik, tabiiy tarix, psixologiya, mantiq, inson miyasi anatomiyasi fanlarini o'rgandi. 1811 yildan esa Berlin dorilfununida Fixte hamda Shleyermaxer ma'ruzalarini tinglab, falsafadan saboq oldi.

Shopengauerda yoshligidanoq tushkunlik kayfiyati shakllana boshlagan. «Hayot – juda shubhali narsa va men umrimni u haqda fikrlash uchun bag'ishlashga qaror qildim», — deb yozgandi faylasuf o'zining hayotiy maslagi to'g'risida. Shopengauerning o'ziga ishonchi juda yuksak bo'lgan.

U keksaygan chog'ida ham xasisligi, so'zlarining keskinligi va sabrsizligi bilan shuhrat qozongan.

Hamkasblarining ta'kidlashicha, Shopengauer o'ta sershubha odam bo'lgan. Doimo atrofidaqilar go'yoki undan nimanidir yashirib, unga qarshi fitna uyushtirayotganidan gumonsirab yurgan.

Shopengauerning Berlin dorilfununidagi dotsentlik faoliyati uzoq davom etmagan. Chunki u o'z ma'ruzalarida boshqa faylasuflarni tahqirlab yodga olar yoki ularni umuman tilga olmasdi.

1825 yilda Shopengauer o'qituvchilikni tashlab, Frankfurt-Mayn shahriga ko'chib boradi va hayotining ko'p qismini shu yerda o'tkazadi. U ingliz, frantsuz, italyan va ispan tillarini mukammal bilgan.

Shopengauer 30 yoshida «Olam iroda va tasavvur sifatida» deb nomlangan eng mashhur asarini yozgan.

U birinchi bo'lib «ruhiy halovat» atamasini qo'llagan. «Eng oliy darajadagi turfa va davomiy huzur-halovat ruhiy halovatdir...» deb yozgandi faylasuf.

Shopengauer kunning asosiy qismini ikki xonali uyidagi ish bo'lmasida o'tkazgan. Mutolaa – uning eng sevimli mashg'uloti edi.

Faylasuf bir umr bo‘ydoq o‘tgan. U yuqumli kasallik tufayli vafot etishdan o‘lgudek qo‘rqqan. Shunday xavfni sezishi bilan darhol turar joyini almashtirgan.

Shopengauerning quyidagi asarlari ma’lum:

«Ko‘z va gullar to‘g‘risida» (1816), «Olam iroda va tasavvur sifatida» (1819), «Axloqning asosi» (1841), «Etikaning ikki asosiy muammosi» (1841), «Din haqida» (1851), «Parerga va Paramipomenon» (1851), «Sevgi metafizikasi». Bu asar ikki jilddan iborat bo‘lib, «Parerga» – lotincha «Qo‘shimcha asarlar» degan ma’noni anglatadi. Shopengauerning mashhur «Turmush hikmatlari» to‘plami ham ana shu kitobga kiritilgan.

Artur Shopengauer 1860 yilda vafot etdi. O‘lim to‘shagida yotgan faylasufdan do‘stlari qaerga dafn etish to‘g‘risida so‘raganlarida, u: «Menga baribir. Ular meni izlab topishadi», deb javob bergan ekan.

\* \* \*

Falsafa menga hech nima bermadi, biroq u juda ko‘p narsalarni saqlab qola oldi.

\* \* \*

Falsafaning boshlanishi hayronlikdan emas, balki hayrat va qayg‘udandir.

\* \* \*

Agar tafakkur yo‘q qilinsa yoki barcha boshchanoqlardagi miya olib tashlansa, butun olam barham topadi. Buni hazil deb qabul qilmasligingizni iltimos qilaman. Men jiddiy gapirayapman. Chunki olam faqatgina bizning (barcha jonivorlarning) tasavvurimiz sifatida mavjuddir, xolos. Bu tasavvurlardan tashqari olam yo‘q.

\* \* \*

E’tiqod va bilim – tarozining ikki pallasi: biri qancha baland bo‘lsa, ikkinchisi shuncha pastdir.

\* \* \*

Falsafaning shu topgacha muvaffaqiyatsizlikka uchrab kelayotganining sababi shundaki, uni san'at yo'lidan emas, ilm yo'lidan izlaydilar. Faylasuf falsafa ilm emas, san'at ekanligini hech qachon unutmasligi kerak.

\* \* \*

Mukammal davlatga asos solish uchun eng avvalo shunday mavjudotlarni yaratish kerakki, toki ular hamma yerda va har doim o'z manfaatlarini jamiyat farovonligi yo'lida qurbon qilishga qodir bo'lsinlar.

\* \* \*

Men va mening vaqtim: bir-biriga sira to'g'ri kelmaydi.

\* \* \*

Har bir cheklash baxtga yo'llaydi. Ya'ni, bizning nigohlarimiz, harakatlarimiz va shubha-gumonlarimiz doirasi qanchalik tor bo'lsa, shunchalik baxtiyormiz. Ular qanchalar keng bo'lsa, biz shunchalar ko'p azoblanamiz va xavotirga tushamiz. Chunki ular bilan birga bizning tashvishlarimiz, istaklarimiz hamda xavotirlarimiz ham o'sib, ko'payib boradi.

\* \* \*

Agar kimningdir to'g'ri so'zlayotganiga shubha qilsang, o'zingni unga ishonayotgandek tut: shunda u yolg'onni yanada bo'rttirib, sirni ochib qo'yadi. Bordi-yu, uning so'zlarida yashirishga urinayotgan haqiqat ohangini payqab qolsang, o'zingni unga ishonmayotgandek ko'rsat: shunda u haqiqatning qolgan qismini ham aytib beradi.

\* \* \*

Har bir odam o'zga bir odam uchun bir ko'zgudirki, u orqali barcha kamchiliklarni yaqqol ko'rish mumkin. Biroq ayrim odamlar boshqa bir it deb ko'zgudagi aksiga qarab hurayotgan ko'ppak kabi harakat qiladilar.

\* \* \*

Biror kimsaga tirikligida haykal qo'yish – kelgusi avlodlar uni unutmastigiga umid yo'qligini e'lon qilish bilan teng.

\* \* \*

Uylanish huquqlarning yarmini kamaytirish, majburiyatlarni esa ikki baravar oshirish demakdir.

\* \* \*

Insonning haqiqiy fe'l-atvori mayda-chuydalarda: ular inson o'zini nazorat qilishdan to'xtaganda yuzaga chiqadi.

\* \* \*

Mutolaa kallang o'rniga boshqaning kallasi bilan o'ylamoq demakdir.

\* \* \*

Ma'lumki, ko'pchilik bo'lib kulfatlarga dosh berish osonroq. Aftidan, odamlar bekorchilikni ham kulfatlar qatoriga kiritishadi. Va birgalikda bekorchilik qilish maqsadida majlislar uyushtirishadi.

\* \* \*

Umr qisqa. Haqiqat esa uzoq yashaydi. Keling, haqiqatni so'zlaylik!

\* \* \*

Agar chindan ham kimdir biz uchun juda qadrli bo'lsa, buni uning o'ziga aytishni jinoyatga qo'l urish bilan barobar deb bilmoq kerak. Bu uncha yoqimli bo'lmasa-da, to'g'ri maslahat. Chunki ortiqcha erkalash odamlar uyoqda tursin, hatto itlarni ham buzadi.

\* \* \*

Yolg'iz qolish bizni doimo odamlar ko'z o'ngida yashash zaruriyatidan va shuning barobarida ularning fikri bilan hisoblashishdan forig' etadi.

\* \* \*

Yolg'izlikni sevmaydigan odam – erkinlikni sevmaydi. Chunki faqat yolg'izlikdagina erkin bo'lish mumkin.

\* \* \*

Shunday avlodlar keladiki, ular mening har bir satrimni quvonch bilan qoʻllab-quvvatlaydilar.

## HAYOT SABOQLARI

Ko‘rilayotgan mavzuni iloji boricha qisqaroq ifodalashga harakat qildim, aks holda, turmush qoidalari haqida barcha zamon mutafakkirlari tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga to‘g‘ri kelardi. Shunga qaramasdan, fikrlarimiz bir joydan chiqqanda ularni eslatib o‘tishni lozim topdim. Qolaversa, qamrov kengayib ketgan taqdirda ularni tartibga solish qiyinlashgan bo‘lardi, bu holat esa o‘quvchini zeriktirib qo‘yishi mumkin. Men shunchaki miyamga kelgan fikrlarni aytishga arzigulik deb hisobladim. Xotiramga tayanib yana shuni aytmochimanki, bu borada hali fikrlar to‘laligicha va aynan shunday shaklda ifodalangan emas. Boshqacha aytganda, shu mavzuda to‘plangan fikrlarga qo‘shimcha qildim, xolos.

Bu borada turli-tuman qarashlarni tartibga keltirib quyidagi mezonlarga ko‘ra dastlab o‘zimizga doir axloqiy qoidalarni, so‘ng bu qoidalar asosida boshqalarga qilinadigan munosabatni va nihoyat, olam tartib-qoidalariga, qismatga nisbatan qarashlarni alohida-alohida ajratib chiqdim.

### Umumiy qoidalar

Hayotda orttirilgan donishmandlikning eng oliy qoidasi deb Arastuning “Nikomax etikasi”da gap orasida aytib ketgan: “Mulohazali odam huzur-halovatni emas, azob-uqubatdan qutulish yo‘lini izlaydi”, degan iborani tan olgan bo‘lardim. Bu haqiqat so‘zlarining ildizi shundaki, har qanday huzur-halovat va baxt tabiatan olganda salbiy, qayg‘u esa ijobiydir.

Har kuni kuzatish mumkin bo‘lgan bir misol orqali buni tushuntirishga harakat qilaman. Tanamiz soppa-sog‘ paytida birorta a‘zomiz kichkina jarohat olib, og‘riq paydo bo‘ldi deylik. Ana shunda bor diqqat-e‘tiborimiz jarohat va og‘riqqa qaratiladi, butun tanamizning oromi yo‘qoladi.

Xuddi shunga o‘xshash, ishlarimiz istaklarimizga hamohang bo‘lib yurishib turganda, maqsadimizga yetishishga xalal beradigan birorta ishkal chiqib, garchi bu narsa unchalik jiddiy bo‘lmasa-da, fikri-zikrimiz shunga qaratiladi. Maqsad sari intilishda boshqa ishlarimiz yaxshi ketayotgan bo‘lsa-da, ana shu ishkalni tez-tez o‘ylayveramiz.



Har ikki holatda ham irodamizga ziyon yetadi: birinchisida og‘riq butun badanimizda, ikkinchisida esa – orzu-intilishimizda mujassamlashadi. Har ikki holatda ham u irodamizga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki u bevosita emas, nari borsa refleks orqali qabul qiladi. Uning yo‘lidagi bu to‘siq ijobiy bo‘lib, u o‘z-o‘zimizni bilib olishimizga xizmat qiladi. Har qanday rohat-farog‘at unga yetishish yo‘lidagi g‘ovni bartaraf qilishdangina iborat, bu esa qisqa fursatni talab qiladi.

Diqqatimizni rohat-farog‘atga emas, balki hayotimizda to‘lib-toshib yotgan illatlarni iloji boricha chetlab o‘tishga qaratishni maslahat bergan Arastuning yuqoridagi bu saboqlari ana shunga asoslangan deb bilaman. Agar bu yolg‘on bo‘lganda edi, Volterning: “Baxt – bu tushdan iborat, dard esa bor narsa”, degan so‘zlarini ham rad etish mumkin edi, lekin uning so‘zlari haqiqatdir.

Shu sababli kimdir o‘tmishini sarhisob qilib ko‘radigan bo‘lsa, u, avvalo, quvonchli kunlarini emas, balo-ofatlardan qutulib qolgan kunlarini hisoblasin. Shu ma’noda inson “baxtli kun”lari ko‘payishini emas, “baxtsiz kun”lari ozayishini istagan holda boriga qanoat qilib yashashni o‘rganishi kerak. Har holda, hayot insonga umrini rohat-farog‘atda o‘tkazishga emas, balki bardosh berib, sabr-qanoat qilib yashash uchun berilgan.

Keksalikning yupanchi o‘tmishda qolgan mehnatingdir, shuning uchun keksalik gashti badastir va farovon hayot kechirishda emas, balki ham ruhan, ham jismonan osoyishta umr o‘tkazishdadir, chunki rohat-farog‘at baxt mezoni bo‘la olmaydi, u salbiy bo‘lib qolaveradi. Faqat boylik baxt keltiradi, deb o‘ylash xato...

Aslida, boshimizga tushgan azob-uqubatlar ijobiy ahamiyatga ega, turmushimizdagi baxt uning yo‘qligida, agar zerikish ham bo‘lmasa nur ustiga a’lo nur, boshqasi esa quruq orzu-havasdan boshqa narsa emas. Rohat-farog‘atga qayg‘u evaziga erishish mutlaqo noto‘g‘ri, aks holda, biz real ijobiy narsa o‘rniga salbiy hodisaga ega bo‘lamiz.

Qayg‘udan qutulish uchun rohat-farog‘atni qurbon qilsak arziydi. Har ikki holatda ham: u qayg‘udan oldin keladimi yoki keyin keladimi farqi yo‘q. Qayg‘uni quvnoqlik bilan yengmoqchi bo‘lgan odam yoki uni ozaytirish

chorasini ko‘rish o‘rniga rohat-farog‘at va quvonchga qarab intilgan odam ham katta xatoga yo‘l qo‘yadi.

Hayotda mol-dunyoga hirs qo‘yib yashash emas, aksincha, bu dunyoning do‘zaxiy azoblaridan o‘zini himoya qilish choralari ko‘rish foydalidir. Nodon rohat-farog‘at ketidan quvlaydi va umidi puchga chiqadi, dono esa balo-ofatlardan o‘zini chetga oladi. Agar shunday qilish qo‘lidan kelmasa, taqdirga tan berib yuraveradi. Bu narsa qay darajada amalga oshmasin, o‘zini aldangandek his qilmasligi lozim, chunki u hayotda bor narsa. Rohat-farog‘atni bekordan-bekorga qurbon berib hech narsaga erishmagan taqdirda ham mazkur holat zarar keltirmaydi, chunki u xayoliy narsa, afsuslanishga arzimaydi.

Shirin xayollarga berilib, ushbu haqiqatni mensimaslik ko‘p baxtsizliklarni keltirib chiqaradi. Qayg‘udan xoli paytimizda istaklarimiz bezovta qila boshlaydi: baxt haqida xomxayollarga berilamiz, xayoliy qasrlar quramiz, ularga erishmoqchi bo‘lamiz. Shu bilan biz o‘zimizni balo-qazoga yo‘liqtiramiz, bu esa bor gap. Ana shunda biz boy bergan osoyishtaligimizni o‘ylab afsuslanamiz. Allaqanday iblisona xomxayollar evaziga oromimizdan ajralamiz.

Faqat tajribasiz o‘smirgina bu dunyo rohat-farog‘at uchun yaratilgan, unga epchil va uddaburon odamlargina erishishi mumkin, deb o‘ylaydi. Bunday deb o‘ylashga o‘qigan kitoblari, atrofida to‘lib-toshib yotgan munofiq, sotqin odamlargina sababchi bo‘ladilar. Shu tufayli u o‘ylab-o‘ylamay ana shu baxt ketidan quvadi, tavakkal qilib yo‘lda uchragan xavf-xatarni shunchaki arzimas narsa deb o‘ylaydi.

Yo‘q narsaning ortidan quvish oxir-oqibatda real baxtsizlikka olib boradi: bu – qayg‘u-hasrat, azob-uqubat, dard, kasallik, judolik, g‘am-tashvish, kambag‘allik, sharmandalik va shunga o‘xshash minglab muhtojliklardir. Umidsizlik juda kech keladi.

Aksincha, agar inson shu qoidaga amal qilib turli balo-ofatlardan, qayg‘u-g‘amdan, kasalliklardan, muhtojliklardan o‘zini chetga tortib yashashni maqsad qilib qo‘ysa, ba‘zan birmuncha muvaffaqiyatga erishishi, maqsadini o‘zgartirmasa katta yutuqlarga ham yetishi mumkin. Gyote o‘zining

“Tanlangan vositalar” (“Izбирательные средства”) asaridagi doimo o‘zgalarning baxti haqida qayg‘uradigan qahramoni Vositachi tilidan shunday deydi: “Kimdir qandaydir balo-ofatdan qutulmoqchi bo‘lsa, u o‘z maqsadini aniq biladi, kimdir boriga shukur qilib yashash o‘rniga ortiqcha narsaga ega bo‘lishni istasa u mutlaqo ko‘r odam”. Bu “Yaxshilikning dushmani undan afzalrog‘i” degan ajoyib frantsuz maqolini eslatadi. Kinizm (rohat-farog‘atni inkor qiluvchi falsafiy oqim)ning asosiy g‘oyasini ham shunga qiyoslash mumkin. Kiniklar bu borada azob-uqubatlarni bartaraf qilishni afzal ko‘radilar. Rohat-farog‘at salbiy, azob-uqubat esa ijobiy, degan fikr ular ongiga chuqur singib ketgan. Yovuzlikni bartaraf etishga qat‘iy rioya qilganlar, rohat-farog‘atni bu yo‘lda qo‘yilgan tuzoq deb bilganlar.

Barchamiz hayotga qadam qo‘yar ekanmiz, u bizga baxt-saodat beradi, deb ishonamiz va amalda shunga qarab behuda intilamiz. Tez orada o‘ylaganlarimiz puch ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Taqdir bu hayotda hech bir narsa: na mol-mulkimiz, na oila-yu bola-chaqamiz, na tanu jonimiz bizga tegishli emasligini isbotlab beradi.

Ertami-kechmi hayot tajribamizdan ma‘lum bo‘ladiki, baxt va rohat-farog‘at sarobdan boshqa narsa emas ekan. Uzoqdan bizni maftun qiladi-yu, yaqinlashgan sari yo‘qoladi. Azob-uqubat va dard esa, aksincha, shunchalik real voqeaki, u bizni kutdirib o‘tirmaydi, so‘roqsiz kirib kelaveradi. Agar bu narsa bizga saboq bo‘lsa, u holda baxt va rohat-farog‘at ketidan quvmasdan imkon boricha azob-uqubat va darddan xalos bo‘lish haqida o‘ylashimiz lozim.

Eng yaxshisi, qayg‘usiz, osoyishta, chidasa bo‘ladigan darajada kun kechirish va shunga intilish, juda baxtsiz yashamaslik uchun o‘ta katta baxtni talab qilmaslik lozim. Gyotening yoshlikdagi do‘sti Merk buni yaxshi tushungani uchun “Orzu-havasimizdagi eng yaramas narsa huzur-halovatda yashashga bo‘lgan talabimizdir, u esa umrimizni xazon qiladi. Kimki boriga qanoat qilib, nafs ko‘yiga kirmasdan yashaydigan bo‘lsa, to‘g‘ri yo‘lini topib oladi”, deb yozgan.

Shuning uchun rohat-farog‘at, boylik, mansab, obro‘ kabi narsalarga erishish haqidagi istaklarimizni jilovlashimiz kerak, aks holda, juda katta baxtsizliklarga duchor bo‘lamiz.

Baxtsiz bo‘lib yashash judayam oson narsa, ammo katta baxtga ega bo‘lish nafaqat qiyin, hatto mutlaqo ilojsiz. Eng foydali va dono maslahat mana shu.

*Shoir buni quyidagi misralar bilan juda to‘g‘ri ifodalagan:*

*Oltin mo‘‘tadillik obod yo‘l ochar:*

*Omonat kulbadan qochar donishmand,*

*Hasad maddalangan saroydan qochar,*

*Fisqu fasod, shumlik zimdan berur pand.*

*Ulkan qarag‘ayni yiqitar dovul,*

*Baland minoralar bo‘lar yerparchin.*

*Cho‘qqilarni yashin uradi nuqul*

*Bulutlarni turtib turgani uchun.*

\*\*\*

Mening bu falsafiy ta‘limotimni to‘la o‘zlashtirgan odam biladi: bizni o‘rab turgan borliqning boridan ko‘ra yo‘q bo‘lgani ma‘qul edi. O‘zligimizni inkor qilish va o‘zlikdan voz kechish buyuk donishmandlikdir. Bunday odam dunyodagi biror narsaga umid bog‘lamaydi, biror narsaning ketidan quvmaydi, omadsizligi haqida o‘zgaga shikoyat ham qilmaydi. “Insonning qilmishida musibat chekishga arzigulik biror narsa yo‘q”, degan Aflotunning aytganlariga amal qiladi. Sa‘diyning “Guliston”idagi epigrafga e‘tibor bering:

*Boy bersang, yo‘qotsang butun dunyoni,*

*Aslo qayg‘urmagin, axir, bu – hechdir.*

*Gar boy bo‘lsang, topsang butun dunyoni,*

*Ko‘p ham quvonmagin, axir, bu – hechdir.*

*Qayg‘u ham, quvonch ham kechar dunyodan,*

*Sen ham dunyodan kech, axir, u – hechdir.*

*(Anvar Suhayliy)*

Bu dunyoning ikkiyuzlamachi ekanligi yuqoridagi najotkor soʻzlarga boʻlgan ishonchni qiyinlashtiradi, vaholanki, dunyoning munofiqligini yoshlikdanoq tushunishimiz kerak edi. Hayotimizda sodir boʻlayotgan voqealarning koʻpchiligi dabdababozlikdan iborat. Bu esa teatr dekoratsiyalariga oʻxshab haqiqiy mohiyatni yashirib turadi.

Bayramlarda bayroqlar va anvoyigullar bilan bezatilgan binolar, karnaysurnay, nogʻora ovozlari, shod-xurram qichqiriqlari – bular hammasi niqob, ramziy belgilar xolos, haqiqiy quvonchning oʻzi bu dabdabada qatnashmaydi. Quvonch betaklif va betakalluf arzimasi bir sabab bilan kutilmaganda kirib kelaveradi. Uning qaerda ekanligi hech kimga maʼlum emas, goʻyo yer yuziga siyrak qilib sochilgandek, biror voqea-hodisa tufayli uning zarrasini koʻrib qolamiz. U hech qanday qonun-qoidaga boʻysunmaydi.

Quvonch koʻpincha tasavvurda yaratiladi, boshqalarni esa uning haqiqiy ekanligiga ishontirmoqchi boʻlishadi.

Qaygʻuning yoʻli butunlay boshqacha. Xuddi dafn marosimiga kelgan odamlardek safi choʻzilib ketgan, ammo tobut boʻsh. Hamdardlikning yorqin namunasi bu. Siz bu insonlarning xulq-atvoriga eʼtibor bering: soxtalik, ayyorlik, ikki yuzlamachilik shundoqqina koʻrinib turadi.

Yana bir misol. Tantanali marosimga juda koʻp mehmonlar taklif qilingan. Hamma bashang kiyingan, olijanoblik, hamjihatlikning yuksak namunasi deysiz. Amalda esa xuddi birov ularni majburlab, boʻynidan arqon bogʻlab sudrab kelgandek, ilojini qilib bu zerikarli joyni tashlab ketishga tayyor. Ular orasida qalangʻi-qasangʻilari ham talaygina. Bunday marosimlarga odamlarni tor doirada taklif qilgan maʼqulroq.

Umuman olganda, sershovqin ziyofatlar va bayram tantanalarining magʻzi puch, hamohanglik yoʻq, chunki hayotimizda har qadamda uchraydigan qaygʻuli va ayanchli holatlarga taqqoslaganda ular yanada yaqqolroq koʻzga tashlanadi. Lekin tashqaridan qaraganda tantanalar odamlarda yaxshi taassurot qoldirgandek, maqsad ham shu edi, shekilli. Shamfor bu haqda juda yaxshi fikr bildirgan: “Zodagonlar davrasi deb atalmish mehmondorchiliklar,

ziyofatlar bema'ni va rasvo sahna asariga o'xshaydi, ularni faqat mashinalaru dekoratsiyalar ushlab turadi".

Xuddi shunga o'xshash akademiyalar va falsafa kafedralari ham donishmandlik niqobi ostida, donishmandlikning o'zi esa allaqaerlarda yashirilib yuripti. Cherkov qo'ng'iroqlariyu ruhoniylarning jubbalari, diniy rasm-rusumlar ham xudojo'ylikning niqobidan boshqa narsa emas.

Xullas, dunyodagi deyarli barcha narsalar puch yong'oqqa o'xshaydi, mag'zi kamyob. Uni boshqa joydan qidirish kerak, tasodifan topib olish mumkin.

\* \* \*

Biror odamdan, baxt nuqtai nazaridan, nima yoqadi deb emas, nima yoqmaydi, deb so'rang. Yoqmaydigan narsa o'z holicha qanchalik darajada arzimas bo'lsa, baxti o'z holicha shu darajada yuqori bo'ladi. Narsalarning arzimasligini bilish uchun inson ma'lum darajada farovon yashashi kerak, baxtsizlikda esa biz ularni sezmaymiz.

Baxtga keng ko'lamda erishishni orzu qilmang, chunki unga yetishish qiyin, qolaversa, u osongina barbod bo'lishi mumkin. Katta baxtning yo'lida o'ziga yarasha to'siqlari ham ko'p bo'ladi. Imkoniyatiga qarab tiklangan kichkina baxt katta baxtsizlikdan asraydi.

\* \* \*

Hayotda juda ko'p narsalarga erishmoqni maqsad qilib shunga intilmoqchi bo'lgan odam ahmoqona ish tutgan bo'ladi. Umrini zoe ketkazadi. Bu narsa judayam ozchilikka nasib qilishi mumkin. Juda uzoq umr ko'rgan odamning ham o'ylaganlari amalga oshishi qiyin, chunki bu yo'lda to'siqlar, omadsizliklar har qadamda uchraydi.

Amalga oshgan taqdirda ham biz ko'p narsalarni oldindan bila olmaymiz, masalan, zamonlar va davr talablari o'zgarishini, qolaversa ularning insonga bo'lgan ta'siri uni ham o'zgartirib yuborishini. Boshqacha aytganda, vaqt o'tishi bilan qobiliyatimiz, imkoniyatimiz, faoliyatimiz, quvonch va shodlikka munosabatimiz ham o'zgaradi. Shuning uchun sarflagan mehnatimiz evaziga yetishganlarimiz ehtiyojlarimizga mos tushmay qoladi.

Birorta niyatimizni amalga oshirmoq uchun tayyorgarlik ko‘ramiz, shu bilan ovora bo‘lib vaqtni boy berganimizni, uni amalga oshirish uchun kuch-quvvatdan qolganimizni ham sezmay qolamiz. Juda ko‘p mehnat va vaqt sarflab qiyinchilik bilan niyatimizga yetganda, endi u bizni qanoatlantirmaydi, o‘zgalar uchun ter to‘kkanimiz ma’lum bo‘ladi. Niyatimiz juda kech amalga oshdi, endi bizning kuch-quvvatimiz ham, imkoniyatimiz ham cheklangan. Ko‘zlagan mansabga uzoq yillar mehnat qilib, tashvish chekib erishganimizda biz xuddi shunday ahvolga tushamiz.

Gap ijodkor va ijod haqida ketganda buning aksi ham bo‘lishi mumkin. Yaratgan asarlarimiz o‘sib ulg‘aygan yangi avlodni qiziqitirmaydi, davr talabi ham boshqacha. Boshqa birovlar esa qisqa yo‘ldan borib bizdan o‘tib ketishi mumkin va hokazo...

Hayotimiz sayyoh yo‘liga o‘xshaydi. Uzoqdan ko‘ringan narsa unga yaqinlashgan sari o‘zgara boshlaydi, yetib borganda butunlay boshqacha tus oladi.

Istaklarimiz ham xuddi shunga o‘xshab ketadi. Ko‘pincha qidirgan narsamizdan ham yaxshirog‘iga duch kelamiz. Rohat-farog‘at, baxt va quvonch izlaganimizda yo‘limizda uchragan narsalardan yaxshigina saboq olamiz, tushunmaganimizni tushunib, bilib olamiz – bu esa xayoliy va o‘tkinchi orzu-havaslardan ko‘ra muhimroq.

Intellektual xarakterga ega bo‘lgan “Vilgelm Meyster” romanining asosi g‘oyasi ham shunga o‘xshash. Inson tabiatining faqat iroda kuchi tomonidan tasvirlagan Valter Skottning etik mazmunda yaratgan romanlaridan yuqoriroq o‘rinda turadi deb bilaman.

Motsartning “Sehrli fleyta” operasiga qo‘polroq ko‘rinishda bo‘lsa ham, shu g‘oya asos qilib olingan...

Buyuk va olijanob odamlar taqdirning bunday sabog‘ini itoatgo‘ylik va minnatdorchilik bilan qabul qiladi. Ular hayotda baxtdan boshqa ibrat bo‘larli ishlar ko‘pligini biladilar va shunga shukur qilib yashashga ko‘nikib qolganlar. Ular Petrarka tilidan: “Men uchun o‘qib-o‘rganishdan o‘zga baxt yo‘q”, deya g‘oyibona baxtga ishonmaydilar.

Ular go‘yo istak-xohishlarini amalga oshirish uchun harakat qilayotgandek ko‘rinsalar-da, aslida, ibrat bo‘larli darajada xayrli ishlarni amalga oshiradilar, bu esa ularga mushohada qiluvchi o‘tkir aql-idrok, ulug‘vorlik va yuksaklik baxsh etadi. Shu ma’noda kumushni oltinga aylantirmoqchi bo‘lgan, tadqiqot davomida boshqa narsalarni, hatto tabiat qonunlarini kashf etgan kimyogar qismatiga sherik bo‘lamiz.

O‘zimizga bo‘lgan muomalamiz haqida

Qurilishda qatnashayotgan ishchi bino bitgandan so‘ng qanday bo‘lishini ko‘rmaydi, nari borsa tasavvur qilib ko‘radi, shunga o‘xshash insonning umri o‘taveradi, lekin qanday mavqega ega bo‘lishini bilmaydi. U qanchalik darajada munosib va ahamiyatli, rejali va o‘ziga xos bo‘lsa, shu darajada foydali va zarur, shuning uchun inson vaqti-vaqti bilan kelajakka nazar solib turishi kerak.

Buning uchun u o‘zligini qay darajada bilishi borasida nimalarga erishganini bilmog‘i zarur, ya’ni avvalo istak-xohish nima ekanligini, baxt uchun qanday shart-sharoitlar zarurligini, keyingi o‘rinlarda nimalar turishini bilib olishi lozim. Shuningdek, u nimalarga moyilligini, atrof-olamga bo‘lgan munosabati va tutgan o‘rnini tushunishi kerak. Agar u buyuk va muhim ishlarni ko‘zlagan bo‘lsa, maqsad doirasini biroz torroq olishi kerak, bu narsa uni dadilroq harakat qilishida qo‘llab-quvvatlaydi, yuksaltiradi, rag‘batlantiradi, boshqa ishlarga chalg‘ishga yo‘l qo‘ymaydi.

Tepalikka chiqib kuzatgan odamga tevarak-atrof yaqqol namoyon bo‘ladi: qaysi yo‘ldan yurgani, qaerda burilish, qayrilishlar borligini ko‘radi.

Inson ham ma’lum bir davrga yetganda (yoki umrining oxirida) o‘tmishiga nazar tashlasa, bosib o‘tgan yo‘li, amaliy ishlari, ularning bir-biri bilan aloqasi, muhimligi, hatto qadr-qimmatini ham yaqqol ko‘rib, tushunib yetadi.

Biz ish bilan band ekanmiz, harakatimiz xususiyatlariga mos ravishda, turli sabablar ta’sirida va qobiliyatimizga yarasha harakat qilamiz. Harakatimiz to‘g‘ri va odob doirasida deb ishonganimiz uchun boshqa narsalarga parvo qilmaymiz. Ishimiz natijasiga ko‘ra qilmishimiz ma’lum bo‘ladi.



Buyuk jasoratlar ko'rsatayotganimizda yoki o'lmas asarlar yaratayotganimizda ham natijasi qanday bo'lishini bilmaymiz, lekin bajarayotgan ishimizni hozirgi vaqt nuqtai nazaridan to'g'ri va zarur, deb hisoblaymiz. Natija esa harakatlarimiz uyg'unligini va nimalarga qodir ekanligimizni ko'rsatadi.

Ijobiy natijaga erishganimizda tanlangan yo'limiz to'g'ri ekanligi ma'lum bo'ladi, salbiy natija esa aksincha. Bu narsa amaliy ishga ham, nazariy ishga ham taalluqli. Bajarayotgan ishimizning muhim ekanligi ko'pincha o'sha paytda emas, keyinchalik ma'lum bo'ladi.

\* \* \*

Hayotda orttiriladigan donishmandlikning muhim joyi e'tiborimizni bugungi kun bilan ertangi kunning o'rtasida to'g'ri taqsimlashdir, toki biri ikkinchisiga zarar yetkazmasin. Ko'plar bugungi kun bilan yashaydi – bu yengiltaklik. Boshqalari faqat kelajakni o'ylashadi – bu tashvishli va xavotirli. Kamdan-kam odam muvozanat saqlaydi.

Kimdir, go'yo baxtni intizorlik bilan kutib olish maqsadida faqat kelajakka qarab intilsa va umid bog'lasa, bugungi kunni qo'ldan boy beradi. Ularni qanchalik dono bo'lmasin, italyan latifasidagi eshakka qiyoslash mumkin: eshakni yurishga majburlash uchun uchiga bir bog' beda osilgan uzun tayoqni boshiga bog'lab qo'yishgan, unga yetishish maqsadida eshak tinimsiz yuravergan. Bunday odam o'z hayotiga o'zi zomin bo'ladi, to o'lgunicha ertangi kun bilan yashayveradi.

Tinimsiz kelajakni o'ylab tashvish chekish yoki o'tmishni eslab afsuslanish o'rniga bugungi kun naqd ekanligini unutmasligimiz kerak. Tasavvurimizdagi kelajak ko'pincha biz o'ylagandek bo'lavermaydi, o'tmishimiz ham juda sermazmun emas.

Uzoqdagi narsa aqlimizni o'g'iraydi. Faqat bugungi kungina qo'limizdagi naqd borlig'imiz, shuning uchun o'tmishdagi ko'ngilsiz voqealardan holi bo'lib, kelajak tashvishini chekmasdan, boriga qanoat qilib, xafagarchilikni yig'ishtirib aql bilan ish qilishimiz lozim.

O'tmish yukini ortmoqlab, kelajakdan xavotirlanib bugungi kundan chetlashmoq aqlli odamning ishi emas. G'am-tashvish va tavba-tazarru uchun ma'lum bir vaqt ajratiladi, sodir bo'lgan hodisalar haqida esa shunday o'ylash kerak:

O'tgan barcha ko'rgulikni unutmaymiz qancha og'ir bo'lsa ham,

Yurak dardin ichimizga yutajakmiz ko'zni yumib noiloj...

Kelajak haqida esa: u boqiy ilohlar ixtiyorida, bugungi kun haqida: "Yodingda bo'lsin, kunlar ketma-ket o'taveradi, hayot bir marta berilgan, bu – yagona imkoniyat, biz uni dilkashlik bilan o'tkazishimiz kerak", degan ma'qul.

Sodir bo'lishi aniq bo'lgan balo-ofatlarga bizni bezovta qilishi mumkin, chunki sodir bo'lish ehtimoli bo'lsa-da, qachon ro'y berishi noma'lum. Buning ta'siriga tushib qolganimizda osoyishtaligimiz yo'qoladi.

Osoyishtaligimizni yo'qotmaslik uchun sodir bo'lishi dargumon bo'lgan ofatlarni yuz bermaydi deb, qachon sodir bo'lishi noma'lumlarini esa hali-beri sodir bo'lmaydi, degan ko'nikma hosil qilishimiz kerak.

Boshqa jihatdan olganda xavotirimiz pasaygach, endi bizni istak-intilishlar va ehtiroslarımız junbishga kelib bezovta qila boshlaydi. Gyotening "Men qimorga hech narsamni tikdim", degan mashhur qo'shig'ining ma'nosi shundaki, biz istak-xohishlarımızni jilovlay olganimizdagina va oddiy tirikchilikka ko'nikkanimizdagina inson baxtining asosi bo'lmish osoyishtalikka erishamiz. Bugungi kunimizdan, qolaversa, butun hayotimizdan mamnun bo'lib yashamoq uchun shu narsa zarur.

Xuddi shu ma'noda bugungi kunimiz hech qachon qaytib kelmasligini ham yodda tutmog'imiz kerak. Xayolimizda bugungi kun ertaga ham qaytariladigandek, ammo ertamiz – bu boshqa kun, u ham bir marta keladi. Har bir kunimiz alohida va u hayotimizning ajralmas qismidir.

Boshimiz yostiqqa tekkanda, qayg'uga botgan kunlarımızda osoyishta va tinch o'tgan kunlarımızning qadriga yetganimizda edi, bugungi kunning qay darajada muhim ekanligini va undan oqilona foydalanish kerakligini

tushungan bo'lardik, qo'ldan boy bergan imkoniyatlarimizga afsuslanib yurmasdik.

Yaxshi kunlarimiz o'tib ketganligini sezmay qolamiz, faqat qayg'uga botganimizdagina attang deymiz. Hayotimizning tinch o'tkazishimiz lozim bo'lgan ko'p qismini bekordan-bekorga tashvishga tushib, xafalanib o'tkazib yuboramiz, ammo ularni qaytarishning iloji yo'q. Vaqtimizni beparvolik bilan o'tkazish o'rniga uning hurmatini joyiga qo'ysak va u xotiramizda abadiy o'chmas iz qoldirishini unutmasak, vaqti kelib dilimiz siyoh bo'lib turganda ko'nglimizni ko'tarib, bizga dalda berib turishini istasak, shu bugunning qadriga yetib shukur qilishimiz lozim.

\* \* \*

Har qanday cheklash, hatto ruhiy cheklash ham baxtga yetaklaydi. Baxt haqidagi tasavvurimiz qanchalik darajada tor, unga bo'lgan intilishlarimiz kamroq bo'lsa, biz shunga yarasha baxtlimiz, u qanchalik keng bo'lsa, tashvishlarimiz va azob-uqubatlarimiz doirasi ham kengayadi. Chunki unga yetishish yo'lida chekadigan g'am-tashvishlar, istak-xohishlar, qo'rquv-xavotirlar ham ko'payadi. Xuddi mana shu sababli hatto ko'zi ojizlar ham unchalik baxtsiz emaslar, ularning yuz ifodalaridagi beozor yuvoshlik, shodlik alomatlarini buning guvohidir.

Yoshimiz qaytganda hayotimiz oldingiga nisbatan ko'proq qayg'u-g'amdan iborat bo'lishi ham shu boisdan. Umrimiz o'tgani sayin maqsadlarimiz ham kengaya boradi. Bolaligimizda u oila va yaqinlarimiz doirasida bo'ladi, yoshlik davrimizda birmuncha kengayadi. Yetuk yoshimizda butun umrimizni, hatto davlatlar va xalqlarni ham qamrab oladi, keksayganimizda esa avlodlarimizni zabt etadi.

Har qanday cheklashlar, hatto ruhiy cheklashlar ham, baxtimizga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki hayajonimiz qanchalik oz bo'lsa, azob-uqubatlarimiz shunchalik kamayadi. Baxt salbiy ekanligi, azob-uqubat esa ijobiy ekanligini yaxshi bilamiz. Harakat doiramizning cheklanganligi irodamizni tashqi ta'sirlardan asraydi, ruhiy cheklanish esa ichki olamimizni. Keyingisining salbiy tomoni shundaki, dilimiz siyoh bo'lib huvullab qoladi va bu bo'shliqni azob-uqubat egallay boshlaydi, biz esa undan qutulish uchun

o‘zimizni har yoqqa uramiz: ovunchoq qidiramiz, o‘yin-kulgiga, ortiqcha dabdabaga berilamiz, ichkilikka ruju qo‘yamiz va sarf-harajatlarimiz ko‘payib xonavayron bo‘lamiz, oqibatda turli baxtsizlikka duchor bo‘lamiz. Bekorchilikdagi xotirjamlik xavflidir.

Bizdagi yaxshilik ham, yomonlik ham aql-ongimiz nima bilan band ekanligiga borib taqaladi. Omadsizlik, azob-uqubat, iztirob, qiynoqlardan iborat turmushning og‘ir yuki ostida ezilib turgan paytlarimizda intellektual faoliyat shunga layoqatli aql-ongimizga ko‘proq foyda keltiradi. Buning uchun, albatta, ruhiy moyilligimiz ustun bo‘lishi zarur. Tashqariga yo‘naltirilgan faoliyat vaqtimizni chog‘ qilib bizni chalg‘itadi, aqlimizni o‘g‘irlyadi, aksincha, aqliy mehnat tashvish va hayajondan xoli qiladi. Amaliy faoliyat uchun kuch-quvvat zarur bo‘lgan paytlarda vaqtichog‘likni chetga surib qo‘yishga to‘g‘ri keladi.

\* \* \*

Turmushda mulohazali bo‘lish va shaxsiy tajribamizdan to‘g‘ri xulosa chiqarib olish uchun tez-tez o‘tmishimizga nazar tashlab turishimiz kerak. Nimalarga erishdik, nimalarni yo‘qotdik, qaerda xato qildik, shularni anglab olishimiz zarur. Niyatimizni amalga oshirish uchun qanday yo‘l tutdik, hozir qaysi yo‘ldan ketayapmiz, bularni solishtirish, taqqoslash va natijalari qay darajada bizni qoniqtirganligini anglashimiz lozim. Bu foydadan xoli emas.

Shaxsiy tajribalarimiz asosiy mavzu bo‘lsa, bu boradagi mulohazalarimiz, bilimimiz unga berilgan sharh bo‘ladi. Tajribamiz oz bo‘la turib mulohazaga berilib ketsak, yoki tajriba yetarli bo‘lib, mulohaza kam bo‘lsa, ko‘p holatlar anglanmay qolishi mumkin.

"Kechqurun uyqudan oldin, kun bo‘yi nima ish qilganingni ko‘rib chiq", degan Pifagor qoidasi shunga mos tushadi. Kimki o‘tmishga tanqidiy nazar bilan qaramasdan, hayotini faqat tashvish yoki vaqtichog‘lik bilan o‘tkazar ekan, u es-hushini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Uning hissiyotlari aralash-quralash bo‘lib, fikrlari chigallashib ketadi, buni gap-so‘zlaridan, o‘zini tutishidan ham payqab olsa bo‘ladi.

Vaqt o‘tishi bilan ularning bizga bo‘lgan ta’siri kamayib borsa-da, biroq o‘sha paytda aytganlarimiz yodimizda turadi, chunki ular faoliyatimiz natijasi

va o'lhovidir. Hayotimizning eng muhim paytlarida aytganlarimizni yodda saqlash zarur. Kundalik daftar tutish ham mumkin.

\* \* \*

O'zligingdan qanoatlanish, barcha narsalarga o'zingdan javob topish uchun "O'zinniki o'zim bilan" deydigan darajada imkoniyatli bo'lish kerak. Bu narsa baxtga erishishda qulaylik tug'diradi. Arastuning "Ehtiyojini qondirish uchun o'z imkoniyatiga ega bo'lgan odamgina baxtli bo'la oladi", degan fikri mazmunan Shamforning "Baxtga erishish oson emas, uni ichki olamingdan topish juda qiyin, o'zga joydan topish aslo mumkin emas", degan fikrlarini bildiradi. Bir tomondan o'zingdan boshqa odamga umid bog'lay olmaysan, boshqa tomondan, hayotimizda qiyinchiliklar, xavf-xatarlar, xafagarchiliklar shu darajada ko'pki, ularni chetlab o'tishning sira iloji yo'q.

Ayanchli turmushdan voz kechib quvonchu shodlikda, rohat-farog'atda, huzur-halovatda oqsuyaklar orasida yashab baxtga erishmoqchi bo'lgan odam ham qattiq yanglishadi, umidi puchga chiqadi, chunki bunday hayot o'zaro aldov va yolg'onga asoslangan.

Yalang'och tanamizni kiyim yashirib turganidek, ruhimiz ham yolg'ondan iborat pardaga o'ralgan. So'zlarimiz, xatti-harakatlarimiz, butun borlig'imizga yolg'on singib ketgan. Yalang'och tanamiz tasodifan kiyim orasidan ko'rinib qolgandek, ba'zan haqiqiy qiyofamiz sezilib qoladi. Har qanday jamiyatdagi hayotimiz o'zaro moslashishga, murosasozlikka mo'ljallangan. Ular qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik mujmal bo'lib qoladi. Jamiyatda yashayotgan inson hech qachon erkin bo'la olmaydi, buning uchun u yolg'iz yashashi lozim.

Har qanday jamiyatning ajralmas yo'ldoshi – majburlash, bu yo'lda shaxs erkinligi qurbon bo'ladi. Shaxs qanchalik o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa, bu shunchalik og'ir kechadi. Shuning uchun inson yolg'izlikdan qochadimi, u bilan murosa qiladimi yoki yoqtiradimi, o'z shaxsining qadriga muvofiq o'z yo'lini o'zi tanlaydi. Tanholikda faqir o'z faqirligini his qiladi, buyuk aql egalari o'zining qalb tubiga yetib boradi, xullas, kimning kim ekanligi o'ziga ma'lum bo'ladi.

Tabiat ierarxiyasida egallagan o‘rnimiz qanchalik yuqori bo‘lsa, yolg‘izligimiz shu darajada bo‘ladi, mohiyatan olganda, bu – muqarrar. Ruhii yolg‘izligimizga jismonii yolg‘izlik ham qo‘shilsa yaxshi bo‘lardi, aks holda, atrofimizdagi boshqa muhitdan bo‘lgan olomon bizni chiqishtirmas, bizga hatto dushmanlik kayfiyatida bo‘lib, “men”ligimizni tortib olib, chetga chiqarib tashlardi.

Odamlar orasida axloq va intellektual ma’noda farq bor. Uni tabiat belgilagan bo‘lsa-da, jamiyat bu bilan hisoblashmasdan barcha odamlarni tenglashtirmoqchi bo‘ladi yoki sun’iy farq o‘rnatadi: tabaqalarga, martabalarga, unvonlarga ajratadi. Bu esa ko‘pincha tabiat o‘rnatgan qoidalarning tamoman aksi. Buning ustiga tabiat belgilagan quyi tabaqadagilar jamiyat o‘rnatgan taqsimotga ko‘ra juda yaxshi o‘ringa erishadilar, tabiat bergan haqiqii iste’dod egalari bo‘lgan ozchilik ko‘pincha tan olinmaydi. Mana shu sababli, odatda, ular o‘zlarini jamiyatdan chetga olib yuradilar, chunki ko‘pchilikni tashkil qilgan jamiyat orasida pastkashlik hukmron.

Jamiyatda o‘rnatilgan teng huquqlilik, ayni paytda, iste’dod va qobiliyatning talablarini, xalq oldidagi xizmatlarini ham tan olmaslik degani. Jamiyat turli ustunliklar o‘rnatishni yoqtiradi, faqat ruhiy ustunlikni emas. U jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmaydi. U bizni jamiyatda hukm surayotgan turli bema’niliklar, nodonliklar, xurofotu bid’atlar, befahmlik, befarosatliklarga chidab, cheksiz sabr-bardoshli bo‘lishga majbur qiladi. Shaxsiy ustunlik, o‘zini xuddi gunoh qilib qo‘ygandek, aybdordek his qiladi yoki yashirinib oladi, chunki aqliy ustunlikni atrofdegilar o‘zlari uchun haqorat deb qabul qiladi.

Shunday qilib, yaxshi jamiyat noloyiq odamlarni yaxshilari bilan yonma-yon yashashga majbur qiladi, shuningdek, yaxshilarga o‘z fazilatlari va imkoniyatlariga munosib yashashga yo‘l bermaydi. Aksincha, murosasozlik o‘rnatish maqsadida siquvda yashashga, hatto o‘zimizni rasvo qilishgacha olib boradi.

Aqlli gaplar va fikrlarni ongli jamiyatgagina qaratish o‘rinli, oddii jamiyatda esa ularni nafrat bilan qabul qiladi. Yaxshisi, biror narsaga erishmoqchi bo‘lsang, boshqalardan ajralmasdan, hamma qatori yashash

kerak. Hamma narsangdan voz kechib, o'zligingni unutib yashash og'ir bo'lsa-da, boshqa ilojing yo'q. To'g'ri, bu ahvolda yo'qotganing o'rnini to'ldirib bo'lmaydi, evaziga topganlaring arzimas bo'lib chiqadi. Odamlar bilan muloqot qilishdan ko'ngling to'lmaydi, chunki u zerikarli, noqulay va yoqimsiz, o'zligingdan voz kechib, vaqt ketkazishga arzimaydi. Tanholikni afzal ko'rgan odam yanglishmaydi. Odamlar orasida noyob bo'lgan haqiqiy ruhiy ustunlikni jamiyat yoqtiravermaydi, uni "Yaxshi muomala" deyishadi va u avloddan-avlodga o'tib kelaveradi. Haqiqiy ruhiy ustunlik bilan to'qnashganda uning yolg'onchiligi bilinib qoladi. "Yaxshi muomala" paydo bo'lganda sog'lom fikr yo'qoladi.

Umuman olganda, inson do'sti yoki sevgilisi bilan emas, faqat o'zi bilangina to'la murosada bo'la oladi. Har bir odamning o'ziga xos xususiyatlari, kayfiyati oz bo'lsa-da kelishmovchilikka olib keladi. Insonning boy ichki olami, uning osoyishtaligi va sog'lig'i uyg'un bo'lsa dunyoda bundan ortiq ne'mat yo'q, bunga esa faqat yolg'izlikdagina erishish mumkin. Shu bilan birga, insonning "men"ligi buyuk darajada va sermazmun bo'lsa, bu yorug' olamda undan baxtli odam yo'q.

Do'stlik, sevgi, nikoh odamlarni qanchalik mustahkam bog'lamasin, ro'yirost munosabat faqat o'ziga nisbatangina bo'ladi, farzandlariga ham bo'lishi mumkin. Ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlardan kelib chiqqan holda odamlar bilan munosabatimiz qanchalik kam bo'lsa, shuncha yaxshi.

Tanholikda o'zimizning barcha illatlarimizni sezib qolamiz, jamiyatda esa aksincha, ommaviy o'yin-kulgilar, ko'ngilocharliklar kabi tuzoqlar bizni chalg'itadi... Yoshlikda olinadigan muhim saboqlardan biri yolg'izlikka ko'nikish, chunki u ruhiy osoyishtalik va baxtimiz manbai bo'lib qoladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib aytishimiz mumkinki, kim o'z muammolarini o'zi hal qilishga qurbi yetsa, faqat o'zigagina ishonsa, u xor bo'lmaydi. Sitseron aytgandek: "Kim barcha narsalarda o'ziga ishonsa va o'zi hal qilsa, baxtli bo'lmaslikning boshqa iloji yo'q". Insonning o'zligidagi bor narsasi qanchalik ko'p bo'lsa, o'zgalarga muhtojligi qolmaydi.

Insonning ichki olami qanchalik boy bo'lib, o'z ehtiyojini o'zi qondirish imkoniyati keng bo'lsa, jamiyatda yo'qotganlari, qurbon bergan narsalari

uchun shunchalik kam aziyat chekadi. Buni aksi bo'lgan odam, jamiyatga o'zini urishdan boshqa iloj topolmaydi, chunki yolg'izlikni ko'tara olmaydi.

Haqiqiy qadr-qimmatga ega bo'lgan narsalar e'tibordan chetda qoladi. Diqqat-e'tiborga sazovor, buyuk insonlarning tanholikda kechayotgan umri bunga misol. O'z qadrini bilgan bunday insonlar haqiqiy donishmandlardir, ular muhtojlikka tushgan paytlarida boshqalardan saxovat kutmay o'z ehtiyojlarini jilovlay oladilar, o'zgalarga qaram bo'lmay, erkini saqlay biladilar.

Odamlarning kirishimli bo'lib ketishi ularning yolg'izlikni ko'tara olmasliklari bilan bog'liq. Ichki olamning qashshoqligi, yolg'izlikdan to'yib ketish odamlarni jamoaga yetaklaydi, o'zga yurtlarni kezishga chorlaydi. Biror narsa bilan shug'ullanishga ularning ichki da'vati yetishmaydi, shuning uchun ichkilikka ruju qo'yadilar. Xuddi shu sababli ular tashqaridan, xuddi o'ziga o'xshaganlardan kuchli turtki olib turishga muhtojlik sezadilar. Shu bo'lmasa, ruhiyati pasayib letargik holatga tushib qoladilar.

Qayg'uni birgalikda yengish oson kechadi, degan tushuncha bor. Odamlar zerikishdan ham shu yo'l bilan qutulish mumkin deb o'ylasalar kerak, shu sababli ular birga yig'ilishni yoqtiradilar.

Hayotga muhabbat asosida o'limdan qo'rqish hissi yotadi. Odamlarning jamoaga birlashish moyilligida ham, mohiyatan, yolg'izlikdan qo'rqish hissi bor, chunki ko'pchilik tanholik yukini ko'tara olmaydi. Undan ko'ra, noloyiq odamlar bilan muloqot qilishga to'g'ri kelsa ham, shunga chidaydi, shuni afzal ko'radi.

Bunday turmush joniga tegib yolg'izlikni odat qilgan odam, uning og'ir yukini ham ko'tara oladi va jamoani qo'msamadan, yolg'izlikning yaxshi tomonlarini ma'qul ko'ra boshlaydi.

Aqli kalta, fikri sayoz, kaltabin yoki munofiq odamlar ezgu ishlarni amalga oshirish maqsadida birlashgan yaxshi insonlarning ham orasiga suqilib kirib oladilar va oqibatda yaxshi niyatlar amalga oshmay qoladi.

Bunday toifadagi odamlarni sovuq kunlari ko'pchilik taratgan haroratda isinib olish uchun o'zini to'daga urgan jonzotga o'xshatish mumkin.



Aksincha, aql-idrokli, intellektual olami keng insonlar bunday to‘daga muhtoj emaslar. Ular haroratni o‘zining boy ichki olamidani topadilar. Bu toifadagi odamlarning esa ikki tomonlama yutug‘i bor: birinchidan, ular o‘zlari istagan yolg‘izlikka erishadilar, ikkinchidan, har xil qalang‘i-qasang‘i, munofiq odamlar bilan muloqot qilishdan qutuladilar. Ikkinchisi muhimroq, chunki bu yo‘lda turli majburiyatlar, noqulayliklar, hatto xavf-xatarlar ham to‘lib yotadi.

“Barcha ko‘rgiliklarimiz yolg‘izlikni ko‘tara olmasligimizda” deydi Labyuyer. Ko‘pchilik bilan kirishib ketishlik bizni xavf-xatarga boshlaydi. Biz bilan muloqotga kirishgan odamlarning ko‘pchiligi befahm, axloqan buzuq. Ulardan qochib yurganlarni esa odamovi deyishadi.

Inson uchun eng qadrli narsa uning sog‘-salomatligi bo‘lsa, ikkinchisi osoyishtalik va xotirjamlikdir. Odamlar bilan muloqotga kirishganimizda biz shu narsalarni yo‘qotib musibatlariga duchor bo‘lamiz. Vaholanki, biz o‘zimizdagi intellektual boyligimizni, ichki olamimizni boyitish va sermazmun bo‘lishga erishmog‘imiz kerak edi.

Haqiqiy baxt ruhiy osoyishtalikda, deb tushungan kiniklar har qanday mulkdan voz kechganlar. Bernarden de Sent-Per “Nafsini tiyganlar jismonan, muloqotdan tiyilganlar ruhan sog‘lom bo‘ladilar” deya bekorga aytmagan.

Shunday qilib, kimki yoshlikdan yolg‘izlikka ko‘niksa va uni yoqtirib qolsa, u behisob xazinaga ega bo‘ladi. Bunday qobiliyatga har kim ham yetisha olmaydi. Chunki dastlab muhtojlik, qolaversa bu yo‘ldagi diqqatbozlik uni olomonga yetaklaydi, ularsiz har qanday odam ham yolg‘iz qolgan bo‘lardir. Faqat shunday sharoitdagina bu dunyoning behalovat ekanligini, har qadamda xo‘rliklar, ur-yiqitlar, toptashlar chiqib qolishini, niyatlar amalga oshmasligini, qolaversa, o‘z qadr-qimmatini bilib oladi.

Shu ma‘noda yolg‘izlik har bir inson uchun tabiiy sharoit ekanligini, ya‘ni Odam Ato kabi jannatda huzur-halovatda yashayotgandek his qiladi o‘zini.

Lekin Odam Atoning na otasi, na onasi bo‘lmagan! Shu sababli, yolg‘izlik insonga xos emas, chunki uni dunyoga keltirgan ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari bor, demak, u jamiyatda dunyoga kelgan.

Yolgʻizlikka moyillik insonga azaldan ato qilinmagan, balki hayoti davomida orttirgan tajribalariga tayanib yuritgan mulohazalari, ruhiy kuch-qudratining yuksalib borishi, muloqotlardan koʻngli toʻlmasligi, oʻzgalar bilan chiqishib keta olmasligi va uning yoshiga bogʻliq.

Goʻdak yolgʻiz qolganda nochor ahvolga tushganini sezib dod soladi. Oʻgʻil bola uchun yolgʻizlik – katta jazo. Oʻsmirlar jon-jon deb bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar. Faqat nasl-nasabi yaxshi oiladan chiqqanlari, zamonasining yuksak maqsadlariga intilganlarga vaqti-vaqti bilan yolgʻizlik istab qoladilar, shunda ham uzoq muddatga emas. Balogʻatga yetgan erkak bora-bora tanholikka koʻnika boradi. Oʻz tengqurlarini yoʻqotib, turmush huzur-halovatlaridan koʻngli qolgan, avlodlari uchun endi ogʻir yuk boʻlib qolgan keksalarga yolgʻizlikda orom topadilar.

Ayrim odamlarda alohida yashashga va tanholikka moyillik yoshi va aql-zakovatiga qarab ortib boradi. Bu bizning tabiiy ehtiyojlarimizdan kelib chiqmaydi, balki koʻpchilikning axloqi va aql-ongi pastligini tushunib borganimiz sari yuksala boradi. Eng yomoni – odamlarning feʼl-atvori, odob-axloqi ularning aqli pastligidan dalolat beradi va shu narsa chidab boʻlmas darajada koʻngilsizliklarga olib boradi.

Bu dunyoda yaramas narsalar qanchalik koʻp boʻlmasin, eng yomoni – bu jamiyat hatto eng dilkash odamlardan boʻlmish frantsuz Volter ham, “Yer yuzi muloqot qilishga arzimaydigan odamlar bilan toʻlib ketgan”, deb tan oladi. Eng yuvosh va yolgʻizlikni yoqtirgan Petrarka buning sababini quyidagilar bilan izohlaydi:

*Ongi buzuv, iymonsiz, tuban kaslardan qochdim*

*Qirgʻoqlarga, oʻrmonga, dalalarga, koʻllarga.*

Simmermanning “Yolgʻizlik haqida”gi asariga turtki boʻlgan “Tanholikda oʻtgan umr” kitobida ham gap shu haqda boradi. Odamovilar haqida Shamfor ham piching aralash: “Xilvatda yashayotgan odamlar jamiyatni yoqtirishmaydi”, deb aytadi. Koʻp hollarda bu biror odamning tungi oʻgʻrixonalarda tentirab yurishini yoqtirmaganligi uchungina: “U sayr qilishni yoqtirmaydi”, degandek gap.

Sa'diy "Guliston"ida ham shu ma'nodagi satrlar bor: "O'sha kundan boshlab biz ham notanishlar davrasidan voz kechib, xilvatni ixtiyor etdik, chunki osoyishtalik tanholikdadir". Aynan shu ma'noda beozor xristian Angelus Silezius mifologik frazeologiyasida: "Irod – dushman, Yusuf – aql, unga Xudo tushlarida belgi beradi. Olam Vifleemda mujassam, Misr – xilvat, ruhim xohlagan joyingga bor, aks holda qayg'uni tark etolmaysan", – deya ta'kid qiladi.

Jordano Brunoning: "U dunyo rohatidan totib ko'rishni istaganlarning barchasi jamiyatdan qochdim, tanholikda qoldim", deganlar. Sa'diy "Guliston"da o'zi haqida aytadi: "Damashqdagi do'stlar davrasi jonimga tekkach, Quds sahrosiga yo'l oldim va u yerda vahshiy hayvonlar bilan do'stlashdim..."

Boshqalardan ajralib alohida yashashga va yolg'izlikka moyillik zodagonlarga xos tuyg'u. Har xil qalang'i-qasang'i odamlar bir-birlari bilan tez kirishib ketadi, olijanob toifadagi insonlar ular bilan bo'lgan muloqotdan hech narsa topa olmaydi, yolg'izlikni afzal ko'radi. Yoshi o'tgan sari ishonch-e'tiqodi kuchayib ikki yo'ldan birini tanlaydi: yo jamiyatdagi pastkashlik yo tanholik. "Yolg'izlik qiyin, lekin razil bo'lmasang, hamma joyda ham undan orom topasan", deb xulosa qiladi Angelus Silezius.

Inson zotining haqiqiy yetakchi ustozlari bo'lgan buyuk aql-idrok egalari o'zgarlar bilan muloqot qilishdan o'zlarini tiyib yuradilar.

Demak, yolg'izlikka moyillik insonga azaldan berilmagan, aksincha, u jamiyatda yashashga mahkum. Olijanob inson asta-sekin jamiyatdagi illatlarni ko'rib-bilib yolg'izlik uchun kurasha boshlaydi, tabiat bergan dilkashlik o'rnini tanholik egallaydi. Bu borada Mefistofel shunday nasihat qiladi:

*Jigarni cho'qigan kalxatga o'xshab*

*Yurakka chang solgan dardingni unut.*

*Odam odamlarsiz bilmaydi yashab,*

*Buzilgan bo'lsa ham jamiyat, muhit.*

Yolgʻizlik barcha buyuk aql egalari qismatidir: afsus-nadomat bilan boʻlsa-da, ular shu yoʻlni tanlaydilar. Yosh oʻtib aql toʻlishganda bu narsa osonroq kechadi, yetmishlarga borganda, hatto tabiiydek tuyuladi.

Endi insondagi barcha narsalar shuni yuksaltirishga kirishadi. Odamlar bilan boʻladigan munosabatlarga ragʻbatlantiruvchi kuchlarning asosiylaridan biri – jinsiy hissiyot mayli. U bora-bora pasayib, yoʻq boʻladi, binobarin, ayollarga boʻlgan qiziqish va ehtiyoj ham. Bu esa oʻz navbatida munosabatlarning boshqa koʻrinishlarini ham siqib chiqaradi.

Endi biz behisob yolgʻon va aldovlardan, nodonliklardan xalos boʻldik. Faol hayotimizning koʻp qismi oʻtib ketdi, kelajakka koʻpam umid bogʻlamaymiz, rejalar tuzmaymiz. Biz tengi avlod hayot sahnasidan tushib ketdi, atrofimizda begona avlod, obʻektiv nuqtai nazardan olganda ham yolgʻizmiz. Vaqt tutqich bermaydi, uni imkoniyat boricha aqliy mehnatga sarflashga harakat qilamiz. Aqlimiz joyida boʻlib, hayotdan olgan saboqlarimiz, tajribalarimizni jamlab aqliy mehnatga berilishimiz vaqti yetdi.

Ilgari bizga mavhum boʻlib kelgan behisob narsalar endi bizga yaqqolroq koʻrina boshlaydi, boshqalardan ustunroq (afzalroq) ekanligimizni his qila boshlaymiz. Koʻp yillik tajribalarimiz natijasi oʻlaroq, endi biz yaqinlarimizdan koʻp narsani kutmaymiz, ular yaqindan tanishganimizda qadri ortib boradigan odamlar qatorida emasligiga amin boʻlamiz. Inson zotida noyob boʻlgan buyuk shaxslar oʻrniga hamma joyda toʻlib-toshib yotgan ruhan qashshoq arzimas odamlargagina duch kelishimizni bilamiz, yaxshisi ularga yaqinlashmagan maʼqul. Shuning uchun endi biz yolgʻonlarga uchmaymiz, har bir odam aslida kim ekanligini sezib olamiz, ular bilan aloqa bogʻlash istagi deyarli yoʻqoladi.

Agar biz yolgʻizlikka yoshlikdanoq koʻnikib qolgan boʻlsak, u holda odamovilik feʼl-atvorimizga aylanib qoladi. Ilgari bizga ogʻirlik qilgan tanholik endi erkin va tabiiy holatimizga aylanadi.

Garchi bu afzallik barcha uchun xos boʻlsa-da, undan foydalanish har bir shaxsning intellektual darajasiga bogʻliq. Faqat ichki olami qashshoq va pastkash odamlargina haliyam yosh avlodga aralashib yuraveradi, vaholanki, ular endi yangi avlod shunchaki ularga toqat bilan muomala

qilayotganliklarini tushungisi kelmaydi, bir mahallar kimlargadir najotkor bo‘lgan bo‘lsalar-da, endi ularga keragi yo‘q.

Yosh bilan kirishimlilik o‘rtasidagi nomutanosiblikda ilohiy ma’no ham bor. Yosh yigit turli o‘gitlar, maslahatlar, nasihatlar muhtoj, bularni u faqat jamiyatdagi munosabatlar orqaligina oladi. Maktab, kitoblar esa tabiiy omil emas, jamiyat mahsuli.

Gul tikansiz bo‘lmaydi deganliklaridek, “To‘kis, benuqson baxt bo‘lmaydi”, deydi Goratsiy. Yolg‘izlikning ham o‘ziga yarasha foydasiz va noqulay tomonlari bor, lekin jamiyatdagi ko‘rgiliklar oldida ular arzimasa, shuning uchun kimningdir o‘ziga yarasha qadr-qimmatini bo‘lsa, odamlar bilan muloqotsiz ham umr kechiraveradi.

Yolg‘izlikning foydasiz tomonlaridan biri shuki, biz tashqi ta’sirlarga beriluvchan bo‘lib qolamiz. Tanamiz noziklashib qolgandek ruhimiz ham ta’sirchan bo‘lib qoladi. O‘zgalarning arzimagan so‘zlari, yuz ifodalari bizni ranjitib, xafa qilib qo‘yishi mumkin. Odamlar orasida yashaganimizda esa biz ularga e’tibor bermaymiz.

Yoshlik chog‘larimizda ba’zan bizni nohaq xafa qilib qo‘yishadi, shunda ularga nisbatan nafratimiz oshib, yolg‘izlikni qidirib qolamiz, ammo bu uzoqqa cho‘zilmaydi. Bunday odamlarga “yolg‘izlikni jamiyatda ham o‘zingiz birga olib yuring”, deb maslahat bergan bo‘lardim. Buning uchun o‘z fikrlaringizni o‘zgalarga bildirmang, o‘zgalarning gap-so‘zlariga ham ahamiyat bermang. Odob-axloq va intellektual ma’noda ulardan ko‘p narsa kutmang, ularning fikrlariga befarq bo‘ling, shunda sabr-bardoshingiz oshadi. Ana shunda biz butun borlig‘imiz bilan odamlar orasiga singib ketmaymiz, o‘zligimizcha qolamiz, ularga nisbatan ob’ektiv munosabatimiz saqlanib qoladi. Bu bilan biz ommaning turli illatlari, hatto haqoratlaridan o‘zimizni himoya qilamiz. Bunday cheklangan munosabatlarning namunalaridan biri Maratinning komediyasida don Pedro obrazi orqali berilgan. Shu ma’noda jamiyatni gulxanga taqqoslash mumkin: aqlli odam kerakli masofa saqlab isinib oladi, ahmoq esa o‘ylamasdan o‘zini o‘tga uradi.

Hasad tabiatan insonga xos bo‘lsa-da, u ham illat, ham baxtsizlik. Hasad insonni qay darajada baxtsiz ekanligini ko‘rsatadi: doimo o‘zgalarning xatti-

harakatlarini kuzatishga bo'lgan qiziqishi esa qanchalik darajada zerikarli hayot kechirayotganligini bildiradi. Uni inson baxtining dushmani, yovuz iblis sifatida yo'q qilish kerak. Seneka shunga shama qilib aytadi: "O'zimizni o'zgalarga taqqoslamasdan, qismatimizdan rozi bo'lib yashaylik. O'zgalarning baxtini ko'rolmagan odam hech qachon baxtli bo'lolmaydi". U yana: "Qanchadan-qancha odamlar sendan o'zib ketganini ko'rsang, qanchasi orqada qolib ketganini ham o'ylab ko'r", – deya qo'shimcha qiladi.

Demak, bizdan ko'ra omadliroq odamlarni emas, aksincha, omadsizroqlarni hisobga olishimiz kerak. Boshimizga mushkul ish tushganda bizdan ko'ra ko'proq musibat chekayotganlarni ko'rib ko'nglimiz taskin topadi, o'zimizga o'xshash odamlar bilan esa dardlashamiz.

Bu hasadning aktiv tomoni. Uning passiv tomoniga kelsak, hech qanday nafrat ham uning oldida ip esholmaydi. Aynan shu sababli biz o'zgalarda shu hissiyotni qo'zg'atishga bor kuchimiz bilan harakat qilamiz. Ularning ayrimlari oqibatda qanday xavf-xatarga olib borishini bilganimizda edi, o'zimizni tiygan bo'lardik.

Zodagonlarning uch turi bor: 1) nasliy zodagonlik, 2) puldor zodagonlik, 3) ma'naviy (ruhiy) zodagonlik. Oxirgisi hurmat-e'tiborga loyig'idir. Buyuk Fridrix: "Ularni hukmdorlar bilan teng", deb hisoblagan va Volterga ministrilar va generallar qatorida emas, balki o'z yonidan joy bergan.

Har bir zodagonning atrofida unga hasad qiluvchilar davrasi bo'lgan. Har biri unga nisbatan kek saqlab, ularning xatti-harakatlari, o'zlarini tutishlaridan "Mendan afzal joying yo'q!" degan ma'noni uqib olish mumkin. Ularning aynan shu ishonchi aks ma'noni bildiradi.

Bunday odamlardan qutulish yo'li ulardan o'zingni chetroq olib yurish, iloji boricha yaqinlashtirmaslik va doimo masofa saqlab yurish. Buning imkoni bo'lmasa, ular bilan sovuqroq munosabatda bo'lish, hasadni o'ziga yuqtirmaslik: bu narsa ko'pchilikka xos. Zodagonlar o'zaro til topishib ketaveradi, chunki ularning har biri o'zicha o'z afzalligini ustun ko'radi.

\* \* \*

Har qanday ishni boshlashdan oldin uni atroflicha ko‘rib chiqib, muhokama qilib, natijasiga ishonch hosil qilgandagina boshlash kerak. Insonning bilish doirasi cheksiz emasligini, har qadamda kutilmagan hodisalar (to‘sqinliklar) chiqib qolishini nazarda tutib, niyatlarimiz amalga oshmay qolishining oldini olishimiz kerak.

Buni anglash muhim ishlarni amalga oshirishda bizga qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Biror ishni boshladikmi, uni oqimiga qarab natijasini kutishimiz kerak. Ish boshladingmi, endi nima bo‘lar ekan deb tashvishlanma. Aksincha, bo‘lar ish bo‘ldi, endi uni muhokama qilishga hojat yo‘q, natijasini xotirjamlik va ishonch bilan kutish kerak. “Egar mustahkam bo‘lsa, yo‘ling bexatar bo‘ladi”, degan Gyote, italyan maqolini mazmunan tarjima qilib.

Agar natija yomon bo‘lsa, odamzodning yo‘li o‘zi shunaqa, tasodif va xatolarga to‘la. Eng dono inson Suqrot ham buni tan olgan. Bu yerda inson ojiz.

Rim papalaridan qaysidir birining "boshimizga tushgan musibatlarda, qay ma'noda qisman bo‘lsa-da, o‘z aybimiz bor", deb aytgan hikmatli so‘zlari ibratlidir. Omadsizligini, baxtsizligini o‘zgalardan yashirib sir boy bermay yurgan odamning holati shuni eslatadi. Ularning fikricha, chekayotgan musibat aybi bor ekanligidan dalolat beradi.

Boshga tushgan baloni daf qilib bo‘lmaydi, shuning uchun uning oldini olish mumkinmidi, degan xayol bilan o‘z etini o‘zi yeyishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Bunday fikr musibatni yanada oshirib yuboradi, qiynoqqa soladi.

Bunday paytda Dovud podshodan o‘rnak olish kerak: bemor yotgan o‘g‘li haqida qayg‘urib Yaxvega tinimsiz yolboradi, o‘g‘li o‘lgach, qo‘l siltab, boshqa bu haqda o‘ylamaydi. Agar bunga kuchi yetmasa, taqdirga tan berishni o‘rganishi kerak. Peshonaga yozilganini ko‘rasan, taqdiri azal shu.

Baxtsiz hodisa boshiga tushgan odamga taskin beruvchi, tinchlantiruvchi omil bu. Mabodo, bo‘lib o‘tgan voqealarda shaxsning o‘zi aybdor bo‘lsa, u holda chekayotgan iztirob, musibat foydadan xoli emas, chunki bu narsa kelajakda saboq bo‘ladi. Yo‘l qo‘yilgan xatolarimiz oqibatida sodir bo‘lganda, odatdagidek o‘zimizni o‘zimiz oqlamasligimiz, voqealarni

bo'yamasdan, aybimizni tan olib, kelajakda yo'l qo'ymaslikka qat'iy qaror qilish kerak. Albatta, bu o'z-o'zidan bo'lmaydi, odam o'zidan norozi bo'lib, ich-etini yeb yuradi, azob chekadi. Gunoh jazosiz qolmasligi kerak.

\* \* \*

Gap baxt-saodatimiz yoki musibatlarimiz haqida borganda biz o'zimizning tasavvurlarimizni jilovlashimiz kerak. Eng avvalo, biz xayoliy qasrlar qurishdan o'zimizni tiyishimiz lozim, chunki bu foydasiz, oh-voh qilishga arzimaydi.

Tasavvurlarimizdagi baxtsizliklarni o'ylab xavotirlanish undan ham yomon. Xavotirimiz asossiz bo'lsa yoki boshimizga tushadigan musibat dargumon bo'lsa, tinchligimizni yo'qotganimiz qoladi. Agar chuqurroq mulohaza qilib ko'radigan bo'lsak, u sahrodagi sarobdek g'oyib bo'ladi. Ixtiyorimizda bo'lgan hozirgi kundan xavotirlarimizni chiqarib tashlasak tinchroq yashaymiz.

Fantaziyamiz bu narsalarni ko'pam yoqtiravermaydi: biz asossiz ravishda darhol xayoliy orzu-xavaslariga berilamiz. Baxtsizlikning uchquni sezildi deguncha, biz g'amga botamiz, baxtsizlikning turli ko'rinishlarini o'ylab azob-uqubatlarimiz ortaveradi. Hali bostirib kelmagan balo-qazoni o'ylab, xayolimizdan dahshatli fikrlar o'ta boshlaydi. O'zingga kelganingda xayoliy orzu-havaslardan voz kechish osonroq kechadi, lekin g'am-g'ussa bizni tark etishi qiyin, chunki balo-qazoning kelish ehtimoli ko'proq, faqat biz uning qay darajada kelishini bilmaymiz. Qo'rquv iskanjasida qiynalishimizning sababi ham shunda.

Shu sababli baxt-saodatimiz va musibatlarimiz bilan bog'liq narsalar haqida sog'lom fikr yuritishimiz, mulohazakorlik qobiliyatini ishga solib, oddiy tushunchalarga tayangan holda sovuqqonlik bilan xulosa qilishimiz kerak. Xayolotimiz bu yerda ish bermaydi, chunki mulohaza yuritish uning vazifasi emas, u faqat tasavvurimizni boyitib, iztirobimizni kuchaytiradi, xolos.

Bu qoidaga biz ko'proq kechqurunlari rioya qilishimiz kerak. Chunki tun qorong'iligi bizni qo'rqqoq qilib qo'yadi, noaniq fikrlar shunga yetaklaydi. Har qanday noaniqlik shubha tug'diradi. Aql-idrokimiz va mulohaza yuritish



qobiliyatimiz susayib, ularni zulmat qoplaydi, toliqqan intellektimiz voqeahodisalar va ularni keltirib chiqargan sabablarga to‘g‘ri baho bera olmaydi, balki hayajonimizni orttiradi va osonlik bilan qo‘rquv iskanjasiga tushib qolamiz.

Ko‘pincha bu narsa tunda uyqudan oldin yoki uyg‘onib ketganimizda sodir bo‘ladi: aql-idrok o‘z vazifasini bajara olmaydi, tasavvurimiz ishlab tursa-da, narsalarni buzib ko‘rsatadi, shunda qayg‘uga botib yomon fikrlarga boramiz.

Ertalab esa qo‘rquvlarimiz huddi tushdek yo‘qoladi. Shu bois kechqurunlari, ayniqsa tunda noxush voqealarni o‘ylash mumkin emas. Buning uchun eng qulay vaqt – erta tong. Aqliy va jismoniy mehnat uchun ham tong yaxshi payt.

Tong – xuddi yoshlikka o‘xshaydi, hamma narsa musaffo, aniq-tiniq: biz o‘zimizni kuchli, hamma narsaga qodir deb his qilamiz. Buning qadriga yetish lozim, uni behudaga sarflamasdan, uyquda o‘tkazmasdan, qaysidir ma‘noda muqaddas deb bilib, unda hayotimiz mohiyatini ko‘ra bilishimiz kerak.

Oqshom, aksincha, keksalikka o‘xshaydi: charchaganimizdan sergap bo‘lib qolamiz. Yengiltaklik qilamiz. Har bir kunimiz hayotimizning bir qismi. Uyg‘onmoq – bu tug‘ilmoq. Erta tong – yoshlik, tungi uyqu – kichkina o‘lim.

Umuman olganda, sog‘lig‘imiz, uyqu, taom, harorat, ob-havo, sharoit va yana boshqa ko‘p narsalar kayfiyatimizga katta ta‘sir o‘tkazadi, kayfiyat esa o‘z navbatida fikru xayolimizga. Mana shuning uchun har qanday ish hamda uni bajarishga bo‘lgan layoqatimiz zamon va makonga uzviy bog‘liq. Shuning uchun “yaxshi kayfiyatdan foydalanib qol, u doim ham kelavermaydi” (Gyote).

Nafaqat muhim va asosiy fikrlarimiz, balki faqat o‘zimizga taalluqli bo‘lgan shaxsiy masalalar muhokamasini ham, garchi tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lsak ham, o‘zimiz belgilagan vaqtda emas, balki qulay vaziyat yuzaga kelgandagina o‘tkazish maqsadga muvofiq. Muhokamaning o‘zi ham vaqt tanlamaydi, ana o‘shanda diqqatimiz jamlanib, fikrlarimiz quyilib kelaveradi.

Xayolotlarimizni jilovlash haqidagi tavsiyalarga, o'tib ketgan adolatsizliklar, ko'rgan zararlarimiz, yo'qotganlarimiz, haqoratlar, iltifotsizliklar, xafagarchiliklarni eslamaslik ham kiradi, aks holda, biz eski nafrat, alam va adovatlarimizni qo'zg'atib, qalbimizni bulg'ab qo'yamiz.

Neoplatoniklardan Prokl to'qigan masalda aytilishicha, har bir shaharda olijanob va buyuk shaxslar bilan birga turli qalang'i-qasang'i odamlar ham yashaydi. Shunga o'xshash har bir olijanob va buyuk shaxslarda ham tabiat ato qilgan, yuqoridagilarga xos pastkashlik, razillik unsurlari mavjud. Ana shularni qo'zg'atib yubormaslik kerak, zero ular tasavvurlarimizni egallab olib bizni rasvo qiladi.

Ozgina ko'ngilsizlik, uning manбайдan qat'iy nazar, tasavvurimizda kattalashib, qalbimizni chulg'ab oladi va biz o'zligimizni unutib qo'yamiz. Har qanday ko'ngilsizlikka hushyorlik bilan, oddiy voqea sifatida qarashimiz kerak, toki u bizni qiynab qo'ymasin.

Ko'z o'ngimizdagi kichik narsalar atrof-olamni bizdan to'sib, bilim doiramizni toraytirib qo'yadi. Xuddi shuningdek, yaqin atrofimizdagi odamlar va narsalar, garchi arzimas bo'lsa-da, diqqatimizni tortadi, chalg'itadi, muhim ishlarimiz esa qolib ketadi. Buning chorasini topishimiz zarur.

\* \* \*

Bizga tegishli bo'lmagan narsalarga ko'zimiz tushganda: "Agar shu narsa meniki bo'lganda edi", degan fikr kela qoladi, bu esa hissiyotlarimizni qo'zg'atib yuboradi. Uning o'rniga o'zimizda bor narsani yo'qotib qo'ygandek: "Shu narsa meniki bo'lmaganda nima bo'lar edi?" deb so'rashimiz kerak.

Shu qatori o'zimizga tegishli bor narsalarimizga ham: mulklarimiz, sog'ligimiz, do'stlarimiz, sevgilimiz, xotin va bola-chaqamiz, hatto uy hayvonlarimizgacha, chunki biz ularni yo'qotib qo'ygandagina qadr-qimmatini ma'lum bo'ladi. Shu ma'noda biz birinchidan ularning qadriga yetamiz, ikkinchidan, ularni qo'ldan chiqarmaslikka harakat qilamiz – mol-mulkimizni xavf-xatardan saqlaymiz, do'stlarimizning g'ashiga tegmaymiz, xotinimizni

yoʻldan ozdirmaymiz, sogʻligimizni saqlaymiz, bolalarimizni asraymiz va hokazo.

Bugungi kunimizdagi mujmalliklarga aniqlik kiritish uchun biz koʻpincha kelajakka umid bogʻlab xomxayollarga berilamiz, real voqelik bilan toʻqnashganda ular chilparchin boʻladi, biz esa afsus-nadomatlar chekib qolamiz. Yaxshisi nojoʻya ishlar haqida oʻylaganimiz maʼqul, chunki ularning oldini olishga qisman boʻlsa-da harakat qilamiz, qolaversa, ulardan qutulgach koʻnglimiz joyiga tushadi.

Har qanday xavotir oʻtib ketganda koʻnglimiz taskin topadi. Tasodifan boshimizga tushishi mumkin boʻlgan katta baxtsizliklarni ham tasavvur qilib turishimiz kerak, chunki haqiqatan boshimizga ish tushganda unga chidash osonroq kechadi, yomonrogʻiga duchor boʻlmaganligimizdan taskin topamiz. Oldinroq boʻlib oʻtgan xavf-xatarlarni ham eʼtiborsiz qoldirish yaramaydi.

\* \* \*

Bizga taalluqli boʻlgan holatlar va voqea-hodisalar tartibsiz ravishda, tarqoq holda bir-birlarini almashtirib oʻtaveradi. Ular turli-tuman koʻrinishda, bir-birlariga aloqador emas, bizga taalluqli tomonini hisobga olmasak, ularda umumiylik yoʻq. Shunga yarasha tashvish-oʻylarimiz ham ularga munosib tarzda har biriga alohida yondoshishni taqozo qiladi.

Biron-bir ishga kirishganimizda boshqa narsalarni chetga surib, diqqatimizni faqat shungagina qaratish lozim, toki ular xalal bermasin, moʻljallagan vaqtda uni yakunlaylik. Oʻy-fikrlarimizni goʻyo alohida qutichalarda saqlab, kerak paytda zarur boʻlgan qutichani ochib foydalanaylik.

Bu bilan biz yetishgan ozgina halovatimizni ham yoʻqotib qoʻymaslik chorasini koʻrgan boʻlamiz, aks holda oʻrinsiz kelgan fikrlarimiz ustimizga ogʻir yuk ortadi, muhim ishlarning tashvishida yurganimizda, maydachuydalariga beparvolik yuzaga keladi va hokazo.

Ayniqsa, olijanob va yuksak fikr-mulohazalarga layoqatli odamning aql-idroki har qanday arzimas chet fikrlardan, pastkashliklardan xoli boʻlishi

kerak. Bu to‘la ma‘noda “hayot uchun hayotimiz tub ildiziga bolta urish” (Yuvenal) demakdir.

Albatta, o‘zimizni biror narsaga yo‘naltirish va tiyish uchun o‘zimizni majburlash kerak, chunki majburlash tashqi ta’sirlar ostida kelganda bunga chidash juda qiyin, hayotda buningsiz iloji yo‘q. Kerakli paytda qo‘llangan o‘zini-o‘zi majburlash ko‘p hollarda tashqi majburlashdan bizni himoya qiladi.

Boshqa biror narsa bizni bu darajada himoya qila olmaydi. Senekaning hikmatli iboralarida aytilgandek: “O‘zgalar ustidan hukm yuritmoqchi bo‘lsang, o‘zingni aql-idrok hukmiga topshir”. Shu bilan birga, o‘z-o‘zimizni majburlash o‘z ixtiyorimizda qoladi, agar uni juda oshirib yuborsak, jilovni biroz qo‘yib yuborish kifoya. Tashqaridan yuklatiladigan majburiyat esa hech narsa bilan hisoblashmaydi, u ayovsiz va berahm, shafqat nimaligini bilmaydi. Agar biz uning oldini olsak, donolik qilgan bo‘lamiz.

\* \* \*

Istaklarimizni cheklash, ehtiroslarimizni jilovlash, g‘azabimizni bo‘ysundirish uchun har bir inson ham bizga o‘xshab turli balo-qazolardan chetda qolmasligini, “qanoat va sabr-toqat” (Seneka) qilib yashash qoidalariga bo‘ysunmaslikda na boylik, na mansab yordam bera olmasligini yodda tutmog‘i lozim.

*Goratsiyning she‘rlarida shunday ma‘no bor:*

*O‘zinguchun o‘qi,o‘rgan, qil ixlos,*

*Donolar so‘zidan hikmatlar axtar.*

*Ochko‘z nafs zulmidan bo‘lursan xalos,*

*Arzimas mol-mulkka qo‘ymassan havas,*

*Ko‘nglingdan qo‘rqvni quvarsan, xullas,*

*Umringni yasharsan sokin, bexatar.* [\[1\]](#)

“Hayot harakatdan iborat” deganda Sitseron mutlaqo haq edi.

Shu ma'noda hayotimiz to'xtovsiz harakatdan iborat va shunga bog'liq. Shunga monand, ichki ruhiy hayotimiz ham doimo harakatda bo'lishimizni, ya'ni faoliyatimiz, aql-idrokimiz ish bilan band bo'lishini talab qiladi. Bunga misol qilib bekor qolgan, o'y-fikrlardan xoli bo'lgan odam darhol biror narsani tiqillatib o'tirganini keltirish mumkin.

Mohiyatan olganda, turmushimizda dam olishga o'rin yo'q. Shu sababli bekorchilik tez orada jonga tegadi, chidab bo'lmas darajada diqqatimiz oshadi, zerikamiz. Faollikka bo'lgan intilishlarimizni boshqarishimiz, yo'naltirishimiz, qoniqtirishimiz shart.

Demak, inson baxtli bo'lishi uchun ishlashi zarur. U nima bilandir shug'ullanishi, biror narsa qilishi, qaerdadir nimanidir yasashi, hech bo'lmaganda o'qib-o'rganishi kerak. Undagi kuch-quvvat sarflanishga muhtoj, mehnati natijasini ham ko'rishni istaydi.

Eng yaxshi qoniqish biror narsa yaratayotganimizda – xoh savat to'qish bo'lsin, xoh kitob chop etish bo'lsin, shu asnoda paydo bo'ladi. Ishimiz unumiga qarab, kundan-kun o'z qo'limiz bilan yasayotgan narsadan qoniqishimiz ortib, natijasini ko'rgach quvonamiz, o'zimizni baxtli sezamiz. San'at va badiiy asar yaratganimizda, hatto hunarmandchilik buyumi yasaganimizda ham, xuddi shunday hol yuz beradi. Qanchalik darajada ulug'vor narsalar yaratsak, undan olgan qoniqish ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan olganda, eng baxtli odamlar – iste'dodli odamlardir. Ular o'z qobiliyatiga yarasha eng muhim va buyuk asarlar yaratadilar. Ular yuksak darajada hurmatga sazovor, shundan huzur topadilar. Hayotini bema'ni o'tkazayotgan odamlarni ularga tenglashtirib bo'lmaydi.

Barcha qatori ularda ham moddiy ehtiyojlarini qondirish istagi bor va agar muhtojlikka tushib qolmasalar, oliy maqsadlarini amalga oshirish uchun ma'naviy dunyolarini boyitadilar, kelajakda buyuk asarlar yaratish uchun manba qidiradilar. Ularning aql-idroki ikki yo'nalishda: birinchisi oddiy odamlar qatori muomalada bo'lish, ikkinchisi – narsalarni ob'ektiv tushunishga qaratiladi.

Ularning hayoti ikki xil xarakterga ega: bir mahalda ham tomoshabin, ham ijrochi (aktyor) bo'la oladi, qolgan odamlar faqat ijrochi (aktyor) bo'ladilar. Mayli, har kim o'z qobiliyatiga yarasha ish bilan shug'ullana qolsin. Agar ishimiz rejali ketmasa bizga yomon ta'sir qiladi. Bu narsa uzoq muddat ko'ngilochar sayohatga chiqqanimizda bilinadi, chunki o'rganib qolgan ishimizdan mahrum bo'lib, odatlangan tabiiy muhitni biron tortib olgandek bo'ladi, shunda o'zimizni ojiz va baxtsiz his qilamiz.

Yo'limizdagi to'siqlarni bartaraf qilish ham inson ehtiyojiga kiradi, bu ko'rsichqon yer qazigandek tabiiy hol. Uzoq muddat huzur-halovatdan kelib chiqqan bekorchilik chidab bo'lmas darajadagi holatga olib keladi. Turmushdan haqiqiy huzur-halovat topish qiyinchiliklarni yengishda: ular moddiy, ma'naviy yoki amaliyotda uchraydimi, baribir, eng muhimi, ular bilan kurashish va yengishda – bu narsa baxt keltiradi. Agar qiyinchiliklar bo'lmasa, u holda qo'limizdan kelgancha o'zimiz yaratamiz, bu esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi: ov qiladi, balboko'ynaydi yoki ichki bir turtkiga bo'ysunib janjal qidiradi, fitna uyushtiradi, muttahamlik yo'lga kirib yaramas ishlar bilan shug'ullanadi, nima qilib bo'lsa-da, o'zi toqat qilolmayotgan holatdan chiqishga harakat qiladi. Bekorchilikdagi osoyishtalik xavflidir.

Inson o'zi ko'rib turgan mavjud narsalardan olgan taassurotlarining haqiqiy egasi – hukmdori bo'lishi kerak. Anglab yetilgan taassurotlarimizdan ko'ra bevosita ko'rib bilganlarimiz kuchliroq...

O'zgalar bilan bo'ladigan muomalamiz haqida

Inson ehtiyotkor va ko'ngilchan bo'lishi kerak. Ular hayotda juda asqotadi: birinchisi zarar-zahmatdan, ikkinchisi esa bahs-janjallardan asraydi.

Har bir odam (individual) o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini tan olishimiz kerak. Bu xususiyatlar kulgilimi, achinarlimi, o'sha odamning tabiatiga mos. Bunday odamlarni uchratganda o'zimizcha: "Ha, shunaqasi ham bo'lar ekan-da", deb qo'ya qolishimiz kerak. O'zimizni boshqacha tutsak o'zimizga dushman orttirib olgan bo'lamiz. Hech kim o'zining shaxsiy individualligini, ya'ni ma'naviy xarakteri, bilim orttirish qobiliyatini, mijozini, qiyofasini o'zgartira olmaydi. Qanday bo'lsa, shundayligicha qabul

qilmasdan biz uni ayblay boshlasak, u bizga qarshi kurash boshlaydi, chunki boshqa iloji yo‘q, o‘zini o‘zgartira olmaydi, u shunaqa yaratilgan.

Odamlar bilan yonma-yon bo‘lib yashashni istasak, har birining individualligini, u qanday bo‘lmasin, qabul qilishimiz kerak. Bu individuallikdan o‘zimiz xulosa chiqarib, yaxshi jihatlaridan foydalanishgagina haqimiz bor, uni ayblash, ta’na qilishning hech keragi yo‘q. Hayot barchaga barobar berilgan. Kimki o‘ziga xos xususiyatlardan batamom qutula olsa, o‘zini baxtliman deb hisoblayversin. Bu oson emas, albatta. Odamlar bilan toqat qilib muomala qilishni o‘rganish uchun jonsiz narsalardan foydalanish qulay, buning yo‘li oson.

Shu yo‘l bilan orttirilgan sabr-toqatni odamlarga nisbatan ham qo‘llash mumkin, oldingi tajribamiz bu yerda qo‘l keladi, axir yo‘lingda uchragan toshdan xafa bo‘lish tentaklik-ku. “Men uni o‘zgartira olmayman, lekin undan foydalanish mumkin”, – degan fikrga kelish aqlli odamning ishidir.

\* \* \*

Odamlar bilan bo‘lgan suhbatda ularning aql-ongi va qalbi qay darajada o‘xshash yoki turli-tuman ekanligini bilish oson kechadi: uni mayda-chuyda narsalardan ham bilib olish mumkin.

Suhbat ishga aloqasi yo‘q, arziyas narsalar haqida ketganda har kim uni har xil qabul qiladi, kimningdir, hatto, jahli chiqadi.

O‘xshash odamlarning esa fikri bir joydan chiqadi, apoq-chapoq bo‘lib ketadi. O‘rtamiyona odamlar bir-birlari bilan tez til topishib ketishlarini shu bilan izohlash mumkin. Iste’dod egalari aksincha, barcha bilan til topishib ketavermaydi, ajralib turadi, mabodo o‘ziga o‘xshashini uchratib qolsagina ozgina quvonch sezadi. Teng tengi bilan degan ibora bejiz aytilmagan.

Haqiqiy buyuk aql egalari tanholikni yoqtiradi. Maslakdoshlar tez topishadi, qandaydir ko‘zga ko‘rinmas kuch ularni bir-biriga tortadi.

Tuban niyatli, pastkash va uquvsiz odamlar orasida bu narsani ko‘proq kuzatish mumkin, chunki ular behisob. Haqiqiy iste’dodlilar esa juda kam. Pes pesni qorong‘ida topganidek, ikki yaramas, qabih niyatlarini amalga oshirish uchun, ko‘pchilik orasida bir-birlarini tez topadilar.

Tasavvur qiling (bu bo‘lishi mumkin emas) juda aqlli va iste’dodli odamlar davrasiga ikkita kaltafahm tushib qoldi deylik. Ular tezda topishib oladilar-da, o‘zlaricha “Bu yerda aqlli odam ham bor ekan-ku!” – deya ich-ichidan quvonib ketadi.

Ma’naviy dunyosi qashshoq, aqli qisqa ikki odamning uchrashuviga guvoh bo‘lish juda qiziqarli. Ular bir-birlariga ko‘zi tushdi deguncha, quchoq ochib, go‘yo eski qadrdonlardek og‘iz-burun o‘pishadilar. Bu shu darajada yaqqol namoyon bo‘ladiki, beixtiyor yodingga hindaviylarning (reinkarnatsiya) ta’limoti keladi: oldingi hayotlarida ular o‘zaro do‘st bo‘lmaganmikan?

Bir-biriga o‘xshash odamlarni nima ajratib yuboradi, nima sababdan o‘rtalariga nifoq tushadi? Buning sababi har bir kishining o‘sha paytdagi kayfiyatiga bog‘liq, kayfiyat esa turli vaziyatlar, egallab turgan mavqei, bajarib turgan ishi, jismoniy holatlaridan kelib chiqadi. Shu bois inoq bo‘lgan odamlar o‘rtasida kelishmovchilik yuzaga keladi. Buni bartaraf qilish, ittifoqni tiklashga qobiliyat bo‘lishi va shunga yarasha sharoit yaratilishi kerak.

Jamiyatni birlashtirish uchun umumiy kayfiyat yaratilishi muhim: ommaviy ko‘ngil ochishlar, o‘yin-kulgi, kontsertlar, turli tomoshalar, musiqa va shunga o‘xshash tadbirlar, hatto umumiy xavf-xatar, axborotlar, fikr almashishlar ham bu borada yordam beradi. Bunday paytda shaxsiy manfaat o‘rnini umumkayfiyat egallaydi. Ob’ektiv ta’sirlar yetarli bo‘lmasa, sub’ektiv ta’sir ko‘rsatishga intiladilar: masalan, ichkilik. Bir piyola choy ustidagi suhbat ham uning o‘rnini bosishi mumkin.

Har bir narsani har kim o‘z qarichi bilan o‘lchaydi. Pastkash odamlar o‘zgalarda faqat o‘zida mavjud bo‘lgan kamchiliklar, ojizliklar va pastkashliklarnigina ko‘ra oladi. O‘zgalar haqidagi tasavvuriga shu narsalar sig‘adi, xolos, yuksak fazilatlar emas.

Aql-farosati yo‘q odam, boshqalarda ham uni ko‘rmaydi, qadr-qimmatini o‘z tarozisida o‘lchaydi. Suhbatdoshimiz bilan o‘zimizni teng ko‘ramiz, kimningdir afzalligi va kerak paytida o‘z manfaatlaridan voz kechishi ham sezilmaydi.



Ko‘p odamlarning fikrlash tarzi va aqliy qobiliyati tuban va ojiz ekanligini hisobga olsak, ular bilan boshqacha tarzda gaplashish mumkin emas, ya’ni ular bilan suhbatda o‘shalar darajasiga tushib gaplashish kerak. Bunday odamlarning asl mohiyatini tushungach, ulardan o‘zingni olib qochasan, boshqa yo‘li yo‘q.

\* \* \*

Kimnidir chuqur hurmat qilish va ayni paytda, unga katta mehr bog‘lash juda qiyinligini Laroshfuko juda to‘g‘ri payqagan. Shuning uchun odamlardan mehr kutamizmi yoki hurmatmi, o‘zimizga bog‘liq. Mehrda, turli ko‘rinishda bo‘lsa-da, shaxsiy manfaat yotadi. Bizga yoqish yoki yoqmasligi, nimaning evaziga orttirilganligiga qarab baholanadi.

\* \* \*

Ko‘pchilik o‘ziga bino qo‘yib yuradi, boshqa narsalar uni qiziqitirmaydi. Gap nima haqida ketmasin, ular darhol o‘zlari haqida o‘ylaydilar, gap orasida tasodifan ularga taalluqli ma’lumot bo‘lsa, diqqat-e’tibori faqat shunga qaratiladi, gap ma’nosi ularga yetib bormaydi. Manfaatlari va shuhratparastliklariga zid bo‘lgan dalillarni ham tan olmaydilar.

Manmanligi shu darajadagi, osongina jizzakiligi tutib, arzimagan narsadan o‘zlarini haqoratlangan hisoblab, xafa bo‘lib yuradilar. Ular bilan suhbatlashish juda qiyin kechadi, qildan qiyiq axtaradilar, arzimagan narsa ularning noziklashib qolgan izzat-nafslariga qattiq tegadi, o‘tmaslashib qolgan aql-idrok va hissiyotlari esa to‘g‘ri gapni qabul qilishga ojiz, o‘zgalarning chiroyli so‘z iboralari ularga begona. Ularni laycha kuchuklarga qiyoslash mumkin – tasodifan panjasini bosib olsang chinqirishi olamni buzadi. Hamma yog‘ini yara-chaqa bosib ketgan bemorga ham o‘xshatish mumkin – qo‘l tekkizib bo‘lmaydi. Suhbatdoshining aqlliyoq ekanligini hazm qilolmaydi – o‘sha paytda buni bilintirmasa ham, keyinchalik yashirib o‘tirmaydi. Bilmagan odam, nega bu odamning g‘azab-nafratiga uchradi, degan xayolga boradi. U xushomadni va maqtozni yoqtiradi, uning atrofida gilar bundan ustalik bilan foydalanadilar. Bilim doirasi tor, intellekti o‘ta past bo‘lsa-da, istak-irodasiga bo‘ysunadi.

Uning ojiz va notavon shaxs ekanligini shundan ham bilsa bo‘ladi-ki, munajjmlarning bashoratlarini yoqtiradi, go‘yo ulkan osmon jismlari, yulduzlar harakati taqdiri bilan bog‘liqdek. Bu narsa qadimdan ma‘lum.

\* \* \*

Jamoatga oshkor qilingan har qanday mojaro xayrixohlik bilan qabul qilinadi, lekin shundayligicha qolib ketmaydi. Keyinchalik u haqda fikr bildiriladi, muhokama qilinadi, xulosa chiqariladi. To‘g‘ri xulosa chiqarilsa, hamma narsa oydek ravshan bo‘ladi.

Ayrim ma‘noda kattalarni bolalarga qiyoslash mumkin: tanbeh bermaguncha sho‘xliklarini qo‘yishmaydi, kattalar esa indamasang boshingga chiqib olishadi, shuning uchun judayam ko‘ngilchan va muloyim bo‘lish yaramaydi. Do‘sting qarz so‘raganda bermasang, munosabat yo‘qolmasligi mumkin, qarz bersang uni yo‘qotdim deyaver. Do‘st bilan ko‘krakni kerib, beparvolik bilan munosabatda bo‘lish mumkin, lekin judayam oshirib yubormaslik kerak, shuningdek, o‘ta muloyimlik va jonkuyarlikning ham keragi yo‘q – bu ularni chidab bo‘lmas darajada surbet qilib qo‘yadi, do‘stlikka putur yetadi.

Kingadir kerak ekanligini bilgan odam o‘ziga bino qo‘yib, takabburga aylanadi. Ayrimlariga ishing tushsa yoki tez-tez uchrashib sirdosh ohangda gaplashsang ham shu hol ro‘y beradi, har qanday erkalik va injiqliklarimni ko‘tarishga majbur degan xayolga boradi, do‘stlik chegarasini buzib, odob doirasidan chiqib ketadi.

Shuning uchun barchani do‘st tutaverish ham yaramaydi, shunchaki tanish-bilishchilik bilan kifoyalanish, odamlardan ehtiyot bo‘lish kerak. Kimdir “men senga emas, sen menga muhtojsan” degan fikrga borsa, ish shu darajaga borib yetadi-ki, go‘yo uning biror narsasini o‘g‘irlab olgansan-u, buning uchun u sendan o‘ch olib, narsasini qaytarib olmoqchidek.

Hech kimga, hech narsaga muhtoj emasligimizni ko‘rsatib qo‘ysak, atrofdagilardan afzalligimiz ana shunda. Shu ma‘noda vaqti-vaqti bilan har bir odam erkakmi, ayolmi bilib qo‘ysin, ularsiz ham hayotimiz yaxshi o‘tayapti: bu do‘stlikni mustahkamlaydi. Ko‘plariga nisbatan, ayrim

paytlarda biroz iltifotsizlikka yo‘l qo‘ysak ham, foydadan xoli emas, do‘stlikning qadriga yetadigan bo‘lishadi.

“Kim hurmat ko‘rsatmasa, unga hurmat ko‘rsatishadi” deyiladi italyan maqolida. Kimki chin ma’noda bizga juda qadrli bo‘lsa, buni o‘zidan yashirishimiz kerak. Bu yaxshi maslahat bo‘lmasa-da, to‘g‘risi shu. Ortiqcha erkalatish hatto itlarni buzadi, odamlar haqida gapirma ham bo‘ladi.

Olijanob qalb va yuksak iste’dod egalari, ayniqsa yoshlikda, odamlar haqida va turmush masalalarida hech narsani bilmasliklari hayron qolarli darajada, shuning uchun ular hayotda ko‘pincha aldanib qoladilar va xatoga yo‘l qo‘yadilar, pastkashlar esa aksincha, uddaburon va ishbilarmon bo‘lishadi.

Bu narsa turmush tajribasi yetishmaganlikdan, ya’ni “oldindan sinalgan” (a priori)ligiga ishonib xulosa qilishdan kelib chiqadi. Omma shu narsani odatdagi o‘lchov qilib olgan va shundan foydalanadi, olijanob va iste’dodlilar esa foydalana olmaydi va shu bilan boshqalardan tubdan farq qiladi. Boshqalarni ham o‘zlariga o‘xshatganlari sababli o‘zgarlar haqidagi fikrlari noto‘g‘ri chiqib qoladi.

Bunday odam o‘zgalarning maslahati, yo‘l-yo‘rig‘i va o‘zining shaxsiy tajribasiga tayanib oxiri omma haqida yaxlit fikrga keladi. Ommaning ko‘pchilik (oltidan besh) qismi bilan uni bog‘lab turadigan narsa yo‘q, aksincha, ma’naviy va intellektual ma’noda shu darajada pastki, yaxshisi, ular bilan imkoni boricha aloqa bog‘lamagan ma’qul.

Ommaning yaramas va pastkashligi haqida tushunchasining poyoni bo‘lmasa kerak. U tirik ekan, tushunchasi kengayib boraveradi, lekin baribir o‘z zarariga yanglishaveradi. Tushunib yetgan taqdirda ham, notanish davralarga kirib qolganda, odamlarning gap-so‘zlari, yuz ifodalari chiroyliligi, ma’noli ekanligidan, halol-pok, chin ko‘ngildan gapirayotganligidan, hurmat-e’tiborga sazovor, saxovatli, fahm-farosatli ekanligidan hayron qoladi.

Bu narsalar uni yanglishtirmasligi kerak, axir tabiat no‘noq ijodkor emaski, har birining peshonasiga “Bu ablah, bunisi ahmoq, ularga ishonmang”, deb tamg‘a bossa.

Aksincha, Shekspir va Gyotening asarlaridagi qahramonlar, hatto iblis ham, shu darajada tabiiy tasvirlanganki, ularning soʻzlari va xatti-harakatlariga ishonmasdan iloj yoʻq.

Shunday qilib, kimdir bu dunyoda shaytonlar shoxli va dumli boʻladi, ahmoqlar masxarabozlarga oʻxshaydi deb hisoblasa, tez orada ularning tuzogʻiga ilinadi. Bunga yana odamlarning oʻzaro munosabatlarini ham qoʻshish mumkin: ular, oyga oʻxshab, faqat bir tomoninigina koʻrsatadi. Bu borada har bir odamning tugʻma isteʼdodi bor: yuz ifodalari yordamida basharalarini niqobga aylantiradilar. Bu yerda har birining oʻziga xos xususiyatlari koʻrinib, shu darajada mos tushadiki, soxta ekanligini sezmay qolasiz.

Odamlar kimnidir ishonchini qozonish maqsadida soxta qiyofaga kiradilar. Bunday qiyofalarga ishonaverish kerak emas va “Jahldor it ham dumini likillatadi” degan italyan maqolini unutmasliklari kerak.

Har holda, endigina tanishgan odam haqidagi yaxshi fikrlardan ehtiyot boʻlishimiz kerak, aks holda, umidimiz puchga chiqib, uyalib qolamiz. Bu haqda Senekaning “Xarakterning xususiyatlarini mayda-chuyda narsalardan payqab olsa boʻladi”, – deganlari eʼtiborga loyiq.

Oʻziga eʼtibori yoʻqolgan odam aynan shu mayda-chuydalarda feʼl-atvorini koʻrsatib qoʻyadi. Ayniqsa, xatti-harakatlardan oʻzgalarni mensimasligi, ular bilan hisoblashmasligi, xudbinligini oshkor qiladi. Muhim ishlarda garchi xudbinligini yashirsa-da, yaqqol koʻrinadi. Turmushdagi kundalik ikir-chikirlar, turli hodisalar, munosabatlarda surbetlik bilan faqat oʻz foydasini, qulayliklarni, oʻzgalarga tegishli narsalarni oʻzlashtirishni oʻylab harakat qilsa, bilingki, u odamning qalbida adolatdan nom-nishon yoʻq. Jiddiy vaziyatlarda ham, agar qonun aralashmasa, ablahligicha qoladi. Bunday odamlardan qoch! Atrofdagilardan tap tortmasdan mavjud tartib-qoidalarga rioya qilmaydigan odam, agar xavf sezmasa, davlat qonunlariga ham itoat etmaydi.

Agar koʻngillari yomonlikdan koʻra yaxshilikka moyil boʻlganida edi, adolat, sadoqat, rahm-shafqat, sevgi-vafo masalalarida ularga ishonsa boʻlardi.

Kechirmoq va unutmoq – misqollab to‘plagan tajribalardan mahrum bo‘lmoqdir.

Tanish-bilish, oshna-og‘aynilardan kimdir boshimizga g‘am-alam yog‘dirsa, o‘ylab ko‘rishimiz kerak, munosabatlarni davom ettirishga arziydimi yo‘qmi? Aks holda, u battar qiladi.

Shuning uchun bunday odamlardan voz kechgan, agar xizmatkor bo‘lsa, javobini berib yuborgan ma’qul. Qasam ichgan taqdirda ham ularga ishonish yarashmaydi.

Inson hamma narsani unutishi mumkin. Faqat o‘zligini, o‘z mohiyatini emas. Xatti-harakatimiz ichki mohiyatimizdan kelib chiqadi. Tabiatimizni o‘zgartirib bo‘lmasligi sababli bir xil vaziyatda oldingisi yana qaytariladi. Iroda erki haqida tanlovga taqdim qilingan asarimni o‘qib chiqishni tavsiya qilardim, shunda adashmas edingiz.

Do‘stlik rishtalari uzilgach, qaytadan tiklash bizga qimmatga tushadi. Chunki sobiq do‘stning qilmishlari oldingidan yuz chandon oshadi, surbetligi chegara bilmaydi. Haydalgan xizmatkor haqida ham shunday deyish mumkin.

Odamlarning fikrlash tarzi, fe‘l-atvori, xuddi manfaatlaridek, o‘zgarib turadi. Tuban niyatlarini amalga oshirishni paysalga solib o‘tirishmaydi. Bizni ishontirish uchun bergan va’dalariga laqqa tushmaylik. Samimiyligiga ishondik deylik, lekin uning vaziyatdan chiqib ketish maqsadida aytilgan va’dasi yolg‘on, haqiqiy tabiati esa o‘z fe‘l-atvori bilan to‘qnashganda namoyon bo‘ladi.

Hayotda uchraydigan pastkashliklar va nodonliklardan xafa bo‘lishning hojati yo‘q. Bu narsa inson zotining o‘ziga xos belgilardan biri ekanligini unutmaylik. O‘z ishining ustasi bo‘lgan zarshunos sof oltinni soxtasidan osongina ajratib olgani singari, bizga keyinchalik bu bilim asqotadi.

Odamlarning bir-biridan farqi bor, albatta, lekin bu dunyoda yovuzlik hukmron – yovvoyilar bir-birining go‘shini yeydi, madaniylashganlari bir-birini aldab kun ko‘radi.

Davlat o‘zi tuzgan turli ma’muriy idoralar, tashkilotlari orqali odamlar

orasidagi boshboshdoqliklar, adolatsizliklarga chek qo'yishi zarur emasmi? Tarixga nazar solsak, taxtga o'tirgan aksariyat podsho avvaliga xalqqa biroz yengillik beradi-da, keyin atrofiga qo'shin to'plab, qo'shni davlatga hujum uyushtiradi. Har bir urush, mohiyatan olganda, talonchilik emasmi?

Qadimda mag'lub tomon g'oliblarning qullariga aylanardi, tovon ham to'lardi. "Har qanday urush talonchilik" deganda Volter haq, olmonlar ham buni tan olishlari kerak.

\* \* \*

Faqat o'z kuchigagina tayanib yashaydigan inson bo'lmasa kerak, unga hayotda yo'l-yo'riq ko'rsatadigan pand-nasihatlari, o'gitlar zarur. Masalaga chuqurroq kirib boradigan bo'lsak, inson o'z qobiliyati qolib, faqat aql-idroki, bilimi orqali olgan xususiyatlarigagina tayanadigan bo'lsa, u holda tabiat ham o'zini ko'rsatib qo'yadi.

Qaytaverar tabiat

panshaxada quvsang ham.

O'zgalar bilan munosabatda mavjud tartib-qoidalar bor, buni yaxshi tushunamiz, amalda esa ko'pincha chetlab o'tamiz. Tushkunlikka tushmang, abstrakt tushunchalarni, maslahatlarni, o'gitlarni qo'llab bo'lmas ekan-da, degan xayolga bormang. Yodingizda bo'lsin: nazariya va amaliyot boshqaboshqa narsa: birinchisi – o'qish, ikkinchisi o'rganish.

Shogird ustoz o'qitganlarini amalda qo'llaganda xatoga yo'l qo'yadi, mashq qilavergach yetuklikka erishadi. Shu tarzda lapashang epchilga, dalig'uli kamtarga, olijanob mazaxchiga aylanadi.

Mashq orqali olingan amaliyot qanchalik mukammal bo'lmasin, inson o'z tabiatidan butunlay qutula olmaydi, vaqti-vaqti bilan u o'zini ko'rsatib qo'yadi. Tashqaridan qabul qilingan xususiyat, ichki tabiiy xususiyatlarini tamoman chiqarib yubora olmaydi, faqat bir-birini to'ldiradi.

Napoleonning "Notabiiy narsalar nomukammallikdir" degan hikmatli so'zlari o'rindir. Bu qoida barchaga, har bir odamga, moddiy va ma'naviyatga oid narsalarga taalluqli.

Mug‘ambirlikdan saqlanish lozim, chunki u nafrat uyg‘otadi. Birinchidan – u qo‘rquvga asoslangan aldov, ikkinchidan – mug‘ambirlik qilsang, o‘z qadringni o‘zing yerga urgan bo‘lasan.

O‘zingdagi yo‘q sifatlar bilan maqtanish o‘sha sifatlar yo‘q ekanligini tan olishdir. Masalan, mardlik, jasorat, aql-idrok, bilim, donolik, boylik, ayollarga yoqish, nasl-nasab borasida maqtanish aynan o‘sha narsalar yo‘qligidan dalolat. Bunday sifatlarga ega bo‘lgan odam hech qachon maqtanmaydi, aksincha, kamtarlik bilan yashiradi. Axir, qozonda bori cho‘michga chiqadi-da!

Hech kim o‘z aslini ko‘rsatib yurish majburiyatini olmagan, albatta, lekin niqob ostida turli illatlar, tabiatimizni hayvon darajasiga tushirib qo‘yadigan buzuqliklar yashirib yotadiki, ularni namoyish qilgandan ko‘ra niqobda yurgan ma‘qul. Mug‘ambirlik ko‘pga cho‘zilmaydi, sababi ham tez oshkor bo‘ladi. Qolaversa, ertami-kechmi, niqob tushib ketadi. “Hech kim uzoq muddat niqobda yashay olmaydi. Soxtalik tabiiylikka tez almashadi” (Goratsiy).

\* \* \*

Inson o‘z tanasining og‘irligini sezmay yuraveradi, ammo o‘zga yukni ko‘tara olmaydi. Shunga o‘xshash o‘z xatolarimiz va illatlarimizni emas, o‘zgalarnikini ko‘ramiz.

Boshqalarda aks etgan o‘z atvorimizni ko‘zguga qarab akillayotgan itga o‘xshatish mumkin. O‘zgalarni tanqid qilgan odam o‘z aybini yuvmoqchi bo‘ladi. Kimki o‘zgalarning illatlarini tanqid qilish bilan birga o‘zlari ham ulardan qutulmoqchi bo‘lsa, demak u odamda adolat, hech bo‘lmaganda g‘urur bor.

Ko‘ngilchan odam esa, senda bor qusur menda ham bor, degan ma‘noda ish ko‘radi. O‘z qusurlarini o‘zgalarda ko‘rib, tuzatmoqchi bo‘lgan odam shu ma‘noda ko‘zguga zarurat sezadi.

\* \* \*

Olijanob toifaga mansub chiqqan yigit odamlarning fikrlash tarzi, mulohazalari, qiziqishlari bir-birlariga yaqin bo‘lganligi uchun munosabatlar

mustahkam bo‘ladi, deb o‘ylaydi. Bu munosabatlar asosida moddiy manfaatdorlik yotishini esa keyincha tushunib yetadi. Bu har qanday munosabat asosida yotadi, lekin ko‘pchilik boshqacha bo‘lishini bilmaydi ham.

Shu sababli aloqa bog‘layotganda, kim qaerda, kim bo‘lib ishlaydi, mansabi, millati, oilasini surishtirishadi, shunga qarab munosabat turini belgilashadi. Uning shaxsiy sifatlari qandayligi esa ko‘ngillariga kelgan paytda so‘raladi.

\* \* \*

Kumush pul o‘rniga qog‘oz pul ishlatilganidek, haqiqiy hurmat va do‘stlik o‘rnini soxta mulozamat egallagan, ba‘zilar bundan juda ustalik bilan foydalanishadi. Aslida shunga munosib odamlar bormi?

Chin do‘stlik deganda beg‘araz munosabat, yordam, yaxshi-yomon kunlarida birga bo‘lish, quvonch va qayg‘ularni baham ko‘rish, bir-birini teng ko‘rish tushuniladi. Bu inson tabiatida azaldan bor bo‘lgan xudbinlikning tamoman teskarisi bo‘lib, unga ishonish juda qiyin. Do‘st tutingan odam o‘zidagi xudbinlikni yashiradi, lekin oz miqdorda bo‘lsa ham do‘stlikni ko‘rsatib turuvchi xatti-harakatlari, uning alomatlari bor, albatta. Bu yolg‘onchi dunyoda barkamol narsaning o‘zi yo‘q, shuning uchun boriga baraka, deb shunga qanoat qilib yashaymiz. Ammo o‘sha do‘stlarimiz orqavartdan biz haqimizda qanday gaplar tarqatayotganligini bilishga harakat qilmay qo‘yaqolganimiz ma’qul.

Kimning chin do‘st ekanligini sinab ko‘rmoqchi bo‘lsang, buning oson yo‘li bor. Do‘stingga “Boshimga mushkul ish tushib qoldi”, de. Do‘sting chin dildan achinayaptimi, beparvomi, bilib olasan. “Do‘st boshiga tushgan kulfat biz uchun doim ham ko‘ngilsizlik degani emas”, deganda Laroshfuko haq gapni aytgan.

Odatdagi “do‘stlar” bunday hollarda ich-ichidan toshib kelayotgan shodligini yashirishga qanchalik urinmasin, o‘ziga bo‘ysunmayotgan xoin lablari buni bildirib qo‘yadi. Bunday “do‘stlar”ning kayfiyatini ko‘tarmoqchi bo‘lsang, boshimga tushgan qayg‘u-g‘amlarni ularga bildirib, o‘jiz ekanligingni ko‘rsatib tur.



Uzoq masofa va ayriliq do‘stlikka raxna soladi. Vaqt o‘tgan sari u abstrakt tushunchaga aylanib boraveradi. Ko‘rib, uchrashib turgan sayin qadrdonlashib boramiz. Mehr ko‘zda, deb bejiz aytilmagan. Inson tabiatan shunaqa.

Do‘stlarni samimiy deb aytamiz, dushmanlarimiz-ku, shundoq ham samimiy, shuning uchun ularning koyib turishlari biz uchun foydali, bundan to‘g‘ri xulosa chiqarib olamiz, kamchiliklarimizni tuzatamiz.

Muhtojlik do‘stlarni kamaytiradimi? Qayoqda! Endigina tanishgan do‘sting sendan qarz so‘rab tursa, nima deb o‘ylaysan?

\* \* \*

Soddadil odamlar iste‘dod va aql jamiyatda hurmat-e‘tibor keltiradi, deb o‘ylashadi. Aslida, bu ko‘pchilikning g‘azab va nafratini qo‘zg‘atadi. Boisi ular o‘z iste‘dodlarini yashirib, og‘ziga talqon solib, pisib yurishga majbur.

Hamma gap shundaki, suhbatdoshining aqlliroq ekanligini sezgan odam, o‘zining aqli past, ojiz ekanligini sezdirib qo‘yganligidan xavotirga tushadi, shu narsa uning g‘azabini qo‘zg‘aydi.

Garsian “Birovga yaxshi ko‘rinishning ishonchli usuli tentaklik to‘nini kiyib olishdir”, deya to‘g‘ri aytgan. Aql-idrokni namoyish qilish, boshqalarning qobiliyatsizligi va befarosatligini ko‘rsatib qo‘yish bilan barobar. Pastkash odam olijanob kishini ko‘rgach, g‘azabi qaynaydi, buning sababi hasaddan boshqa narsa emas. Manmanlikni qoniqtirish – o‘zini boshqalardan ustun ko‘rib, shundan oladigan lazzat, deb hisoblaydilar.

Aql jihatdan ustunlik inson uchun asosiy iftixor omili, uning jonivorlardan farqi ham shunda. Istak-iroda insonning o‘z xohishi bilan boshqariladi, aql esa unga ato qilingan ne‘matdir.

Aql-idrok ustunligini ko‘pchilik oldida ta‘kidlash – jasoratdir. U o‘ziga dushman orttirib oladi, kezi kelganda haqorat qilish orqali undan o‘ch olishadi, bu esa aqldan emas.

Shu sababli jamiyatda mansab va boylikni hurmat qilishadi, aql esa bundan umidvor bo‘lmay qo‘ya qolsin. Nari borsa unga e‘tibor berishmaydi,

bo'lmasa xuddi ayb ish qilib qo'ygandek qarashadi, kezi kelganda kamsitishadi, u esa bo'ynini qisib, yalinib-yolvorib kechirim so'raydi. Sa'diy "Guliston"da aytadi: "Nodoning donishmandga bo'lgan nafrati, donishmandning nodonga bo'lgan nafratidan yuz chandon ortiq ekanligini bilib qo'y".

Aksincha, aql ojizligi tavsiyanoma o'rnini bosadi. Jismimiz uchun harorat qanchalik ta'sir qilsa, aqlimiz uchun boshqalardan ustunlik tuyg'usi shunchalar ta'sir ko'rsatadi, ya'ni aqli zaiflardan ustun ekanligimizni his qilamiz.

Ayollar uchun go'zallik qanchalik muhim bo'lsa, erkaklar uchun aql shu darajada ahamiyatli.

Erkaklar orasida jismoniy ustunlik o'ta muhim ahamiyat kasb etmasa-da, ammo biz o'zimizni barvasta odamlar oldida emas, bo'yi past odamning oldida erkinroq his qilamiz. Erkaklar orasida esi past, bema'ni odamlar ko'pchilikning diqqat markazida bo'ladi, ayollar orasida esa xunuklari. O'z nazarida boshqalardan ustun ekanligini his qilish uchun shu bahonadan foydalanishadi.

Har qalay, aqliy ustunlik odamlarni boshqalardan ajratib turuvchi omil, shu bois undan kamchilik topib, shu bahonada qochadilar, nafratlanadilar.

Jamiyatda muvaffaqiyatga do'stlik va oshna-og'aynigarchilik vositasida erishiladi. Katta iste'dod odamni mag'rur qilib qo'yadi, shuning uchun u boshqalar oldida yaltoqlanmaydi, o'zini yerga urmaydi, balki o'zidagi sifatlarni yashiradi, obro'sini to'kmaydi.

Qobiliyatsiz odamlar yaramaslar oldida ham qo'li ko'ksida, yumshoq supurgi bo'lib turadi, shu yo'l bilan oshna-og'ayni va homiy orttirishadi. Faqat davlat xizmatidagina emas, barcha sohada, hatto ilmda ham shunday. Masalan, akademiyalarda haqiqiy ilm egalari emas, o'rtamiyona olimlar kerilib o'tirishadi, munosiblariga esa u yerda joy yo'q.

Ayollar va husn masalasida ham xuddi shu ahvol: go'zal qizlar o'zlariga munosib dugona topa olmaydilar. Chunki go'zallar sherikchilikka

koʻnmaydilar. Taqqoslashning hojati boʻlmagan joylarda esa husndan bezak sifatida foydalanishadi.

\* \* \*

Oʻzgalarga ishonch bildirishimizda yalqovlik, xudbinlik, shuhratparastlik katta ahamiyat kasb etadi. Yalqovlik – oʻzing bajaradigan ishlarni oʻzgalarga yuklash, xudbinlik – oʻz manfaatining yoʻlida oʻzgalarni ishlatish, shuhratparastlik esa maqtanchoqlikni yoqtirish bilan bogʻliq ishlardir. Shunga qaramay, oʻzgalardan ishonchimizni oqlashlarini talab qilamiz.

Ishonchsizlik jahlimizni chiqarmasin, axir unda halollikni maqtash alomatlar bor. Halollik esa kamyob narsa.

\* \* \*

Xushmuomalalik yaxshi fazilat ekanligini “Etika” nomli kitobimda aytib oʻtgan edim. Xushmuomalalik – axloqiy va intellektual kamchiliklarimizga eʼtibor bermasdan ularni yashirishga doir soʻzsiz kelishuvdir. Har ikki tomon ham bundan manfaatdor ekanligi tufayli ish oson kechadi.

Xushmuomalalik – oqillarning, qoʻpollik esa ahmoqlarning ishi. Bu oʻz ixtiyoring bilan oʻzingga dushman orttirish, oʻz uyingga oʻt qoʻyish degani. Xushmuomalalik hisob-kitobni qalbaki pul vositasida amalga oshirishga oʻxshaydi. Bu yerda xasislik qilish aqlsizlikdir. Aqlli odam bu borada saxiy boʻlmogʻi lozim. Haqiqiy manfaatlarni qurbon qilish evaziga xushmuomala boʻlish qogʻoz pul turganda oltin ulashishga oʻxshaydi.

Tabiiy holatda mum qattiq boʻladi, ozgina harakat uni yumshatadi. Shunga oʻxshash, har qanday janjalkash va jahldor odam ham xushmuomaladan, doʻstlarcha iliq munosabatdan gapga koʻnadigan, xushfeʼl odamga aylanadi.

Xushmuomalalik juda qiyin masala, chunki barcha odamlar oldida qoʻlni koʻkrakka qoʻyib, qulluq qilib turish kerak, garchi koʻp odam bunga noloyiq boʻlsa-da. Istamasangiz ham kimlargadir hamdardlik bildirishingiz, tabassumingizni ayamasligingiz kerak. Gʻururni xushmuomalalikka singdirish – buyuk sanʼat.

Agar manmanlikni haddan oshirib yubormaganimizda, boshqalar ham biz haqimizda o‘z fikriga ega ekanligini hisobga olsak, arzimagan gapdan xafa bo‘lishga hojat qolmasdi.

O‘zgalarning tanbehini eshitish bilan tanishlaring sen haqingda o‘zaro nimalar deganini eshitib qolish o‘rtasida keskin farq bor. Odatdagi xushmuomalalik shunchaki niqob ekanligini yoddan chiqarmasligimiz lozim. Niqob goho qiyshayib ketadi, goho bir necha daqiqaga tushib qoladi. Niqobni olib tashlagan odam o‘z asliga qaytib, qo‘pol bo‘lib qoladi, bu esa jamiyatda juda xunuk bo‘lib ko‘rinadi.

\* \* \*

Xatti-harakatlarimizda hech qachon o‘zgalarga taqlid qilish yaramaydi, chunki har bir holat va vaziyatda har kim o‘z tabiatiga xos xususiyatlardan kelib chiqib harakat qiladi, aks holda soxtaligi oshkor bo‘ladi.

\* \* \*

Kimki o‘zgalarning ishonchini qozonmoqchi bo‘lsa, o‘z fikrini ehtiroslarga berilmasdan, sovuqqonlik bilan ifodalashi lozim. Qiziqqonlik istak-irodaga bog‘liq, shuning uchun fikr-mulohazalarimizni bildirganmizda odamlar ularni noto‘g‘ri tushunishmasin. Istak-iroda insonning tub unsuri, bilish-anglash esa keyinchalik egallanadi, shuning uchun fikrimiz tabiiy bo‘lishi shart.

\* \* \*

Hech kim bilan fikr talashma, odamlarni be‘mani fikrlaridan qaytarmoqchi bo‘lsang, umring zoe ketadi.

Gaplashayotganda o‘zgalarning xatosini tuzatishga urinma, xayrixoh bo‘lganingda ham tushunishmaydi, osonlikcha xafa qilib qo‘yasan, keyin ko‘nglini olishing qiyin.

Suhbat chog‘ida senga yoqmaydigan birorta bema‘ni gap eshitib qolsang, o‘zingni bilmaganlikka ol, go‘yo ikki ahmoq komik rol o‘ynayapti, deb hisobla. Amalda bu sinalgan usul.

Bu bir kam dunyoning kamchiliklarini tuzataman deb behuda urinma, sog‘-omon yurganingga shukur qil, chunki shuning o‘zi baxt.

\* \* \*

Aldov yo‘li bilan oldirib qo‘ygan pulingga achinma, chunki kelgusida bu senga katta saboq bo‘ladi.

\* \* \*

Haq bo‘lgan taqdiringda ham maqtanchoqlik qilma, maqtanish seni yo‘ldan ozdiradi. Maqtanchoqlikni kamtarlik niqobiga o‘rab gapirganingda ham, odamlar unda shuhratparastlikni ko‘radi. Sen esa kulgiga qolasan. Me’yorni bilish lozim.

\* \* \*

Kimdir yolg‘on gapirayotganini sezib qolsak, o‘zimizni unga ishongandek qilib ko‘rsatamiz, lekin u haddidan oshib yanada ko‘proq yolg‘on qo‘shadi, oqibatda niqobi ochilib qoladi. Kimningdir gaplarida haqiqat alomatlarini sezib qolsak, suhbatdoshimiz uni yashirishga harakat qiladi, shunda biz ishonchsizlik bildirsak, u bor gapni aytishga majbur bo‘ladi.

\* \* \*

Shaxsiy ishlarimizni yaqin tanishlarimizdan ham sir tutganimiz ma’qul. Biz haqimizda ularning o‘zlari ko‘rib bilganlari yetarli. Eng arzimmas narsalar ham, vaqti kelganda, bizga zarar keltiradi.

Aqli raso odam nima haqida gapirishdan ko‘ra, nima haqida gapirmaslikni yaxshi biladi. Birinchisi shuhratparastlik alomati, ikkinchisi aqlli odamning ishi. Har ikkalasi uchun ham imkoniyat keng, lekin ko‘pincha bir lahzalik istagimizni qondirish uchun sukut oltinga teng ekanligini yodimizdan chiqarib qo‘yamiz.

Ba’zan yuragimizni bo‘shatish uchun o‘z-o‘zimizga ovoz chiqarib gapirib yuboramiz, ayniqsa, fe’li tez odamlarda bu ko‘proq kuzatiladi. Bu narsa odat tusiga kirib qolmasin, chunki fikr va so‘z uyg‘unligi sodir bo‘lib, o‘zgalar bilan bo‘lgan suhbatda ham shu narsa yuz beradi. Fikrimiz bilan so‘zimiz

o‘rtasida keng masofa saqlashimiz kerak. Ba‘zan bizga taalluqli ayrim holatlarga o‘zgalar ishonmaydi deb o‘ylaymiz, amalda esa ular bunga chippachin ishonishadi. Ularning ishonchini chippakka chiqarmoqchi bo‘lsak, ularning ko‘nglida bunga shubha uyg‘otishimiz kerak. Ammo biz ko‘pincha o‘zimiz uni oshkor qilib qo‘yamiz, bu holatni sezdirmaslik mumkin emas, deya xatoga yo‘l qo‘yamiz. Bu aqlsiz harakatni esankirash deb atashadi.

Boshqa tomondan qaraganda, ayrim munosabatlarda befarosat bo‘lgan odam, gap o‘zgalar haqida ketganda o‘ta ziyraklik qiladi, ba‘zi bir tafsilotlarni ushlab oladi-da, masalani oxirigacha yechmasdan qo‘ymaydi.

Biror o‘tgan voqea haqida gapirganimizda ehtiyot bo‘lishimiz lozim. Nafaqat odamlarning ismini, kimligini bildiruvchi belgilari, voqea sodir bo‘lgan joy, vaqt va shunga taalluqli holatlarni, hatto ikkinchi darajali qatnashchilar haqidagi ma‘lumotlarni ham bildirish noo‘rin, aks holda suhbatdoshimizga voqeaning tagiga yetadigan imkoniyat yaratib qo‘ygan bo‘lamiz.

Zo‘r qiziqish istak-iroda orqali aqlni ishga soladi, u esa qilni qirq yorib voqeaning tagiga yetmaguncha qo‘ymaydi. Odamlar ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lgan haqiqatga emas, shaxsga tegishli haqiqatga o‘ch bo‘lishadi.

Sukut saqlash haqida barcha davr va xalqlarda hikmatli so‘zlar aytilgan, shuning uchun gapni cho‘zmay bir necha arab maqoli bilan cheklanaman: “Dushmaningga bildirmagan narsani do‘stingga ham aytma”, “Sirimni yashirsam u mening asirimga aylanadi, oshkor qilsam men unga asir bo‘laman”, “Sukut daraxtining mevasi – xotirjamlik”.

Iloji boricha o‘zgalar bilan ziddiyatga bormagan ma‘qul. Yaxshisi, har kimsaning qadr-qimmati uning xatti-harakatiga qarab belgilanishini yodda saqla, hech bo‘lmasa o‘zing uchun. Shunga qarab munosabatlarni moslashtirish mumkin, chunki fe‘l-atvor o‘zgarmas bo‘lib, xatti-harakat shundan kelib chiqadi.

Insondagi illatlarni unutish, to‘plagan boylukni behuda sovrish demakdir. Bu narsa bizni ahmoqona ishonch va do‘stlikdan asraydi.

“Mehr bog‘lamaslik, nafratga berilmaslik” turmush hikmatlarining teng yarmi; “Sukut saqlash, hech kimga ishonmaslik” – uning ikkinchi yarmi. Bu dunyoda qonun-qoidalarsiz yashashning iloji yo‘q.

\* \* \*

Qahr-g‘azab va nafratimizni so‘z yoki ko‘z qarashi, xatti-harakat bilan ifodalash befoyda, u kulgili, xavfli, qolaversa, bu aqlsizlik va pastkashlikdir. Biz ularni faqat amaldagina izhor qilishimiz mumkin.

Zaharli jonzotlar faqat sovuqqonlilar orasidagina uchraydi.

\* \* \*

So‘zga urg‘u berish qadimgi zodagonlarga xos. Bu usul suhbatdoshiga qarshi mo‘ljallangan. So‘z ma‘nosi yetib borguncha suhbatdosh talmovsirab turaveradi, biz esa xotirjam o‘z yo‘limizga ketaveramiz. So‘zga urg‘u berish suhbatdoshning hissiyotlarini qo‘zg‘ashi, jahl otiga mindirishi ham mumkin. Ayrim odamlarga ochiq chehra bilan, do‘stona ohangda shu darajada qo‘pol gaplarni aytish mumkinki, oqibatidan xavotir olmasak ham bo‘laveradi.

Olam tartib-qoidalariga va taqdirga doir qarashlar

Inson qay tarzda umr kechirmasin, uning hayotida aynan bir xil unsur (tarkibiy qism)lar mavjud bo‘ladi. Uning umri kulbada o‘tadimi, qasrdami va yoki zohidona tarzda g‘ordami, ahamiyatli xususiyatlari bir xil bo‘ladi. Hayotda sodir bo‘lgan turli-tuman voqealar, sarguzashtlar, baxtli va baxtsiz hodisalar haqida aytadigan bo‘lsak, ularning asosi qandolat mahsulotlari kabi bir xil.

Shakl turli-tuman, o‘zak esa yagona. Bir odamning boshiga tushgan voqea boshqacha ko‘rinishda ikkinchi bir odamning boshiga ham tushadi. Hayotimiz mazmun-mohiyati bir xil, taassurotlarimiz esa turli-tuman.

\* \* \*

Olamni uch xil kuch – donolik, qudrat va baxt boshqaradi, deydi qadim mutafakkirlardan biri. Menimcha, uchinchi kuch – baxt kuchliroq bo‘lsa kerak.

Umr yo‘limizni kemandagi ummondagi suzishiga qiyoslash mumkin. Taqdir go‘yo shamol kabi kema yelkanlarini xohlagan tomoniga burib, goh oldinga, goh orqaga haydaydi, bizning intilishlarimiz, xatti-harakatlarimiz ahamiyatsiz bo‘lib qolaveradi. Intilishlarimizni eshkakka o‘xshatish mumkin, shamol tinganda biroz foydalanish mumkin. Mabodo shamol hamroh bo‘lib qolsa – bu sening baxting. Ispan maqolida: “O‘g‘lingga baxt bergin-u, dengizga ot”, deb bejiz aytilmagan.

Voqea-hodisalar – yovuz kuchlar, ularga ishonib bo‘lmaydi... Taqdir bizga biror narsani in‘om qilar ekan, uni tamoman o‘z ixtiyorimizga berib qo‘ymaydi, shunga munosib ekanligimizni ham bildirmaydi. Balki bizga iltifot ko‘rsatganidan in‘om beradi.

O‘tgan umrimizga nazar tashlasak, uning qay darajada chalkashib ketganini, ko‘plab omad va baxt imkoniyatlarini boy berganimizni, qanchadan-qancha kulfatlar boshimizga yog‘ilganini ko‘ramiz, ana shunda afsus-nadomatlarimizning cheki bo‘lmaydi.

Hayotdagi faoliyatimiz o‘z ixtiyorimizda emas. Bu ikki omilning mahsuli – voqea-hodisalar tizimi va ularning yechimidir. Ular doimo bir-biriga qo‘shilib, chalkashib, biri ikkinchisini o‘zgartirib yuboradi. Voqealar yechimini oldindan topib bo‘lmaydi, voqea-hodisalarning qachon kelishini ham bilib bo‘lmaydi, faqat real voqelikda paydo bo‘lgandagina bizga ma‘lum bo‘ladi.

Ko‘zlagan maqsadimizga hech qachon to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetib borolmaymiz. Unga taxminiy yo‘llar bilan intilamiz, bu yo‘lda ancha qiyinchiliklarni bartaraf qilishga to‘g‘ri keladi. Real voqelik bilan hisoblashib, omad yor bo‘lishiga umid bog‘lab mavjud imkoniyatlarni ishga solish kerak, shunda maqsad sari yaqinlashib boramiz.

Hayotimizni oshiq o‘yiniga o‘xshatish mumkin, lekin kamdan-kam holda oshig‘ing olchi bo‘ladi. Terentiy aytgandek:

*Hayot – qimor, odamzod “Gardkam!” deb otar oshiq.*

*Biroq istaganingdek “olchi” tushmas otganing.*

*Oshig‘ing “tovva” tushsa, xatongni o‘ngla eplab.*



Yoki qartani taqdir chiylab beradi, biz esa qartaboz. Hayotni yana shaxmat o‘yiniga ham o‘xshatish mumkin: sen yutishni rejalashtirasan, ammo raqibing seni esankiratib qo‘yadi. Qismat hayotdagi raqibingdir. Qismatimiz rejalarimizni shu darajada o‘zgartirib yuboradiki, dastlabkisidan asar ham qolmaydi.

Hayotda erishgan muvaffaqiyatlarimizda biz bilmagan yana nimadir bor. Ko‘pincha o‘zimiz o‘ylagandan ham ko‘ra ko‘proq ahmoqona ishlar qilib qo‘yamiz. Ko‘p hollarda o‘zimiz o‘ylagandan ham donoroq ekanligimiz ishimiz natijasiga ko‘ra bilinib qoladi, lekin buni kechroq tushunamiz.

Aqlimizdan boshqa bizda yana qandaydir tabiiy xislat – sezgi bor. Eng muhim paytlarda o‘zimiz bilmagan holda o‘sha tabiiy sezgi namoyon bo‘ladi.

Balki bu tushlarimizda belgi berar, lekin biz uyg‘ongach unutib qo‘yamiz, chunki besaranjom va ikkilanuvchi ongimiz u bilan hamjihat bo‘lishga o‘zlik qiladi. Buyuk jasorat egalari yoshligidanoq bu ichki yashirin kuchni sezib uni rivojlantirishgan. Umuman olganda, o‘z-o‘zini himoya qilish sezgisi barchada mavjud, aks holda insoniyat qirilib ketgan bo‘lard.

Abstrakt printsiplarga ergashib harakat qilish uchun ko‘p mashq qilish kerak, lekin u doim ham yaxshi natija bermaydi. Aksincha, insonda qon-qoniga singib ketgan tug‘ma printsiplar bo‘ladiki, ular fikrlash qobiliyati, hissiyotlari va xohish-istaklar bilan birga kirib kelgan. Odam bu narsani o‘tmishga nazar solgandagina sezadi: uni qandaydir bir ko‘zga ko‘rinmas kuch boshqarib turganini anglab qoladi. Ana o‘sha kuch, o‘zining xususiyatlariga ko‘ra, yo baxtga yetaklaydi yoki baxtsizlikka.

\* \* \*

Vaqt hamma narsaga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmasligini unutmaylik. Shu asnoda nimani qo‘lga kiritgan bo‘lsak, shularning aksini tasavvur qilib turishimiz lozim. Baxtga erishganda baxtsizlikni, do‘stlikda – dushmanlikni, sevgida – nafratni, ishonchda – ishochsizlikni, gunohda – tavbani, havo ochiq kunlari – yog‘ingarchilikni va aksincha, baxtsizlik payti baxtni, qahratonda jaziramani eslab qo‘yaylik. Turmush donoligining doimiy sarchashmalaridan eng keraklisi shu. Chunki yomonlikning oldini olish – kelajakda aldov

qurboni bo‘lmaslikning shartidir. Bu dunyoda hamma narsa o‘zgaruvchan – bebaqo ekanligini nazarda tutsak, tajriba o‘rnini bu borada hech narsa bosa olmaydi. Nafaqat o‘zgaruvchanligini, balki qaysi tomonga o‘zgarishini ham oldindan seza olsak, yutug‘imiz shunda. Hamma narsa o‘zgaruvchan, doimiy narsa esa o‘zgaruvchanlik. Turmushda voqea-hodisalar shu darajada ko‘pki, agar biror xavf-xatarning oldini olmoqchi bo‘lsak, tasodif tufayli u o‘z-o‘zidan bartaraf bo‘lishi mumkin. Agar biz uning oldini olmoqchi bo‘lib harakat qilgan bo‘lsak, yoki biror narsa evaziga erishmoqchi bo‘lsak, mehnatimiz zoe ketadi.

Shuning uchun mo‘ljalni juda uzoqdan olish yaramaydi, voqea-hodisalar ehtimolini ham nazarda tutib, yaxshi niyatda ish boshlagan ma’qul.

Odatda odamlar voqea-hodisalarning kelib chiqish sabablariga emas, oqibat natijalariga ko‘proq e’tibor beradilar. Sabab va oqibatni bog‘lay olmagan odam yanglishadi, boshiga balo-ofatlar yog‘ilgach, musibatlariga o‘zidan boshqa hamroh topolmaydi.

Voqea-hodisalarning oldini olmoqchi bo‘lgan odam uni amalda emas, nazariy jihatdan qilishi kerak. Voqealarni tezlashtirishga hojat yo‘q, vaqti-soati kelganda sodir bo‘laveradi. Vaqtni bo‘ysundirib bo‘lmaydi, aks holda u ayamay o‘ch oladi.

Masalan, tezroq meva olish maqsadida daraxtga turli sun’iy ishlovlar berib, parvarishni tezlashtirsak, ko‘p o‘tmay u qurib qoladi. Yoki o‘spirin bolaga o‘ttiz yoshli erkakning tashvishlari yuklab qo‘yilsa, u eplashi mumkin, lekin keyinchalik bu narsa unga qimmatga tushadi – vaqt uning kuch-quvvatini, hatto umrining bir qismini tortib oladi.

Shunday kasalliklar borki, tabiiy kechganda vaqt o‘tishi bilan davosi topilib asoratsiz o‘tib ketadi. Tezdan davosini topib, oyoqqa turib ketishini istagan odamga ham chorasi topiladi, lekin oqibatda u umrbod ojiz-notavonga aylanishi mumkin.

Urush va g‘alayonlar paytida pul juda zarur bo‘lib qolsa, uy-jihozimizni, qimmatbaho qog‘ozlarimizni arzon-garovga sotib yuborishga majburmiz. Oqibatda bir necha yil chidash o‘rniga bor-budimizdan ayrilamiz. Qarzga botib sayohatga chiqqan odamning ham ahvoli shunga o‘xshash.

Bularning bari sabrsizlik qurboni.

\* \* \*

Aql bilan ish ko'rishda jasorat ham muhim o'rin tutadi. Bu sifatlarning birinchisi onadan, ikkinchisi otadan meros, istak-irodamiz esa ularni kamolga yetkazadi.

Dadil bo'ling!

Mag'rur qarshi oling qismatning beayov zarbalarin.

Bu dunyoda yashash uchun mardonavor ruh, temir iroda, mustahkam qalqon kerak, toki ular taqdir zarbasidan, odamlardan bizni himoya qilsin, chunki hayot kurashlardan iborat. Volter aytadi: "Bu dunyoda omadni faqat qilich dami bilan qo'lga kiritadilar, qo'lda qilich bilan jon beradilar".

Ozgina xavfni sezgach g'ujanak bo'lib burchakka qisilib olgan, dod-voy qilib tushkunlikka tushgan odam qo'rqqoq odamdir. Aksincha, shiorimiz:

Kulfatgaqaysarlik qil, yengilma va olg'a bos.

Biron bir xavf-xatar mavjud ekanmi, uning yakunini kutmasdan, unga qarshi kurashni davom ettirish, tushkunlikka tushmasdan najot qidirish zarur. Bu borada o'zingni chiniqtir.

Yaxshiliklarni hisobga olmasak, bu dunyo qo'rqib, yurakni hovuchlab yashashga arzimaydi.

Jasorat zo'rlikka aylanib ketish ehtimoli ham yo'q emas. Jasoratning barqaror bo'lishi uchun ma'lum ma'noda biroz hadik ham bo'lishi kerak. Biroq, bu haddan oshib ketsa, qo'rqqoqlik paydo bo'ladi.

Haddan tashqari qo'rqinch-vahimaga tushib qolish haqida Bekon Verulamskiy aniq ta'rif bergan: "O'z hayotini himoya qilish va asrash, xavf-xatardan qutulish, uni daf qilish uchun tabiat har bir jonzotga qo'rquv ato qilgan. Lekin tabiat sahiylik qilib o'lchov bermagan, shuning uchun quruq va asossiz qo'rquv tabiiy qo'rquv bilan qo'shilib ketadi. Masalaga chuqurroq qaraydigan bo'lsak, tevarak-atrofnı vahimali qo'rquv bosib ketgan, ayniqsa, odamlarni..."

Dahshatli qoʻrquvning oʻziga xos xususiyati uning asosini aniq tushuntirishning imkoni yoʻqligidir. Qoʻrquv faqat taxminlarga asoslangan, kerak boʻlsa, unga asos qilib qoʻrquvning oʻzinigina olish mumkin.

**Rus tilidan Abdunabi Abduqodirov tarjimasi**

## HAYOT, INSON, IZTIROB

Ongsizlikning zulmatli tunidan uygʻonib, hayotga qadam qoʻygan iroda oʻzini shaxs, individium sifatida allaqanday cheksiz va chegarasiz olamda, qaerlargadir intilayotgan, iztirob chekayotgan, adashib yurgan son-sanoqsiz individiumlar orasida koʻrib, xuddi ogʻir uyqudan uygʻongandek qoʻrqib, sarosimaga tushadi va tezroq orqaga – ongsizlikka qaytgisi keladi. Toki u qaytmas ekan, uni cheksiz, bitmas-tuganmas istaklar kutadi, har bir istakni qoniqtirish esa yana boshqa istaklarni tugʻdiradi. Nafsning tubsiz qaʼridan otilib chiqib kelayotgan istak va intilishlarni toʻla qondiradigan, ularga chek qoʻyadigan birorta ham qoniqtiruvchi narsaning oʻzi yoʻq. Yana shunga ham eʼtibor beringki, har qanday qoniqish oʻzi nimadan iborat: aksariyat, bu oʻz hayotini nochor ahvolda davom ettirishdan iborat, bu esa uzluksiz mehnat, muhtojlikdan qutulish uchun tinimsiz kurash degani, kelajak esa – oʻlim. Inson baxt deb atalmish yolgʻondan iborat oddiy illyuziyaga intilib yashashga mahkum qilingan. Har bir narsaning tub mohiyatida shu kurtak yotadi. Shu sababli koʻpchilik odamlarning hayoti gʻamgin va qisqa. Nisbatan baxtli odamlarda koʻrinish baxtli, xolos.

Hayotda biz umid qilib yurgan narsalar, kattami, kichikmi, hammasi aldov. Hayot bizni biror narsadan umidvor qilar ekan, u amalga oshmaydi, oshgan taqdirda ham, umid qilishga arziyas ekanligini koʻrsatadi. Shunday qilib, bizni goh umidimiz oʻzi, goh amalga oshgani aldaydi. Hayot bizga biror narsani faqat qaytarib olish uchungina tuhfa qiladi. Uzoqning jannatsifat maftunkor goʻzalligi esa, biz uning makriga ilinishimiz zahoti, sarobdek gʻoyib boʻladi. Shunday qilib, baxt doimo kelajakda yoki oʻtmishda boʻladi, hozirgisini esa quyosh nur sohib turgan tekislikda shamol haydab yurgan bir parcha qora bulutga qiyoslash mumkin: orqasi va old tomoni doimo yorugʻ, oʻzi esa tinmasdan soya tashlab turadi.

Ildizi individiumda, shaxsda jo boʻlgan aql-zakovat oldida istaklarimizning barcha obʻektlari arziyasligi yaqqol namoyon boʻladi: dastavval – zamonda. Narsalar arziyasligi, oʻtkinchi ekanligida koʻrinadi. Vaqt oʻtishi bilan rohat-farogʻat va quvonchlarimizdan hech narsa qolmaydi, keyin biz hayron boʻlib, ular qayoqqa yoʻqoldi, deb oʻz-oʻzimizdan soʻraymiz. Binobarin, arziyaslik

o‘zi vaqtning yagona xolis zuhuridir. Boshqacha aytganda, faqat ana shu arzimasgina vaqt, ya’ni narsalarning ichki mohiyatiga tegishli vaqt esa uning ko‘rinishidir. Mana shu sababli vaqt biz idrok etayotgan hodisalarning asosi, poydevori sifatida xizmat qiladi: unda hamma narsa o‘z ifodasini topadi, hatto o‘zimiz ham, shu sababli hayotimizni tiyin-tiyinigacha hisoblab chiqilgan to‘lovga o‘xshatish mumkin: bir kun kelib biz o‘sha qarzlarimizni uzishimiz kerak; kunlar – sariq chaqalar, qarz uzish – o‘lim. Zero, vaqt tabiat barcha mavjudotlariga bergan so‘nggi baho: u berganini yo‘qlikka aylantiradi.

*Yer yuzida qudratliman degan maxluqlar*

*Yashin urgan kabi qular ajal domiga,*

*Yaxshi edi bundan ko‘ra tug‘ilmasalar...*

**(Gyote, “Faust” poemasidan).**

Har bir mavjudot tinimsiz va shoshib borayotgan qarilik va o‘lim – hayotga bo‘lgan istak-irodaga chiqarilgan ayblov hukmidir: bu hukm tabiat, irodasidir, istak va – intilish hech qachon maqsadga yetib bora olmaydi, deb uqtiradi u. “Nimani xohlasang,– deydi u – yakuni shu: arziydigan boshqa biror narsani tanla!” Shunday qilib, har kim o‘z hayotidan o‘zi chiqarib olgan xulosa shundaki, biz nimani xohlasak, u aldamchidir, ular beqaror va o‘tkinchi, quvonchdan ko‘ra ko‘proq g‘am-alam keltiradi, uning mavjudligi asosi qulamaguncha shunday bo‘laveradi. Hayotning o‘zi oxirgi intilishlarimiz va istak-xohishlarimizga qadar aldov va xato ekanligini tasdiqlaydi:

*Qarilik ham, tajriba ham bizni sudraydi,*

*So‘nggi nafas tomoniga yur deb bo‘zlaydi,*

*So‘ngsiz tashvish va azoblar chekib yelibmiz,*

*Topganimiz shuki, bizlar yanglish kelibmiz.*

Biz bu masalani mufassal tarzda ko‘rib chiqmoqchiman, chunki aynan shu qarashlarim ko‘proq qarshilikka uchragan. Dastavval men, har qanday

qoniqish, ya'ni har qanday rohat va har qanday baxt inson uchun falokatli, iztirob esa o'z tabiatiga ko'ra ijobiydir, degan ma'noda ko'rsatgan isbotimni tasdiqlash uchun quyidagilarni keltiraman.

Biz og'riqni his qilamiz, ammo og'riqsizlikni sezmaymiz, tashvishni sezamiz, tashvishsizlikni emas, xavfni sezamiz, xavfsizlikni emas. Xuddi shuningdek, istakni ochlik va tashnalikni sezgandek sezamiz; ammo bu istak qoniqtirilishi bilanoq esdan chiqadi, go'yo luqma yutilgan zahoti hissiyotlarimizga boshqa ta'sir qilmagandek. Rohat va quvonch yo'q paytida biz ularni judayam istaymiz. Iztiroblar yo'qligini, garchi ular oldinroq bizni uzoq muddat qiynoqqa solib kelgan bo'lsalar-da, bevosita his qilmaymiz, mustasno tariqasida, agar ataylab majbur qilinsa, ular yo'qligini o'ylash mumkin. Bular barchasi faqat iztirob va mahrum bo'lishni hissiyotimiz ijobiy qabul qilishidadir va shu tufayli ular o'zlari haqida bizga xabar beradilar; farovonlik esa, aksincha, salbiy tabiatlidir. Mana shu sababli hayotning uch oliy ne'mati – sog'lik, yoshlik va erkinlik bor ekan, biz ularni his etmaymiz, biz ularni yo'qotgandagina his etamiz: axir bu ham inkor etish-ku. Hayotimizdagi baxtli kunlarni biz ularni yo'qotganda, ular o'rniga baxtsiz kunlar kelgandagina his qilamiz. Rohatimiz yuksalib borgan sari, ularni qabul qilish hissi shunchalik darajada pasayadi: odatga aylangan hissiyot bizga endi rohat bag'ishlamaydi. Va aksincha, iztirob bizdagi qabul qilish hissini kuchaytiradi, chunki odat bo'lib qolgan narsani yo'qotish bizni qattiq iztirob chekishga majbur qiladi. Shunday qilib, hayotda ko'p narsalarni egallash istagi ehtiyojlarimiz doirasini kengaytiradi, shu bilan birga iztirobni his etish qobiliyatini ham. 1She'rlarni Mahkam Mahmud tarjima qilgan.

Vaqtimiz qanchalik chog' bo'lsa, u shunchalik tez o'tadi, aksincha, u bizni qanchalik qiynoqqa solsa, shunchalik sekinlik bilan o'tadi, chunki biz his etayotgan narsa iztirob – ijobiydir, uning borligini his qilamiz, rohatni emas. Xuddi shunga o'xshash – zerikkanimizda vaqtni sezamiz, ko'ngil ocharda sezmaymiz. Demak, yashayotganimizni sezganimizdan ko'ra, uni sezmayotganimizda baxtliroqmiz: binobarin, umuman yashamasak yaxshiroq bo'lardi.

Buyuk quvonch o'tmishda kechgan buyuk musibatlar natijasi, deb tasavvur qilishimiz mumkin, chunki uzoq davom etayotgan mamnunlik holati faqat ayrim paytlardagina ishtiyoqmandlik yoki behalovatlik bilangina kechishi

mumkin. Shu bois barcha shoirlar o‘z qahramonlarini og‘ir va qiynoqli ahvolga tushirib qo‘yishga majburlar, keyin esa ularni bu ahvoldan qutqaradilar; drama va eposda doimo kurashayotgan, musibat chekayotgan va ezilgan odamlar tasvirlanadi, har qanday roman – azob chekayotgan inson qalbining titrog‘i va talvasasini ko‘rsatuvchi panorama. Bu estetik zaruriyatni Valter Skott (Shott) “Qadimiy axloq” novellasiga yozgan “Xulosa”sida soddadillik bilan bayon qilgan. Tabiat in‘om etgan iste‘dod va baxtga erishgan Volter ham men aytgan haqiqatga hamohang tarzda: “baxt – orzu xolos, qayg‘u esa bor narsa”, deydi va bunga yana qo‘shimcha qiladi: “Mana, sakson yildirki, men buni o‘zimda sinab ko‘rayapman. Bundan men itoatgo‘y bo‘lish kerak, deb xulosa chiqarib oldim va o‘zimga-o‘zim aytdim – pashshalar faqat o‘rgimchaklarga yem bo‘lish uchungina tug‘iladi, inson esa qayg‘u ich-ichidan kemirishi uchun”.

Hayot istaklarimizga munosib tarzda berilgan va ardoqlanadigan ne‘mat, degan gapni ishonch bilan aytishdan oldin, hayotimizda aqlimizga sig‘adigan darajada ro‘y berishi mumkin bo‘lgan barcha quvonchlarimizni, shu hayotimizda aqlimizga sig‘adigan darajada uchratish mumkin bo‘lgan barcha qayg‘ularimizga solishtirib ko‘ring – taqqoslab, nuqta qo‘yishimiz unchalik qiyin bo‘lmasa kerak. Dunyoda ezgulik ko‘pmi yoki yovuzlik degan mavzuda bahslashish mohiyatan ortiqcha, chunki yovuzlik mavjudligining o‘zigina masalani hal qilib qo‘yadi.

Ezgulikning yovuzlik bilan yonma-yon mavjudligi yoki undan keyin paydo bo‘lishi yovuzlikni o‘zi bilan tenglashtira olmaydi yoki yo‘qqa chiqara olmaydi. “Minglarcha rohat-farog‘at birgina azobchalik emas” (Petrarka). Minglab odamlarning baxt-sururi birgina odamning iztirob va azoblariga malham bo‘la olmaydi: xuddi shunga o‘xshash mening hozirgi rohat-farog‘atim oldingi chekkan azob-uqubatlarimni yo‘q qila olmaydi. Dunyodagi barcha yovuzliklar hozirgiga qaraganda yuz baravar oz bo‘lganda ham olamdagi borlik bizni quvontirishi emas, balki qayg‘uga solishi kerak, chunki yovuzlik borligining o‘zi yuqoridagi haqiqatni asoslantirib turipti, buni esa turli ohang va yo‘llar bilan ifodalash mumkin, binobarin, mohiyatan olganda mavjud bo‘lgandan ko‘ra yo‘qlik sari yuz tutgan ma‘qulroq. Bu fikrni Bayron mahorat bilan ifodalaydi:



“Hayotimizda g‘ayri-tabiiy xulq-atvorga ega bo‘lgan allaqanday narsa bor: narsalar ohangdoshligida bu bo‘lishi mumkin emas – bu achchiq taqdir, tugatib bo‘lmas yuqumli gunoh, bu cheksiz chegara, ildizi zaminimizda bo‘lgan, barchani zaharlovchi daraxt, uning shox va barglari odamzod boshiga kulfat yog‘diruvchi bulut: kasallik, o‘lim, qullik – bular hammasi biz ko‘rib turgan kulfat tomchilari, eng yomoni – tuzalmas bemor qalbimizni bizga ko‘rinmasdan, beto‘xtov yangidan-yangi alamga to‘ldirayotgani”.

Agar olam va undagi hayot o‘z holicha, o‘z maqsadi uchun yaralganda edi, nazariy jihatdan buni oqlashga muhtojlik bo‘lmasdi, amalda esa mukofotga yoki tuzatishga loyiq bo‘lardi. Spinoza va uning izdoshlari o‘ylaganlaridek, ular iloh tomonidan o‘zligini namoyish etish uchungina yaratilganda edi, u holda yaratish sababini oqlashga, oqibatini esa tushuntirishga zaruriyat sezmasdi, azob-uqubatlar esa rohat-farog‘at bilan tenglasha olardi (lekin buning iloji yo‘q, chunki mening chekayotgan azob-uqubatlarimni kelajakdagi quvonchlar hech qachon yuvib keta olmaydi – bu iztiroblar o‘z zamonasini to‘ldirib turaveradi. Chinakam baxtli hayotda hech qanday iztirob bo‘lmasligi lozim bo‘lardi, o‘lim esa umuman bo‘lmagan yoki mavjudligi bizga bunchalik qo‘rqinch keltirmagan bo‘lardi. Faqat ana shundagina hayot o‘zini-o‘zi qoplagan bo‘lar edi.

Atrofimizdagi narsalarga noxushlik nuqsi ingandek, xuddi do‘zax qa‘ridan tutayotgan oltingugurt isidek, ko‘ngilsizlikni eslatib turuvchi dunyodagi bu holatimiz hayot kechirishdan ko‘ra dunyoga kelmaganimiz ma‘qulroq ekanligini anglatib turadi; bu dunyodagi barcha narsalar nomukammal va aldoqchi – yoqimli narsa yoqimsiz bilan aralash; huzur-halovat doimo chala, rohat-farog‘at o‘z-o‘zini yemiradi; yengillik har doim o‘z ketidan og‘irlikni boshlab keladi; har kuni, har soatda turmushimizda bo‘ladigan muhtojliklardan chiqishga yordam beruvchi imkoniyatlarimiz har daqiqada bizni tark etishga tayyor; biz ko‘tarilayotgan narvon pog‘onalari tez-tez sinib tushadi, turmushdagi katta va kichik tashvishlar hayotimiz tabiatini tashkil qiladi, bir so‘z bilan aytganda, dasturxonimizdagi barcha noz-ne‘matlarni bulg‘ab ketadigan sabablar ko‘p.

Bunga qarshi borishning ikki yo‘li bor: birinchisi – ehtiyotkorlik, ya‘ni aql, oldindan sezib, nazarda tutmoq, ayyorlik – lekin bular hech narsani o‘rgatmaydi, hech narsaga erishtira olmaydi, ular omadsizlikka mahkum;

ikkinchisi – toqatli bo‘lish, har qanday tashvishni sabr-bardosh bilan yengish, amalda bu – doimo qulaylikka, yaxshi hayotga intilmasdan, hayotni, jirkanch bo‘lsa-da, boricha qabul qilish – bu esa bora-bora bizni xumdagi Diogenga o‘xshash “itfe’l” kimsaga aylantiradi. Haqiqat esa shundaki, biz baxtga intilmasligimiz kerak va biz baxtsizimiz ham. Odamzod boshiga yog‘iluvchi eng jiddiy kulfatlarning bosh manbai insonning o‘zidir: odamning odamga bo‘lgan vahshiyligidir. Kim shuni esida qat’iy saqlasa, dunyo unga do‘zax bo‘lib ko‘rinadi; Dante tasvirlagan do‘zax buning oldida holva – bu yerda bir odam boshqasi uchun iblis bo‘lishi kerak, bunga esa, ma’lumki, har kim ham qodir emas, qobiliyatlirog‘i esa qandaydir bosqinchi qiyofasidagi iblisboshi bo‘lib, yuz minglab odamlarni bir-biriga qayrab: “Sizlarning peshonangizga yozilgani shu – qayg‘u va o‘lim – bir-biringizga qarshi miltiq va zambaraklardan otinglar”, deya buyruq beradi, ular esa bunga bo‘ysunib, aytilganini bajaradilar.

Odamlarning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarida yolg‘on ko‘p, adolatsizlik avjida, zulmga zulm bilan javob beriladi; faqat istisno hollardagina buning aksi bo‘lishi mumkin; xuddi mana shuning uchun ham jamiyatda davlatchilik va qonunchilik bo‘lishi zarur. Bu faqat muhokama uchun emas. Davlatchilik ta’siridan tashqaridagi holatlarda odamlar ayovsiz ravishda o‘z yaqinlariga zulm o‘tkaza boshlaydilar, buning asosida esa insonga xos bo‘lgan cheksiz egoizm – xudbinlik, ayrim hollarda esa, qahru g‘azab yotadi. Shakarqamish va qahva yetishtirilayotgan yerlarda negrlarni qul qilib ishlatishda ularga bo‘lgan munosabat buni yaqqol ko‘rsatadi. Besh yoshida turli fabrikalarga yollanib har kuni o‘n-o‘n ikki, hatto o‘n to‘rt soatlab ishlayotganlarni ko‘rish uchun Yevropadan uncha uzoqlashish shart emas, bu tirikchilik uchun juda qimmatli to‘lov. Millionlar taqdiri mana shunday, boshqa millionlar taqdiri ham shundan qolishmaydi.

Jamiyatda o‘z mavqeiga ega bo‘lganlarning boshiga ozgina tashvish tushdi deguncha, o‘zlarini o‘ta baxtsiz hisoblaydilar; bizni baxtli qiladigan narsaning o‘zi dunyoda yo‘q. Kim nima desa desin-u, eng baxtiyor odamning baxtli onlari u uxlagan paytdagina kechadi, uyg‘onishi bilan esa baxtsiz onlari yana paydo bo‘ladi. Inson o‘zini baxtsiz deb his qilishining bilvosita dalili yana shundaki, kimnidir omadi yurishib ketganini bilgach, qalbini hasad olovi qamraydi, bu zahar uni ich-ichidan yemirib, tinchlik bermaydi.

Odamlar o'zlarini baxtsiz deb hisoblaganlari sababli, boshqa bir odamning baxtli ekanligini osoyishtalik bilan kuzatishlari gumondir: tasodifiy baxt nashidasini surgan odam atrofidagilarni ham baxtli qilishni istab hayqiradi:

– Mening quvonchimdan atrofimdagi barcha baxtli bo'lsin!

Agar borliqdagi hayot o'z holicha farovonlikdan iborat bo'lib, uni yo'qlikka almashtirish hojati bo'lmaganda edi, bu dunyodan chiqish eshigiga o'lim va uning dahshatidek qo'rqinchli posbon qo'yish zarurati bormidi? Agar o'lim dahshati bo'lmaganda, kim ham bu dunyoda qolib yashashni istardi? Agar hayot quvonchdan iborat bo'lganida, o'lim haqida kim ham o'ylab o'tirardi?

O'limning yaxshi tomoni ham bor, u (musibatli) hayotimizga chek qo'yadi; turmushdagi qayg'ularimizga biz o'limdan yupanch topmoqchi bo'lamiz va bunga erishamiz. Haqiqat esa shundaki, o'lim ham, iztiroblardan iborat bo'lgan hayot ham – bu bir narsa, ya'ni adashuvlardan iborat bo'lgan labirintdir – undan chiqish qanchalik qiyin bo'lsa, istak ham shu darajadadir.

Amaliy jihatdan olganda, bu dunyoning borligidan ko'ra yo'qligi ma'qulroq bo'lardi, nazariy jihatdan olganda esa unda muammolar uchramasligi lozim edi; bu olam mavjudligi hech qanday tushuntirishga muhtojlik sezmasligi, hamma narsa o'z-o'zidan tushunarli bo'lishi lozim edi, unda ro'y berayotgan hodisalar (oqilona bo'lsa) hech kim ajablanmasdi, ularni surishtirish xayoliga ham kelmasdi yoki mavjudlik maqsadi hamma uchun ochiq-oydin ko'rinib turardi.

Amalda esa dunyo hayoti hal qilib bo'lmas darajadagi muammolardan iborat, har qanday falsafa ham barchasiga javob topa olmaydi, hamisha qandaydir parchalanmas kimyoviy cho'kmalarga o'xshash, tushuntirish mahol unsurlar yoki irratsional ifodalarga o'xshash mujmal narsalar qoladi. Shu sababli, kimdir, nima uchun olam borligidan ko'ra yo'qligi ma'qulroq ekanligi haqida so'rashga jur'at etsa, bu savolga olamda javob yo'q. Dunyo nima maqsadda, qanday foyda uchun yaratilgani haqida javob uchramaydi.

Mening nazariyamga ko'ra, olamdagi borlik tamoyili hech qanday narsaga asoslangan emas, ya'ni u hayotga bo'lgan ko'r-ko'rona istak-iroda tufayli tug'ilgan va bu iroda yaratilish qonuniga bo'ysunmagan, u o'z holicha

ichindagi ichindadir. Shu sababli har qanday “nimaga?” degan savolga javob yo‘q. Bu esa olam tabiatining xususiyatiga to‘la javob beradi, chunki ko‘r-ko‘rona irodagina, xuddi bizga o‘xshab, o‘zini shu ahvolga soladi. Istakirodamiz ko‘r bo‘lmaganda edi, jilovlash qiyin intilish va kurashlardan iborat bo‘lgan, barcha kuch-qudratlarni uzluksiz sarflab turishga majbur qilgan, og‘ir mehnat evaziga o‘z qo‘limiz bilan erishganlarimizni yo‘qqa chiqarib, doimiy bezovtalik, qo‘rquv va muhtojlik bilan, individual borlig‘imizni barbod qilishga olib boruvchi tirikchilikka bunchalik intilish o‘zini-o‘zi oqlamasligini bilardi. Butun olam iztiroblardan iborat ekanligini tasdiqlovchi barcha omillar shunga guvohlik bersalar-da, ongimiz bilan boshqariluvchi irodamizning ayrim ko‘rinishlarini optimizm bilan bo‘yab ko‘rsatish zaruriyati kerak bo‘lib qoldi va u o‘ziga himoyachilar va jarchilar ham topib oldi. Optimizm hayotni bizga go‘yo tuhfa etilgandek qilib ko‘rsatadi, lekin bizga shu narsa ayonki, agar u bizga oldindan ko‘rsatilgan yo sinab ko‘rish uchun berilganda edi, har qanday odam ham jon-dildan uni rad qilgan bo‘lardi: bekorga Lessing hali dunyoga kelmagan, ya’ni doylar qisqichlari bilan majburan sug‘urib olganda ham yashashni istamasdan u dunyoga qaytib ketgan bolasining aqliga bunchalik lol qolmasdi. To‘g‘ri, hayot bu sinov ekanligini har kim biladi, lekin kimdandir so‘ralsa: “Xuddi mana shuning uchun ham xohlamayman, hech qanday sinovga muhtoj emasman, hech kimligimcha o‘z holimga qo‘ying”, – deb javob bergan bo‘lardi. Yana bunga har qanday odam hayotining har bir soati uchun hisobot berishi zarurligini ham qo‘shadigan bo‘lsak, u holda, aksincha, dastlab bizga hisobot berishlari zarur ekanligini, nima sababdan halovatimizdan judo qilib bizni shunchalik darajada baxtsizlikka duchor qilib, qiyin va mushkul ahvolga tushirib qo‘yganligini bilishga haqqimiz borligini tushunamiz (Olamlar egasi, Yaratgan odamlar baxtsiz bo‘lsin demagan, odamlar bir-birini baxtsiz qiladilar – tarj). Demak, noto‘g‘ri tamoyillar shularga olib keladi. Inson borlig‘i uning hayoti in’om etilmaganidan nishona: aksincha, u bizga berilgan qarz, uni uzish esa shart bo‘yicha majburiydir. Bu majburiyat bo‘yicha to‘lov bizdan kechiktirib bo‘lmas ehtiyojlar, qiynoqli istaklar, cheksiz g‘am-alamlar orqali hayotimiz davomida olinadi. Bu qarzni to‘lash uchun biz butun hayotimizni sarflaymiz, lekin shunda ham ma’lum foyizini to‘laymiz, xolos, asosiy qarzimizni esa o‘lim paytida to‘laymiz. Bu shartnoma majburiyatini qachon biz o‘z bo‘ynimizga olganmiz? Tug‘ilgan paytimizda...

Bir mavjudot sifatida inson hayoti unga berilgan jazo va gunohini yuvish uchun imkoniyat, deb qaralsa to'g'riroq bo'lardi. Yahudiylar kitobini muhosasozlik bilan qabul qilishimga sabab "Zand – Avesto"dan olingan (Bun-Daxishn, 15) – balki butun iudaizm ham shu kitobdandir – azaliy (dastlabki) gunohga botish haqidagi rivoyat bo'lib, garchi u majoziy ma'noda metafizik ko'rinishda bo'lsa ham, haqiqatga yaqinroqdir. Shahvatparast gumrohlik mevasi sanalmish hayotimizga o'xshaydigan boshqa biror narsa olamda yo'q. Nasroniylikning "Yangi ahd" kitobi garchi axloqiy jihatdan braxmanlik va buddaviylikka yaqinroq bo'lsa-da, yahudiylarning optimistik ruhiga yotdir, lekin oliy darajadagi donolikdir, shu rivoyat ularni bir nuqtada tutashtiradi.

Mabodo hayotimizga singib ketgan gunohlarimiz darajasini o'lchamoqchi bo'lsak, u bilan bog'liq bo'lgan iztiroblarimizga boqing. Har qanday kuchli azob, u jismoniy yoki ruhiy, shunga munosib ekanligimizdan dalolatdir, agar munosib bo'lmaganimizda boshimizga tushmas edi. Nasroniylik hayotimizni xuddi shu nuqtai nazardan talqin qiladi: "Galatlarga murojaat"ning uchinchi bobiga Lyuter yozgan sharhlarning bir joyida shunga dalil bor (menda uning lotincha matndagi bir nusxasi bor): "Bizning butun jismoniy borlig'imiz o'ziga tegishli narsalar bilan birga iblisga tobedir, biz esa u egalik qilayotgan dunyoda mehmonimiz, xolos. Yeb turgan nonimiz, ichib turgan suvimiz, kiygan kiyimimiz, biz nafas olib turgan havo – barchasi uning qaramog'ida". Mening falsafamni tushkunlik kayfiyati yo'g'rilgan, deb baholovchi hovliqmalarga soddagina javobim shu: kelajakda har kimni gunohiga yarasha do'zax azobi kutib turganligini tasvirlash o'rniga, bu dunyoda qaerdaki gunoh bo'lsa, o'sha yerda do'zaxga o'xshash narsa borligini ko'rsatdim: kimdir buni inkor etmoqchi bo'lsa, vaqti kelib buni osonlikcha o'zida sinab ko'rishi mumkin.

Bir-birini g'ajib, yeb-yo'qotish bilan shug'ullanayotgan, ur-yiqitlar girdobida dabdala bo'lgan, iztirob chekayotgan mavjudodlar dunyosi bu; tirikchilik evaziga o'ziga o'xshash minglab yirtqich hayvonlarni azob-uqubatga solib o'ldirgan va ularning tirik mozoriga aylangan yirtqichlar dunyosi bu; bilimdonlik bilan birga musibat dardini tortish qobiliyati ham yuksalib borayotgan, ziyolilik darajasi oshgan sayin shunga moslashib borayotganlar dunyosi bu. Mana shu dunyoni Leybnits tizimga solgan

optimizmga moslashtirib, eng yaxshi mukammal dunyo sifatida namoyish etmoqchi bo‘ladilar. O‘taketgan bema‘nilik!..

Optimist dunyoga ochiq ko‘z bilan qarashimni, uning qanchalik go‘zal ekanligi, quyoshning zarrin nurlari bilan yoritilgan tog‘lar, vodiylar, daryolar, o‘simliklar va hayvonot olami bilan dunyo munavvarligini ta‘kidlamog‘chi va h.k. Lekin bu dunyo tomoshagoh emas-ku? Bu narsalar, albatta, tomosha qilishga arziydi: lekin tomoshaning o‘zigina bo‘lishi – bu boshqa narsa. Keyin teolog (ilohiyotchi olim) keladi-da, olamning yaratilishi donolikka asoslanganligini; sayyoralar to‘qnash kelmasligi, dengizlar quruqlik bilan aralashib bo‘tqaga aylanmasligi, koinot uzluksiz sovuqdan qotib qolmasligi, issiqdan kuyib ketmasligi, ekliptikaning doimo bir tomonga og‘ib turishi natijasida abadiy bahor hukmron bo‘lib, biror narsa yetishtirib bo‘lmasligi va shunga o‘xshash hodisalar oldi olinganligi haqida maqtovlar, hamdu sanolar o‘qiydi. Lekin bular va shunga o‘xshash narsalarning barchasi zarur bo‘lgan shart-sharoitlar, xolos. Agar qandaydir bir olam mavjud bo‘lar ekan, undagi sayyoralar, xuddi Lessing o‘g‘li kabi, tug‘ilishi bilanoq o‘limga yuz tutmasdan, hech bo‘lmaganda uzoq bir qo‘zg‘almas yulduz nuri unga yetib kelgunga qadar turishi lozim bo‘lsa, u holda poydevori osongina qulaydigan bunday olamni no‘noqlik bilan yaratishga hojat yo‘q edi<sup>1</sup>. O‘sha maqtalغان optimizm erishgan natijalarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, shu darajadagi mustahkam sahnada o‘ynayotgan aktyorlarga tikilibroq qarasak, ta‘sirchanlik bilan birga iztiroblar ham paydo bo‘layotganini, ziyolilik darajasigacha rivojlanib, u bilan qo‘l ushlab kuchayib borayotganini, qudrati o‘sgan sayin ochko‘zlik va musibat ham shu darajada o‘sayotganini va nihoyat, inson hayoti faqat komediya va tragediya uchungina xom ashyoga aylanib qolganligini ko‘ramiz, ana o‘shanda birorta insonda, agar u ikkiyuzlamachi bo‘lmasa, hayotni maqtab madhiya o‘qishga moyillik qolmasa kerak. Bu dardli dunyoga optimizmning yolg‘on maqtovlari to‘g‘ri kelmasligini, uning kelib chiqish manbalarini David Yum “Dinning tabiiy tarixi” asaridagi 6, 7, 8 va 13 boblarida, garchi yashirin tarzda bo‘lsa-da, ayovsiz chilparchin qiladi. Xuddi shu muallif “Tabiiy din haqida dialog” asarining 10, 11-kitoblarida men keltirgan dalillarga uyg‘un tarzda, juda aniq usullar bilan bu dunyoning ishlari azob-uqubatdan iborat ekanligini ochiq-oydin tasvirlagan, har qanday optimizmning foydasiz ekanligini ko‘rsatgan va tag-tomiri bilan yakson qilgan. Yumning yuqoridagi har ikkala asari e‘tiborga sazovor, hozirgi

Germaniyada ularning yaxshi bilmaydilar. Bu yerda esa mahalliy so‘zamollarning zerikarli vaysaqiligini, vatanparvarlik hissidan kelib chiqqan holda, bo‘rttirib ko‘rsatish, o‘rtachalarini ko‘klarga ko‘tarib ulug‘lash bilan ovoradirlar. Vaholanki, bu “Dialog”larni Gaman tarjima qilgan. Kant ularni *1. Artur Shopengauer boshqa asrlarida bu fikrga zid fikrlar aytgan (tarj)*. ko‘rib chiqqan va qarigan chog‘ida ularni qayta nashr qilishga o‘g‘lini ko‘ndirmoqchi bo‘lgan, chunki Platnerning tarjimasi uni qoniqtirmagan (F.V.Shubert tomonidan tuzilgan Kant tarjimai holining 81 va 165-betlariga qarang). David Yunning har bir sahifasidan, Gegel, Gerbert va Shleyermaxerlarning barcha falsafiy asarlarini jamlaganda ham olib bo‘lmaydigan narsalarni olish mumkin. Izchil optimizm asoschisi Leybnits hisoblanadi. Garchi biror marta ham uning uyg‘unlik va farqlanmas (narsalar) o‘xshashlik haqidagi qarashlarini chuqurroq o‘rganmagan bo‘lsam-da, men uning falsafadagi xizmatlarini rad etmoqchi emasman. Uning “Anglash haqida yangi tajribalar”iga kelsak, bu – Lokkning mashhur asarini go‘yo tuzatgandek bo‘lib, yengilgina tanqid bilan sug‘orilgan qisqacha bayonnoma, xuddi Nyutonning tortishuv tizimiga qarshi qaratilganga o‘xshaydi. “Osmon jismlari harakatlari sababi haqidagi tajriba”ga bildirilgan omadsiz urinishdek. “Sof aql tanqidi” aynan mana shu Leybnits-Volf falsafasini rad etadi: unga nisbatan dushmanlarcha munosabatda, hatto uni yo‘qqa chiqaradi, holbuki u Lokk va Yum falsafasiga nisbatan uning davomchisi va rivojlantiruvchisi hamdir.

Agar hozirgi falsafa professorlari turli yo‘llar bilan Leybnitsni, uning avra-astarini ag‘darib qaramasdan, yana oyoqqa turg‘azmoqchi, hatto ko‘klarga ko‘tarmoqchi bo‘lsalar, boshqa tomondan esa ular Kantni imkon boricha kamsitib, o‘z yo‘llaridan chetlatmoqchi bo‘lsalar, bu – “dastlab yashamoq” uchun to‘la asos yaratadi: axir “Sof aql tanqidi” yahudiy mifologiyasini falsafa sifatida ko‘rsatishga, “ruh haqida” ayrim voqelikka o‘xshatib yoki u haqda barchaga ma‘lum va tayin shaxs sifatida gapirishga yo‘l qo‘ymaydi, balki qanday qilib faylasuflar shunday tushunchaga ega bo‘lishdi va undan ilmiy maqsadlarida foydalanishga kim huquq berdi, deb hisobot talab qiladi. Ammo, dastlab yashamoq, keyin esa falsafa suqmoq! Yo‘qolsin Kant! Yashasin bizning Leybnits! – deydilar.

Leybnitsga qaytar ekanman, shuni aytishim zarurki, optimizmni muntazam tarzda, keng miqyosda rivojlantirgan “Teoditseya”si buyuk Volterning o‘lmas “Kandid”ini yaratishga sababchi bo‘lganligidan boshqa biror xizmatini e’tirof eta olmayman. To‘g‘ri, Leybnits o‘zi ham kutmagan holda, tez-tez tilga olib turadigan dunyodagi mavjud yovuzlik uchun yuzaki kechirim so‘rashga asosli bahona topgan: shuni aytadilar-da – ayrim paytda yomonlik ham ketidan yaxshilikni ergashtirib keladi deb. Optimizmga qarama-qarshi bo‘lgan biror narsaga sig‘inish uchun faqat rostgo‘y bo‘lish kerakligi haqida Volter qahramonining nomi shunga ishora qilib turipti. Haqiqatan ham, gunoh, iztirob va o‘lim bir-biriga navbat bermay o‘ynashayotgan bu sahnada optimizm qiziq bir shakldagi ko‘rinishda namoyonki, uni hazilomuz qabul qilish mumkin. Garchi biz uning kelib chiqishini yetarli darajada aniq bilmasak-da, Yum o‘sha sirli manbani qiziqarli tarzda ochib berdi (bu – ikkiyuzlamachilik maqtovi bilan ifodalangan optimizm omadining haqoratomuz tarzidagi ko‘rinishi).

Leybnitsning, bu dunyo yaratilishi mumkin bo‘lgan barcha dunyolar ichida eng yaxshisi, degan sofistika daliliga qarshi jiddiy va vijdonan – bu dunyo yaratilishi mumkin bo‘lgan barcha dunyolar ichida eng yomoni degan dalilni keltirish mumkin. Zero, “mumkin” degani bu kim nimani xohlasa o‘z fantaziyasini ishga solib, shuni chizib berish degani emas, balki mavjud bo‘lishi va saqlanishi mumkin bo‘lgan dunyo haqida bu fikr. Dunyomiz zo‘rg‘a saqlanib turish darajasida omonat qilib yaratilgan, agar bundan ham yomon qilib yaratilganda edi, allaqachon u qulab tugar edi. Binobarin, dunyoni bundan ham yomon qilib yaratish umuman mumkin emas, chunki u holda mavjud bo‘la olmas edi, demak, bizning dunyo yaratilishi mumkin bo‘lgan dunyolar ichida eng yomoni. Amalda, nafaqat sayyoralar to‘qnash kelib qolganda, hatto ulardan birining harakati davomida boshqalari bilan nomutanosiblik ortib borgan taqdirda ham bu dunyo tez orada barbod bo‘lardi: falakiyotshunoslarga ma’lumki, sayyoralarning o‘zaro aylanma harakatlari davri bir-biriga irratsional bog‘liq bo‘lib, tasodifiy to‘qnashuvlar yuz bermasligini hisoblab chiqishgan, bunda, har holda tabiiy halokatlar yuz bermay, sayyoralar muvozanati saqlanib turishi mumkin. Ular o‘z hisoblarida yanglishmaganliklariga (garchi Nyuton bu fikrga qarshi bo‘lsa ham) va sayyoralar tizimining bu abadiy mexanik harakati, boshqa narsalar to‘xtab qolganda ham, to‘xtab qolmasligiga umidvormiz. Sayyoraning qattiq qobig‘i



ostida ulkan kuch-quvvat mavjud va qandaydir tasodifiy hodisa uni tashqariga chiqarib yuborsa, qobiq ustidagi barcha jonzod halok bo'lishi muqarrar: sayyoramizda bunday hodisa kam deganda uch marta ro'y bergan. Lissabonda va Gaitidagi zilzila, Pompey shahrining vayronagarchiligi – bular bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy ofatlar oldida holva. Hatto ximiya fani ham aniqlashga ojizlik qiladigan atmosferadagi sezilmas o'zgarishlar natijasida tarqalgan vabo, sariq bezgak va shunga o'xshash qora o'latlar millionlab odamlar yostig'ini quritadi. Agar bu o'zgarishlar bir necha barobar ko'proq bo'lganida Yer yuzida hayot so'nar edi. Atmosfera haroratining ko'tarilishi esa barcha daryo va suv manbalarini quritib yuborardi.

Jonivorlar a'zolaridagi kuch-quvvat ular hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan miqdorni tashkil etadi, ular buni saqlab turish va avlodlarini davom ettirish evaziga tinmasdan o'rnini to'ldirib turishlari kerak. Shu sababli jonivorlar biror a'zosini yo'qotsa yoki faoliyati cheklansa, aksariyat hollarda o'limga mahkum. Hatto odamlardan ular aqlli va ongli bo'lishlariga qaramay, o'ndan to'qqiztasi muhtojlikdan qutulish uchun doimo kurash olib boradi, choh yoqasida, o'lim xavfi ostida yashaydi, og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga turmush posangisini bazo'r saqlab turadi

Shunday qilib, barcha jonzot va har bir jonivorga hayot kechirishi uchun, faqat jonini saqlab turish uchungina asqotadigan imkoniyat berilgan: shu sababli ularning hayoti tinimsiz kurashlardan iborat, har qadamida ularni o'lim xavfi kutadi. Ko'pincha bu xavf-xatardan qutulish imkoni yo'qligi uchun tabiat naslning qirilib ketmasligini ta'minlaydi, shu sababli jonzotlar keragidan ortiqcha darajada zurriyot qoldiradi. Sayyoramizda bir vaqtlar yashagan, keyinchalik yo'qolib ketib toshga aylangan jonzotlarning qoldiqlari bunga hujjatli dalil va guvoh bo'la oladi; keyinchalik ular mavjud bo'lishiga imkoniyat butunlay qolmagan, binobarin, ular yashagan olam mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan eng yomon olamlarning ham yomoni hisoblangan.

Mohiyatan olganda, optimizm – haqiqiy asl-naslimizning noo'rin maqtanishi, ya'ni hayotga aylangan irodaning o'z bunyodkorligidan mag'rurlanishidir. Shu sababli optimizm nafaqat soxta, hatto zararli ta'limotdir. Amalda u hayotni, go'yo biz istagan holat sifatida, biz ko'zlagan baxt sifatida tasvirlab beradi. Shundan kelib chiqqan holda har bir odam

o‘zini baxt va rohat-farog‘atga sazovor, deb o‘ylaydi, lekin, aksariyat, u nasib etmasa, o‘zini adolatsiz tarzda kamsitilgan, hayotda maqsadga erisha olmagan omadsiz odam sifatida his qiladi: vaholanki, hayotimiz maqsadini oxiri o‘lim bilan tugaydigan mehnatda, yo‘qchilikda, qashshoqlikda, g‘am-anduhda ko‘rish to‘g‘riroq bo‘lardi (brahmanlik, hinduviylik va haqiqiy nasroniylik shunda ko‘radi), chunki aynan mana shu qiyinchiliklar bizdagi irodaning hayotga bo‘lgan intilishini inkor etadi.

“Yangi Ahd”da qiynoqlardan iborat hayot poklanish jarayoniga qiyoslanadi, musibat – nasroniylik ramzi hisoblanadi. Shu sababli Leybnits, Sheftsberi, Bollingbrok va A. Poplar o‘z optimizmini bayroq qilib chiqqanlarida ko‘pchilik yer chizib qoldi, chunki nasroniylik optimizmni chiqishtira olmaydi. Volter ham “Lissabon halokati” nomli she’rida optimizmga qarshi bo‘lib, unga yozgan so‘zboshisida buni tubdan aniqlab berdi. Bu buyuk insonni ayrim sotqin olmon qog‘ozbozlari yerga urmoqchi bo‘lsalar-da, men uni mehr bilan ko‘klarga ko‘taraman, u Russodan ancha yuqori turadi. Volterning fikrlari g‘oyatda chuqur, bu quyidagi qarashlarida namoyon bo‘ladi: 1) inson hayotida yovuzlik va musibatning nisbatan ko‘pligini anglashi; 2) iroda kuchi mustahkam bo‘lishi zarurligiga qat’iy ishonch; 3) koinotning fikrlovchi avvali moddiyligining ehtimolligi haqidagi Lokkning g‘oyalarini haqiqiy deb hisoblashi. Russo bo‘lsa, o‘z deklamatsiyalarida bunga qarshi chiqadi, masalan, “Savoya vikariysining diniy e’tiqodi” nomli protestant ruhoniylarining sayoz falsafasini tasvirlovchi asarida. Xuddi shu ruhda Russo optimizmni ko‘klarga ko‘tarib, 1756 yil 18 avgustida Volterga yozgan uzundan-uzoq maxsus xatida uning yuqorida eslatilgan she’riga qarshi chiqib, ma’nosiz, yuzaki, noto‘g‘ri mantiqqa suyanib xulosa qiladi. Russo falsafasining o‘q chizig‘i va asosiy poydevori – nasroniylik ta’limotidagi inson zotining boshlanishi, azaliy gunohi va buzuqligi emas, balki u azaldan ezgulikka moyilligi va kamolotga yetishish uchun cheksiz qobiliyatga ega ekanligi, faqat tsivilizatsiya va uning mevalari uni yo‘ldan ozdirganligi, deb o‘z optimizmi va gumanizmini shu asosga qurganligidir.

“Kandid” asarida optimizmga qarshi hazil-mutoyiba uslubida kurashgan Volter ham, o‘lmas buyuk asari “Kain” (Qobil va Hobil)da bu dunyoqarashga fojia uslubida jiddiy qarshi chiqqan Bayron ham obskurant (rasmiyatchi)

Fridrix Shlegel tomonidan soʻkish eshitgan. Qolaversa, agar men oʻz qarashlarimni tasdiqlash maqsadida barcha zamonlardagi donishmandlarning optimizmga qarshi ruhda aytilgan mulohazalarini keltiradigan boʻlsam, ularning keti uzilmasdi, chunki ularning deyarli har biri bu dunyo behalovat va surursiz ekanligi haqida zoʻr gaplarni aytganlar. Shu sababli, men oʻz qarashlarimni tasdiqlash uchun emas, balki shu bobni bezatish uchun shunga oʻxshash koʻchirmalardan bir nechtasini keltirish bilan yakunlamoqchiman. Dastavval shuni eslatmoqchimanki, greklar, nasroniylikdan va yuqoriosiyoliklarning dunyoqarashidan qanchalik uzoq boʻlmasin, iroda oʻrnining qanchalik darajada kuchli ekanligini qatʼiylik bilan tasdiqlamasinlar, har holda ular musibat borliqning ich-ichiga singib ketganligini anglaganlar. Tragediyani aynan shular yaratganligi bunga yaqqol misol boʻla oladi. Dastlab Herodot tomonidan, keyinchalik boshqa yozuvchilar tomonidan qoldirilgan maʼlumotlarga koʻra, frakiyaliklar odati boʻyicha yangi tugʻilgan chaqaloqlarning dunyoga kelishini yigʻi-sigʻi, doʻfaryod bilan nishonlashgan, bu dunyoda har qadamda yovuzliklar xavf solishini unga aytib yigʻlashgan, marhumni esa, aksincha, bu dunyo musibatlaridan qutulganligini aytib, xursandchilik va hazil-mutoyiba bilan dafn etganlar. Bu haqda Plutarx (“Sheʼriyat erkinliklari haqida”) bizgacha saqlangan ajoyib sheʼrida shunday deydi:

“Ular tugʻilganlarni qaygʻu-alam kutayotganligi uchun yigʻlab kutib olishgan; oʻlganni esa musibatlardan qutulgani uchun doʻstlari olqishlab, xursandchilik bilan kuzatishgan”.

Xalqlarning qon-qardoshligini koʻrsatish uchun emas, balki ushbu holatni axloqan tasdiqlash uchun shuni qoʻshimcha qilish kerakki, meksikaliklar chaqaloqni: “Bolaginam, sen sabr-toqat uchun tugʻilgansan; sabr qil, iztirob chek, sukut saqla”, degan soʻzlar bilan kutib olganlar. Shu hissiyotga boʻysunib, Svift (Valter Skott uning tarjimai holida keltirganidek) bolaligidan boshlab tugʻilgan kunini xursandchilik bilan emas, xafagarchilik bilan kutib olishni odat qilgan. Oʻsha kuni u uyida oʻgʻil tugʻilganligi haqida xabarni eshitgach, otasining uyida Injildan Iov koʻz yoshi toʻkayotganligi haqidagi boʻlimni oʻqib oʻtirgan.

Aflotun “Suqrot apologiyasi”da bu donishmand tilidan, oʻlim bizni ongimizdan abadiyan judo qilganda biz uchun ezgu tuhfa boʻlur edi, chunki

bir kunlik uyqu oromi, hayotimizdagi eng baxtli kundan ko‘ra yaxshiroqdir, degan joylarini batafsil keltirish juda uzoq vaqtimizni olgan bo‘lard.

Geraklitning: “Hayot – nomigagina hayot, amalda esa bu – o‘lim”, deb yozadi “Hayot” so‘zining katta etimologiyasi” kitobida. Evstet “Iliada” haqida” asarida ham shunday degan.

*Feognitning mashhur go‘zal she‘rlaridan:*

*Tug‘ilmaslik – inson uchun eng katta baxtdir,*

*Ko‘rmasidan quyosh nurin, yorug‘ dunyoni.*

*Yo tug‘ilib, shu zahoti yerga kirsaydi,*

*Ko‘rmas edi bu g‘am-alam, achchiq ro‘yoni...*

Sofokl “Edip Kolonda” dramasi bu fikrni lo‘ndaroq qilib aytgan:

*Tug‘ilmaslik – ulug‘ ne‘mat ekan bizlarga,*

*Modomiki tug‘ildikmi, tez ketgan yaxshi.*

*Evripid aytadi:*

*O, inson azoblari, tuzalmas dardlar...*

*Gomer avvalroq aytgan:*

*“Yer yuzida nafas olib, yashab turganlar*

*Orasida eng baxtsiz insonlar ekan”.*

Hatto Pliniy ham: “Tabiat tomonidan insonga tuhfa qilingan ne‘matlar ichida o‘z vaqtida kelgan o‘limdan boshqa yaxshiroq narsa yo‘q – bu har bir insonga berilgan qalb davosidir”, degan.

V. Shekspir dramasi qiroli Genrix IV tili bilan aytadi:

*Kelajakni biz avvalroq bilganda, evoh,*

*Tushunardik, hayotimiz qadahi goho*

*Shodlik bilan to‘lar, goho g‘am-anduh bilan.*

*Qaysi biri nasib etar – tasodif ishi,*

*Orzu qilar eng baxtiyor, muhtaram zotlar*

*O‘lganimiz yaxshi edi bunday xorlikdan...*

Nihoyat Bayron shunday degan:

“Hayotingda eng quvonchli bo‘lgan damlaringni hisobla; besaranjomlikdan holi bo‘lgan kunlaringni hisobla, hayoting qanday o‘tgan bo‘lmasin, shuni anglagilki, umuman hayot kechirmaganing yaxshiroq bo‘lardi”

Va Baltazar Gratsian “Kritikon” asarida (1 qism, 5 fikrlar boshl. va 7 fikrl. oxirida) hayot musibatlarini qora bo‘yoqlarda tasvirlaydi va uning fojia ekanligini mufassal ko‘rsatib beradi.

Lekin, hozirgi kunlarda hech kim Leonardi (1798–1837 yy. – italyan shoiri) kabi bu masalaga chuqur va har tomonlama yondoshmagan. Bu muammoni yechishga u butun borlig‘i bilan kirishgan; doimiy mavzusi – hayotimizning masxarali va musibatli holatlarini asarlarining har bir sahifasida juda ko‘p shakl va ko‘rinishlarda, turli-tuman obrazlar orqali yoritib berganki, bu narsa hech qachon ko‘nglimizga tegmaydi, aksincha, ta’sirchan va juda qiziqarlidir.

**Abdunabi Abdulqodir tarjimasi**

## AYOLLAR HAQIDA

Agar ayollar bo'lmasa biz o'z hayotimizning dastlabki lahzalarida yordamdan, keyinroq lazzatlardan, eng so'nggida esa ovunchog'imizdan mahrum bo'lar edik, degan edi bir farang olimi. Menimcha, ayollarni haqiqatan ham bundan oshirib maqtashning iloji yo'q.

Ayolning qaddi-qomatiyoq uning na ruhiy, va na ketmon chopishdek og'ir jismoniy mehnat uchun yaratilmaganini ko'rsatib turadi. Ayol yashash majburiyatini borligicha emas, balki azob-uqubatlar tarzida o'taydi: tug'ish mashaqqatlari, bola boqish, erga qaram bo'lish. Yana deng, ayol erga chidamli va quvvat bag'ishlaydigan do'st bo'lishi kerak. Ayol katta dardlar, katta quvonchlar, bahodirlik talab qilinadigan ishlar uchun yaratilmagan. Uning turmushi erkaknikiga nisbatan tinchroq, baxtliroq, mayinroq kechishi zarur.

Ayollar tabiatan bolafe'l, injiq, uzoqni ko'ra bilmaydigan bo'lganlari tufayli bola tarbiyalashga moyildirlar (va shunga moslashishgan). Bir so'z bilan aytganda ular butun hayotlari davomida katta bola ishini qilib yuradilar: bolalik davridan o'tayotgan, lekin hali to'laqonli erkak darajasiga yetmagan o'spirin sifatida ish tutadilar. Qizlarga qarang, kun bo'yi yosh bola bilan achomlashib, o'ynab-kulib yurishdan erinmaydilar. Endi shu qizning o'rniga o'g'il bolani qo'yib ko'ring...

Tomoshaga chiqqaningizda bir narsa qars etsa, birdan hamma chalg'ib, o'sha tomonga qaraydi. Tabiat qiz bolani ham shu taxlit yaratgan. Tabiat qizlarga - keyingi butun hayotlari hisobiga - bir necha yillik go'zallik, qaraganni mahliyo qilish va boshqa shu taxlit ohanrabolarni baxshida etgan. Aynan shu davrda u erkakning xayolini o'g'irlashi, keyin erkak shu go'zallikka bandi bo'lib, chin yurakdan ayolning keyingi hayoti uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi kerak. Erkakni bu yo'lga shunchaki sog'lom fikrlash tarzi bilan kiritmoqchi bo'lsangiz, ularning keyingi hayoti silliq kechishiga ishonch yo'q. Shu tufayli tabiat ayolni, qiz bolani - u o'z kelajagini ta'minlay oladigan darajada qurollantirgan. Urg'ochi qumursqa tuqqandan so'ng keraksiz (tuxumchalarni parvarishlashda hatto xatarli) qanotlaridan mahrum bo'ladi. Shu taxlit ayol ham ikki-uch bola tuqqandan

so'ng go'zalligidan ajraladi. Balki shuning uchun yosh qizlar uy va dala tashvishlarini ikkinchi darajali ish, balki shunchalik arzimagan narsa sifatida qabul qiladilar. Ular uchun eng asosiy jiddiy tashvish: muhabbat, g'alabalar va shunga bog'liq boshqa narsalar: yasan-tusanlar, atir-upa, raqs-o'yin va hokazo...

Biron bir narsa qanchalar tugal va oliymaqom bo'lsa, u shuncha asta va kechroq yetiladi. Erkak ruhan va aqlan aksariyat hollarda yigirma sakkiz yoshlarda yetishadi, ayol esa – o'n sakkizda. Va shunga ko'ra qobiliyatga ega: qisqa o'ylaydilar. Shu tufayli ayollar keyingi butun hayoti davomida ham bolaligicha qoladilar, ko'rib turganini tan oladilar, tutganini mahkam ushlaydilar, shunchaki tashqi ko'rinishni borliq-yo'qlik sifatida tan oladilar va mayda-chuydalarni katta narsalardan afzal biladilar. Aql tufayli odam xuddi jonivor yanglig' aynan hozirgi daqiqa bilan yashamaydi, balki o'tmishni va kelajakni mushohada qiladi. Aql tufayli u ehtiyotkor, orqa-oldini o'ylaydi, sergak bo'ladi. Shuning orqasidan keladigan foyda va ziyonlarga ayol – aqli kalta bo'lgani tufayli! – kam aralashadi. Yanayam aniqrog'i: ruhan uzoqni ko'ra bilmaydi. Uning sezgir aqli ko'z oldidagilarni yaxshi ko'radi, uning o'y doirasiga uzoqdagi narsalar sig'maydi. Shuning uchun yo'q narsalar, o'tib ketgan narsalar bizga nisbatan ayollarga kam ta'sir qiladi. Shu sababli ular ba'zan topgan – tutganingizni telbalarcha o'ysizlik bilan sovurib yuboraverishga moyildirlar. Ular o'zlaricha ishonadilarki, erkak – topish uchun, ayol – sovurish uchun yaratilgan. Iloji bo'lsa, eri tirikligidayoq, yo'qsa, eri o'lgandan so'ng. Er topgan-tutganini ayolning ixtiyoriga topshirib qo'ygandan so'ng ayoldagi bu ishonch yanada mustahkamlanadi. Bu tushuncha har qancha ziyon keltirmasin, foyda tomoni ham bor: ayol hozirgi daqiqa bilan band. Ayol mavjud narsadan bizga nisbatan ko'proq naflanadi. Shu tufayli ayolning fikri tiniq. Shu tufayli, agar siz oila boqishdek tashvishlarga chalkashib qolgan bo'lsangiz, ayol sizning dardingizga malham bo'la biladi.

Qadimgi nemislarning odatini tashlab yubormaslik kerak. – Og'ir daqiqalardagi yig'in-maslahatlarga ayollar ham taklif etilgan, chunki ayol hozirgi daqiqada nima qilish kerakligini biladi. Maqsadga yetkazuvchi eng qisqa yo'lni ko'rsatadi. Xullas, erkak uzoqni o'ylab, tumshug'i tagidagi narsani ko'rmay o'tirganda, ayol uni ushlab, qo'lingizga tutqazadi. Shu

sababga ko‘ra ayol bizga nisbatan hushyor, u biron bir narsani bor bo‘yicha ko‘ra biladi. Biz esa, agar hayajonlanib turgan bo‘lsak, oppa-osongina pashshadan fil yasab, vahima ko‘tarib yuboraveramiz. Shu nuqtai-nazardan ayollar baxtsizlarga erkakdan ko‘ra ko‘proq hamdard bo‘ladilar. Ayollar mehribonroq va oqko‘ngilroq. Ammo qozilikda, haqiqatni yuzaga chiqarishda, vijdoniylikda erkaklarga yutqazadilar. Ayolning aqli kaltaligi tufayli mavjud, ushlasa bo‘ladigan, ko‘z ko‘rib turgan narsalar ularga hokimlik qiladi. Uzoq-yaqin qoidalar, aqida va g‘oyalar, qabul qilingan qat‘iy qarorlar, o‘tmish va kelajak, yo‘q va uzoqdagi narsalar - ular uchun ikkinchi va uchinchi darajali narsalardir. Ana shu sababli ayol fe‘lidagi uzviy yetishmovchilik, balkim kamchilikdir, bu – adolatsizlik! **A d o l a t s i z l i k !** Bu hol biz ilgari ta‘kidlaganimizdek, aql kaltaligi va uzoqni ko‘ra bilmaslik tufayli sodir bo‘ladi. Yana bir jihat: kuchsiz jondor tabiatan kuchliga nisbatan ayyorroq, hiylakorroq bo‘ladi. Axir tabiat sherga tish va tirnoq, filga – xartum, to‘ng‘izga – so‘yloq, ho‘kizga – shox baxshida etganidek, ayolga o‘zini himoya qila olishi uchun – hiylakorlik va yolg‘onchilik baxshida etgan. Shu tufayli biz tilga olgan jondorlar o‘zlaridagi qurol bilan hujumga o‘tganlari misol, ayol ham har bir qulay vaziyatda o‘z quroli bilan hujumga o‘tadi, himoyalanadi. Va bunda o‘z haq-huquqlaridan foydalanayotganlariga shubha qilmaydilar. Ana shulardan kelib chiqqan holda mutlaqo haqiqatgo‘y va samimiy ayolni topish mumkin emas. Shu xislatlari bois ular o‘zgalarning turlanayotganlarini juda tez payqaydilar. Har qalay ayol qoshida nosamimiylikka yo‘l qo‘yish juda xatarli. Ana shu uzviy kamchiliklari bois ayol yolg‘onchilikka, xiyonatga, egrioyoqlikka moyilroq bo‘ladi. Qozixonada ayollar erkaklarga nisbatan bir necha baravar ko‘p yolg‘on qasam ichib, gunohga botadilar. Va umuman, ayolga qasam ichirish kerakmi, yo‘qmi, degan savolning o‘zi bahsli. Axir ba‘zan-ba‘zan hamma joylarda ham moddiy jihatdan to‘liq ta‘minlangan ayollar do‘kondan ul-bul o‘marayotganining guvohi bo‘lganmiz-ku.

Inson zoti tugab ketmaslik uchun uni mudom ko‘paytirish yosh, sog‘lom va go‘zal yigit-qizlar burchi. Xudoning xohishi –shu! Mazkur qonun boshqa barcha qonunlardan qadimiy va boqiydir. Agar kim bu qonun yo‘liga chiqmoqchi bo‘lsa – o‘zining sho‘ri: nima demasin, nima qilmasin, birinchi fursatdayoq ayovsiz toptaladi. Chunki ayollarning yashirin, aytilmaydigan, va hatto onglanmaydigan fe‘li quyidagicha fikrlaydi: “Bizga g‘amxo‘rlik



qilganlari bois endi qandaydir haq-huquqlarga ega bo'ldik, deya o'ylaydiganlarni aldashga haqqimiz bor. Yaqin kishining yaqinlashishi tufayli bizda paydo bo'ladigan avlod, uning ko'rinishi va xususiyatlari bizga bog'liq. U bizning qo'limizga berilgan, uni biz tarbiyalaymiz va biz bu vazifani vijdonan bajaryapmiz". Biroq bu oliy qonunlarni olisdagi sharpalar misoli emas, balki qo'lda mavjud, bor narsa sifati anglaydilar. Va bu holda ularning vijdoni biz o'ylaganga nisbatan ancha tinch bo'ladi, chunki yuraklarining eng ichki qatlamlarida ular tushunadilarki, ular bir shaxsga nisbatan o'z majburiyatlarini buzganlari bilan huquqlari bir necha baravar ziyod bo'lgan avlod oldida keragidan ortiq xizmat qilyaptilar.

Ayol inson zotini ko'paytirish maqsadida yaratilgani va uning boshqa xizmati yo'qligi bois ular alohida shaxsga nisbatan ko'proq avlod tashvishida yashaydilar va avlodga tashvishi shaxsga nisbatan jiddiyroq bo'ladi. Bu ularning borlig'iga va harakatlariga ma'lum darajada yengiltabiatlik bag'ishlaydi. Bu balkim erkakka nisbatan mutlaqo o'zgacha bir yo'nalishki, ana shular aksariyat er-xotinlarning janjaliga, ajrab ketishiga olib keladi.

Erkaklar tabiatida bir-biriga loqaydlik mavjud, ayollar tabiatida esa dushmanlik. Buni hatto bir kasbdoshning ikkinchisiga nisbatan havasi, hasadi, ko'rolmasligi deb tushunish ham mumkin. Gadoning dushmani gado bo'ladi, deganlaridek. Bu hol erkaklar orasida onda-sonda uchrasa, ayol zoti borki, bir-birini ko'rolmaydi, chunki ularning hammasi bitta kasb bilan shug'ullanadi. Ko'chada duch kelib qolsalar, xuddi raqobatchi partiyalarning vakillaridek, bir-biriga sinchkov tikiladilar. Ikki ayol birinchi bor uchrashganlarida – xuddi shu holatdagi ikki erkakka nisbatan anchayin – harakatlari yasama va g'ayribatiiy bo'ladi. Shu sababli bir-birlariga nisbatan maqtovlari beo'xshov va kulgili chiqadi. Bundan tashqari erkak o'zidan past tabaqali odam bilan ma'lum darajada bosiqlik va hurmat bilan gaplashsa, xuddi shu holatdagi ayolning ikkinchisiga nisbatan soxta manmanligini kuzatib ensangiz qotadi. Bu, demak, ayollar orasidagi tabaqalanish tasodifga, - ya'ni erning jamiyatdagi o'rniga bog'liq bo'lib, u tez-tez o'zgarishi va yo'qolib ketishi ham mumkin. Biz erkaklar o'zimizdan pastroq bilan gaplashayotib ming bir narsani o'ylaymiz. Ayol esa bu payt faqat qaysi erkakka yoqqanini nazarda tutadi,xolos. Bundan tashqari ularning hammasi

kasbdosh bo‘lgani bois bir-birlariga erkaklarga nisbatan yaqin turadi va o‘zlarining turli-tuman nayranglarini namoyon etadilar.

Bo‘yi past, yelkalari tor, belidan past keng jinsni faqat jinsiy hissiyot tufayli aqli xiralashgan erkakka go‘zal deya baholay oladi: jinsning barcha go‘zalliklari ana shu hissiyotga qorishib ketadi. Bu jinsni bir qancha asoslarga tayanib, k o‘ r i m s i z va x u n u k deya baholash mumkin. Haqiqatan ham ayollar taasuroti ojiz. Musiqaga, she‘rga, san‘atga chin yurakdan berila olmaydilar. Agar berilsalar ham, bu shunchaki birovga yoqqisi va o‘ynashgisi kelgan maymunning harakatidan boshqa narsa emas. Shu tufayli ular biron-bir holatga xolis yondosholmaydilar. Sababi, o‘ylaymanki, quyidagicha: Erkak o‘zining narsalariga b e v o s i t a h o k i m l i k qilishga urinadi. Yoki aql bilan ularga egalik qilish va bo‘ysundirish yo‘lidan boradi. Ammo ayol hamisha birovning yordami tufayli hokimlik qilishga majbur, ya‘ni eri - birdan bir o‘zi qo‘lida tutib turgan vosita – orqali. Shu tufayli ayollar har bir narsaga – eri olib berishi mumkin va mumkin bo‘lmagan narsa sifatida qaraydilar. Va ularning biron narsaga qiziqishi shunchaki yasama holatdan boshqa narsa emas. Bir vaqtlar Russo: “umuman olganda ayollar san‘atning hech bir turiga qiziqmaydilar, san‘atni tushunmaydilar va hech qanday qobiliyatga ega emaslar”, deya ta‘kidlagan edi. Ha, har bir buyumga bir qarashdayoq ularning tashqi ko‘rinishidan boshqa jihatlarini ham anglay oladigan zot buni darhol tushunadi. Ayollarning kontsert, opera va dramatik tomoshalarda o‘zini tutishiga bir ahamiyat bering. San‘atning noyob durdonalaridan eng zo‘r sahnalar ijro etilayotganda ayol bolalarcha soddadillik bilan yonidagiga safsata sotishda davom etadi. Agar haqiqatan ham greklar ayollarni sahna tomoshalariga kiritmagan bo‘lsalar, to‘g‘ri qilganlar. Har qalay ularning teatrida nimanidir bemalol tomosha qilish, tinglash mumkin bo‘lgan. Bizning zamonamizda: “Ayol cherkovda jim tursin”, degan iborani “teatrda ham” degan jumla bilan tuzatish kerak. Va buni katta harflar bilan sahna pardasiga osib qo‘ysa ma‘qul bo‘lardi. Har qalay ayoldan bundan boshqa narsani kutish mumkin emas. Axir ularning eng yorqin namoyondalari ham nozik san‘atda hech bir haqiqiy buyuk va nodir asar yaratmaganlar. Va umuman, dunyoga hech bir eskirmaydigan, o‘lmaydigan asar taqdim etolmaganlar. Bu ayniqsa, rassomlikda tez ko‘zga tashlanadi. Axir aynan shu sohada ayollar ham erkaklar qatori shug‘ullanish imkoniyatiga egalar. Shug‘ullanyaptilar ham.

Ammo bu sohada o‘zlarining biron bir yuksak san’at asari bilan maqtana olmaydilar, chunki ularda rassom uchun juda zarur bo‘lgan ruhiy xolislik yo‘q. Bundan 300 yil muqaddam Xuan Uarte: “Ayollarda hech qanday ulkan qobiliyat bo‘lmaydi”, degan edi. Istisno tarzida bitta – yarimta uchrab qolishi mumkin, lekin ular umumiy ko‘rinishni o‘zgartira olmaydilar. Ayollar g‘oyatda tor fikrlaydilar, shu sababli g‘oyat axmoqona tarzda o‘zlarini erlariga tenglashtirib, haqiqatda esa erlarining amali va jamiyatdagi o‘rniga sherikchilik qilib, o‘zlari o‘zlarining razil shuhratparastliklarini qondirib turadilar. Ularga nisbatan Napoleon 1 aytgan iborani aslida qonun sifatida qabul qilsalar yaxshi bo‘ladi: “Ular bizning kamchiliklarimiz bilan, bizning tentakona qiliqlarimiz bilan aloqa qilish uchun yaratilgan. Zinhor va zinhor aqlimiz bilan emas. Ayollar va erkaklar orasida badanlar yaqinlashuvi bor. Aqlar, yuraklar va fe’llar yaqinlashuvi kamdan-kam sodir bo‘ladigan hodisadir”. Ayollar barcha jabhalarda erdan keyingi darajadagi ikkinchi jins. Shu sababli ularning kamchiliklariga nisbatan olijanob bo‘lmoq lozim, ammo ularning hurmatini oshirib yuborish, yelkaga chiqarib olish – g‘irt axmoqlik. Bu holda ayolning o‘zi birinchi bo‘lib erni nazar-pisand qilmay qo‘yadi. Tabiat inson zotini ikki jinsga bo‘lib, ular o‘rtasidagi chegara chizig‘ini qoq o‘rtadan bo‘lmagan. Burungilar va sharqliklar ayollarga nisbatan aynan shu nuqtai-nazardan qaraganlar, ayollarga haqiqiy o‘rnini ko‘rsatib qo‘yganlar va to‘g‘ri qilganlar. Biz esa ko‘hna faranglar kabi bachkanalik bilan va kulgili tarzda ayollar qoshida o‘zimizni yo‘qotib qo‘yamiz. Natijada ayollar shu darajada olifta va bezbet bo‘lib ketishdiki, endi ular o‘zlarini go‘yo qo‘l yetmas farishtalar misol tutmoqdalar.

G‘arb ayoli yolg‘on muhitga tushib qolgan: axir ayollar, muqaddas bitiklarda aytilgani kabi, ilohiylashtiriladigan jonzot emas. Natijada biz o‘zimiz yaratgan yolg‘on muhit jabrini tortayapmiz. Shu sababli Ovrupoda inson ? 2 ga o‘z o‘rnini ko‘rsatsalar va o‘z joyiga o‘tishga majburlasalar g‘oyat savob ishni amalga oshirgan bo‘lardilar. Axir shu tufayli nafaqat butun Osiyo bizning ustimizdan kulyapti, balki Rim ham, Gretsiya ham o‘zini tiyib tura olmayapti. Mazkur tadbirning ham siyosiy, ham fuqarolik ijobiy natijalarini hisoblab ulgurolmay qolar edik. Ovrupo ayoli shunaqa jonzotki, u aslida yashashga haqli emas: mayli, bizda uy bekalari bo‘lsin, qizlar uy bekasi bo‘lishni orzu qilib yashasinlar, ya’ni oliftalikka emas, uy kishisi sifatida tarbiyalansinlar. Aynan Ovrupoda past tabaqali ayollar

mavjud bo'lgani sababli Ovrupo ayoli Sharq ayoliga nisbatan anchayin baxtsiz.

Hindistonda hech qachon hech kimga bo'ysunmaydigan, hech kimga qaram bo'lmagan ayollar yashamaydi. U yerda har qanday ayol zoti yo otasining, yo erining, yo aka-ukasining, yo o'g'lining qaramog'ida. Menu qonunining 5-bob 148-bandida deyiladi: "Ayol zoti bolaligida otasining, voyaga yetgandan keyin erining, eri o'lsa o'g'illarining, agar o'g'illari bo'lmasa, erining yaqin qarindoshlarining, agar ota tomondan ham qarindosh bo'lmasa, otasining qarindoshlarining, agar ota tomondan ham qarindosh bo'lmasa, poshsholikning qaramog'ida bo'lishi lozim. Toki ayol hech qachon mustaqillik da'vo qilmasin". Albatta, ayol o'zini erining jasadiga qo'shib yoqib yuborishiga chidash mumkin emas, ammo eri butun umri davomida eshshakday ishlab, bola-chaqam hech kimdan kam bo'lmasin, deb topgan mol-dunyoni ayol o'ynashi bilan o'yin-kulguga sarflab yuborishiga ham chidab bo'lmaydi.

Dastlabki ona muhabbati insonlarda ham, hayvonlarda ham instinkt, xolos. Va bola jismoniy jihatdan o'zini o'nglab olishi bilan instinkt to'xtaydi. O'rnini aql va odatlarga asoslangan muhabbat egallaydi. Ammo afsuski, ko'p hollarda, - agar ona otani sevmasa, - bu narsa ro'y bermaydi. Otaning bolalariga muhabbati esa mutlaqo boshqa narsa va mustahkam poydevorga asoslangan: ota o'z farzandida yana bitta O'ZIn ko'radi.

Salkam barcha eski va yangi xalqlarda, hatto gottentotlarda ham meros erkakdan erkakka qoldiriladi. Faqat Ovrupoda, dvoryanlarni bu hisobga qo'shmasak, mazkur odatga chap berishadi. Erkak butun umr qora ter to'kib topgan mol-dunyo ayol qo'liga tushsayu, ayol qisqa muddatda uni hisob-kitobsiz sovursa, bu juda ham buyuk, juda ham sharmandali nohaqlikdir. Ayolning merosxo'rlik va mulkiy haq-huquqlarini qayta ko'rib chiqish bilangina bu odatga chek qo'yish mumkin. Menimcha, shunday qaror qabul qilish kerakki, unga ko'ra xotinlar, - va qizlar ham, - merosning bir bo'lagini olish huquqiga ega bo'lsinlar, zinhor va zinhor butun merosni emas. Albatta, oilada erkak merosxo'r yo'q bo'lgan holatlar bundan mustasno. Mol-mulknini ayol emas, erkak topadi. Shu tufayli ayol unga shaksiz egalik qilishi ham, uni o'zi xohlaganicha ishlatishi ham mumkin emas. Ayol o'z mulki: puli, uyi, yeriga hech qachon o'z bilganicha egalik qila olmaydi. Ularga doim qarovchi

kerak: shu sababli ularga farzandlarining qarovchisi deb ishonib qo'yish mumkin emas. Ayolning mag'rurligi, - erkaknikidan ziyod bo'lmagan taqdirda ham! – bir yomon tomonga og'ib ketadi: aynan moddiy buyumlarga, ya'ni shaxsiy go'zallik, yaltir-yultur, sirti chiroyli narsalar uchun ko'p narsani qurbon qilib yuboradilar. Erkakning mag'rurligi esa, aksincha, nomoddiy afzalliklarga ega, ya'ni aql, bilimdonlik, mardlik va boshqa shu kabi jihatlar bilan o'lchanadi.

Arastu o'z "Siyosat"ining 11 qism 9-bandida tushuntiradiki, Sparta ayollarga juda ko'p o'rin bergani tufayli (Sparta davrida ayollar merosxo'r bo'lgan, sep olgan, erkin bo'lgan) g'oyat og'ir ahvolga tushdi va oxir-oqibat yiqildi. Menimcha Farang hukumati va saroyidagi Lyudovik X111 davridan aynishlarga ayollar sababchi bo'lsa kerak. Aynib, ijg'ib-bijg'ib, nihoyat birinchi revolyutsiya yuz berdi. Keyin bir necha to'ntarishlar amalga oshirildi. Nima bo'lganda ham ayol jinsining bizdagi soxta holati jamoatchilikning yurak kasaliday gap. U yurakdan chiqib, butun vujudga ta'sir ko'rsatadi.

Ayol turish-turmushi bilan bo'ysunishga mahkum etilgani shundan ham ma'lumki, ularning har qanaqasi ham o'zi ko'nikmagan, o'zi uchun notabiiy bo'lgan to'la erkin holatga tushib qolsa, shu zahoti boshqa bir erkakning yoniga boradi va o'zining ustidan rahbarlik qilishni o'sha erkakka topshiradi. Chunki ayolga hamisha xo'jayin kerak. Agar ayol yosh bo'lsa, - erkak o'ynash, ayol qari bo'lsa, - erkak ma'naviy pir bo'ladi.

**Rus tilidan Abulqosim Mamarasulov tarjimasi**

**Mazkur elektron kitob [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) sayti ma'lumotlaridan foydalangan holda @EpubKitoblar kanali uchun maxsus tayyorlandi.**